Keltirilgan xususiyatlarga asoslanib, sinonimiya, variantlar va parallelliklarni bir tushuncha ostiga birlashtiradi hamda sintaktik sinonimiya yoki sintaktik variantlilik, sintaktik parallelizm deb nomlanadi. Ushbu hodisalarni esa umumiylik-xususiylik, mohiyat va shakl dialektikasidan kelib chiqib, parallel sintaktik butunliklar nomi bilan birlashtirish, ularni shu atama ostida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bizning nazarimizda, sinonimiya, variantlar va parallelliklarni yuqoridagi kabi bir umumiylikka birlashtirishda munozarali o'rinlar bor. Chunki qayd qilingan tushunchalar paydo bo'lish manbaiga ko'ra ham, sababiga ko'ra ham, lisoniy (moddiy) materialiga ko'ra, tanlab olib ishlatish imkoniyati va bunday ehtiyojga ko'ra ham, funksional-uslubiy, ijtimoiy-kommunikativ vazifasiga ko'ra ham til tizimidagi tarmoqlanish (differensiatsiyasi)

jihatidan, bir til va birdan ortiq til (qardosh tillar ko'zda tutiladi)larda mavjudligi jihatidan ham farqli hodisalardir. Mana shunday farq, ayniqsa, sinonimiya, variantlilik va parallelliklarni onomastik material asosida o'rganilganida aniq ko'rinadi.

Parallellik, parallelizm tilning barcha sathlari uchun xosdir. Masalan, leksikologiyada lug'aviy (leksik) parallellar haqida gapiriladi. Chunonchi, o'zbek va mo'g'ul leksikasiga xos parallellar haqida E.Begmatov quyidagilarni yozadi: «...o'zbek tili leksikasida shunday so'zlar ham borki, ular ikki tilda ishlatiladi. Chunonchi, siyreg (siyrak), taylag (tayloq), tang (tanglay), tomu (tumor), elchin (elchi), ert (erta), xox (ko'k), xunjit (kun-jut) so'zlari o'zbek tilida ham, mo'g'ul tilida ham bor va shu tillarda bir xil yoki yaqin ma'nolarda ishlatiladi. Agar mo'g'ul tili turkiy til, qardosh deb tushunilganida, keltirilgan so'zlar umumturkiy leksik qatlamga mansub bo'lur edi. Lekin tilshunoslikda o'zbek va mo'g'ul tillari boshqa-boshqa sistemaga mansub tillar deb ham qaraladi. Bu so'zlarni mo'g'ul tilidan o'zbek tiliga qabul qilingan yoki, aksincha, turkiy tillardan mo'g'ul tiliga o'tgan, qabul qilingan deb bo'lmaydi. Shu sababli bunday so'zlar tilshunoslikda «o'rtoq so'zlar», turk-mo'g'ul leksik parallellari» deb atalmoqda [3: 55].

Tilshunoslikda lisoniy parallellar haqida leksika, terminologiya, ayniqsa, geografik terminlar misolida anchagina ishlar yozilgan. Mana shunday ba'zi juz'iy ishlar toponim, antroponom, etnonimlar misolida ham mavjud [4: 45-46; 5: 16-17; 1: 20-21].

Bu tadqiqotlarni keng tahlil qilish ushbu ishning vazifasiga kirmaydi. Toponimik va antroponomik parallel haqida yozilgan ba'zi ishlarga qisqacha to'xtalamiz.

Toponimik tizimdagi parallelliklar haqida anchagina mulohazalar mavjud bo'lgani holda antroponomik tizimdagi parallellik hodisasi yetarli o'rganilgan emas. Hatto chalkash fikrlar ham mavjud. Chunonchi, A.V.Superanskaya rus tilidagi lug'aviy variantlar haqida fikr yuritir ekan, misol sifatida колодец (*ruscha.*) – криница (*ukraincha*) – кудук (*turkiycha*) nomlarini keltiradi, variant bo'lishi uchun boshqa variant tiplardan farqli ravishda mushtarak o'zakka ega bo'lishi shart emas, deb hisoblaydi.

Keltirilgan fikrga qo'shilish qiyin, chunki to'liq ma'nodagi variant bitta leksemaning farqli shakllari hisoblanadi. Mana shu ma'noda A.V.Superanskaya keltirgan nomlar variant ham, toponimik nom ham emas, balki tilga olingan obyektning o'sha tillardagi mustaqil, o'zaro aloqasiz nomlari – gidronimlardir.

Antroponomik va toponimik parallellar haqidagi yuqorida tahlil qilingan ishlarda aytilgan fikrlardan quyidagi ba'zi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Onomastik parallellar shaklan bir xil yoki o'xshash nomlarning bir vaqtning o'zida turli tillarda uchrashidir.

2. Parallel nom uchraydigan tillar bir sistemaga mansub qardosh til yoki turli sistemaga mavjud tillar bo'lishi mumkin.



3. Parallel nomlar o'z qatlam materiali (masalan, ikkita turkiy tilda uchraydigan turkiy qatlamga mansub nom), o'zga tillardan o'zlashgan so'zlardan yasalgan nom: masalan, Muhammad (arabcha), Navro'z (forscha) ismlarning o'zbek va qozoq tillarida uchrashi.

4. Parallel nomlar ikki yoki undan ortiq til onomastik muhitida mustaqil yashaydi va har bir tilning o'z onomastik birligi hisoblanadi.

5. Onomastik parallellar mustaqil tillararo mavjud bo'luvchi hodisadir. Ammo parallel nomlar bir til doirasidagi lahja va shevalar doirasida ham mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, Muhammad, Tursun ismlari o'zbek tilining qorluq, qipchoq va o'g'uz shevalarida uchraydi. Ammo ba'zi shevalarning lisoniy xususiyatiga moslashishi mumkin: Tursun-Dursun (o'g'uz), Zarif-Zerif (o'g'uz) kabi. Bunday holda ismning lahjaviy variantlari yuzaga keladi.

6. Lug'aviy parallellarning yuzaga kelishi quyidagicha bo'lishi mumkin: turkiy tilda qadimiy davrlarda paydo bo'lgan nom shakli mustakil turkiy tillar (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va b.) shakllangach, ularning

onomastik tizimida barobar saqlanib qoladi. Masalan, Oyxon, Oysuluv, Arslon ismlari turkiy tillar onomastikasining aksariyati saqlanib qolgan va ularda antroponimik parallellarni yuzaga keltirgan;

7. Bordi-yu, parallel nomlar qardosh tillararo bo'lsa, nomning lisoniy materiali shaklan o'xshash, bir xil bo'ladi. Masalan, qozoq, qirg'iz, o'zbek tilidagi Turdi, Tursun ismlari, bordi-yu parallel nom turli sistemadagi tillarda yuzaga kelsa, nomning lisoniy materiali har xil bo'lishi mumkin; Oqsuv (o'zbekcha) – Белая вода (русча) kabi. Bunday nomlarni ma'noviy (semantik) parallellar deyish mumkin.

8. Qardosh yoki noqardosh tillardagi ba'zi onomastik parallellar uchinchi bir tildan olingan ismlar hisobiga yuzaga kelishi mumkin. Masalan, fors tilidan o'zlashgan Dehqon ismining bir qator turkiy tillarda mavjudligi birinchi holatga, Klara, Marat, Telman ismlarining rus va turkiy tillarda uchrashi ikkinchi holatga misol bo'la oladi.

Xullas, umuman onomastik, jumladan antroponimik, toponimik parallellar atoqli otlar tizimining o'ziga xos yashash tarzini ifoda qiluvchi qonuniyatlardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахманов А. Этимологическое последование некоторых этнонимов общих для узбекского и казахского народов // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 148
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – С. 420
3. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 200.
4. Керимов С.К. Этноним *минг* в топонимии Азербайджана // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 180
5. Нуриев Э.Б. Азербайджанские географические термины и их параллели в Средней – Азии // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1987. – С. 160
6. Shukurov R.M. Parallel sintaktik butunliklar: filol. fanlari nomzodi ... diss. – Farg'ona, 2005. – B. 180.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. – B. 704.

**Shahnoza XAYDAROVA,**

*Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti  
Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi*

## O'ZBEK TILIDA MEHMONDO'STLIKKA OID IJOBIY ISTAK BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Har bir xalqning o'ziga xos milliy qadriyatlari mavjud bo'lib, ular ma'lum bir til vositalari orqali namoyon bo'ladi. Madaniyat va tilning kesishgan nuqtasida lingvomadaniyatshunoslik fani yuzaga kelgan. Mehmondo'st xalqimiz mehmonni kutib olgandan to'kuzatib qo'yungacha bir qator ijobiy istak birliklaridan foydalanadi. Bu birliklarda esa xalqimizga xos milliy qadriyatlar o'z aksini topadi.

**Kalit so'zlar:** mehmondo'stlik, milliy qadriyat, ijobiy istak birliklari, til, madaniyat, lingvokulturologiya, do'stlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik.

**Annotation.** Each nation has its own national values, which are expressed through certain linguistic means. At the crossroads of culture and language, the science of linguoculturalism emerged. Our hospitable people use a number of positive wishes from the moment they greet the guest to the moment they accompany them. In these units, the national values of our people are reflected.

**Keywords:** hospitality, national values, units of positive will, language, culture, linguoculturology, friendship, patriotism, family.

**Аннотация.** Каждый народ имеет свои национальные ценности, которые выражаются с помощью определенных языковых средств. На перекрестке культуры и языка возникла наука о лингвокультурологии. Наши гостеприимные люди используют ряд положительных пожеланий с момента приветствия гостя до момента его сопровождения. В этих отрядах нашли отражение национальные ценности нашего народа.

**Ключевые слова:** гостеприимство, национальные ценности, единицы положительной воли, язык, культура, лингвокультурология, дружба, патриотизм, семья.

Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til – madaniyat xazinas, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. [1,26]

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Har bir xalqning ma'naviyati, madaniyati o'sha xalqning ona tilida o'z aksini topadi. Insonlar his-tuyg'ularini, o'y-xayollarini, orzu-istaklarini so'zlar orqali atrof-dagilarga yetkazishadi. Hozirgi kunda tilshunoslikda til va madaniyaning kesishgan nuqtasida lingvokulturologiya fani rivojlanmoqda. Bu fan til birliklari orqali xalqning necha asrlardan buyon saqlanib, shakllanib ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan madaniy qiyofasini dunyoga ko'rsatish vazifasini bajarmoqda.

Xalqimiz o'zining mehmondo'stligi bilan, ayniqsa, boshqalardan ajralib turadi. Bu esa o'zbekona qadriyatdir. Mehmonni kutib olgandan to kuzatib qo'ygungacha bo'lgan jarayonda nutqimizda bir qancha ijobiy istak birliklaridan ham unumli foydalanamiz. Tilshunos olim M.Bozorova ijobiy istak birliklariga shunday ta'rif beradi: "O'zbek xalqi muomala madaniyatida ko'p qo'llaniladigan jumlar ichida shundaylari borki, ularda o'zaro muomalaga kirishgan shaxslar bir-birlariga yaxshi tilak bildiradilar. Bunday jumlar duo qilish, biror munosabat bilan muborakbod etish, xayrlashish, salomlashish, ta'ziya bildirish kabi vaqtlarda aytiladi". [2,4]

Xususan, tatar tilshunosi A.A.Abdullin muomala odobi birliklarini yirik 19ta mavzuiy guruhga ajratib, ular ichida mehmondo'stlik bilan bog'liq bo'lganlarini ham alohida tarzda "Mehmonnavozlik birliklari" deb ataydi. O'zbek tilshunosligida ijobiy istak birliklarining madaniyat bilan bog'liq ekanligiga tilshunos S.M.Mo'minovning qarashlarida ham o'z aksini topgan. Olim bunday birliklarning milliy xarakter va ijtimoiy ekologiya bilan bog'liq ekanligiga urg'u beradi. [3,34-40] Tilshunos olim Sh.Iskandarova ham ijobiy istak birliklariga kiruvchi nutqiy etiketlarni nutq madaniyatiga bog'lab tahlil qiladi. [4,19]

Tilimizda mehmondorchilik paytida aytiladigan ijobiy istak birliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

*Qadam yetdi, balo yetmasin.  
O'tirgan o'rnimiz yo'qolmasin.  
Bordi-keldimiz yo'qolmasin.  
Do'stligimiz abadiy bo'lsin.  
Shu xonadonlarda ham to'ylar bo'lsin.  
Xonadoningizdan qut-baraka arimasin.*

*Boshingiz yaxshi kunlardan chiqmasin.  
Qo'shganingiz bilan qo'sha qaring.  
Ishingizni rivojini bersin.  
Topganingizga baraka bersin.  
Qozoningiz doimo qaynab tursin.  
Dasturxoningiz to'kin bo'lsin.  
Uyingiz bug'doyga to'lsin.  
Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin.  
Omonlik, tugallik bo'lsin.  
Rizqingiz butun bo'lsin.  
Umringizdan baraka toping.  
Yegan-ichganlarimiz hazm bo'lsin.*

O'zbekona lutf bilan aytiladigan bunday ijobiy istak birliklarida subyektiv modallik yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Sababi mehmonga kelgan inson mezbonga nisbatan va mezbonga ham o'z o'rnida mehmonga nisbatan yaxshi niyat bildiradi. "Qadam yetdi, balo yetmasin" jumlasida –sin qo'shimchasi istak ma'nosi yuklab, –ma bo'lishsizlik qo'shimchasi esa istak ma'nosini kuchaytirib kelyapti. Bunda qadam so'zi alohida urg'u bilan aytiladi. Sababi aynan shu so'z bilan aloqador bo'lgan "Qadami qutlug' kelsin", "Poyi-qadamli bo'lsin" iboralarida chaqaloq dunyoga kelganda yoki xonadonga kelin tushganda aytiladi. Bu jumladagi "qadam" so'zi metonimiya usulida ma'no ko'chishiga sabab bo'lib, "tashrif buyurmoq" va "qadam" so'zlari o'rtasidagi ma'noviy bog'liqlik asosida yuzaga kelgan.

"O'tirgan o'rnimiz yo'qolmasin", "Bordi-keldimiz yo'qolmasin" birikmalarida metonimiya usulida ma'no ko'chib, –ma qo'shimchasi orqali inkor ma'nosi bilan birgalikda istak ma'nosi kuchayib, ta'kidlanib kelgan. Bu jumladagi xalqimizning mehmondo'st ekanligini, quvonchini ham, qayg'usini ham yaqinlari bilan baham ko'rish xarakteri bor ekanligini, qarindoshlik munosabatlariga milliy qadriyat darajasida qarashini ko'rishimiz mumkin.

"Do'stligimiz abadiy bo'lsin" jumlasida metafora usulida ma'no ko'chib, do'stlik xalqimiz uchun qadriy tuyg'u ekanligiga alohida urg'u berilgan. "O'zbek xalq maqollari" kitobida do'stlik haqidagi ko'plab maqollarda ham ko'rishimiz mumkin: "Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib", "Do'st do'stning kuzgusi", "Do'stning uchun zahar ich", "Sen menga do'stingni ayt, men senga kimligingni aytaman", "Baliq suvsiz yashamas, inson do'stsiz" kabi. [5, 94-104]

"Shu xonadonlarda ham to'ylar bo'lsin", "Boshingiz yaxshi kunlardan chiqmasin" birikmalari orqali xalqimiz har qanday quvonchli kunini boshqalar bilan baham ko'rishini, albatta, yig'in qilib yaqinlarini uyiga chaqirishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, oilada chaqaloq dunyoga kelishi bilan to'ylar boshlanib, to'keksayguncha davom etadi: aqiqa to'yi, beshik to'yi, sunnat to'yi, mo'chal to'yi, kokil to'yi, nikoh to'yi, yubiley to'yi kabi.

"Xonadoningizdan qut-baraka arimasin" birikmasida metafora usulida ma'no ko'chib, xalqimizga xos bo'lgan yana bir fazlilat, ya'ni yaqinlariga nisbatan doimo yaxshi

niyat bildishini aytish mumkin. *“Ishingizni rivojini bersin”, “Topganingizga baraka bersin”, “Rizqingiz butun bo’lsin”* kabi ijobiy istak birliklari ham yuqoridagi fikrlarga isbot bo’la oladi.

*“Qo’shganingiz bilan qo’sha qaring”* metaforik birikmasida ijobiy istak bildirish bilan bir qatorda o’zbek xalqi uchun oilaning muqaddas tuyg’u ekanligiga alohida urg’u berilgan.

*“Uyingiz bug’doyga to’lsin”* birikmasida sinekdoxa usulida ma’no ko’chib, xalqimiz xos bo’lgan bug’doy va undan tayyorlanadigan nonni ulug’lashini bilishimiz mumkin. Sababi barcha xalqda ham o’ziga xos aziz ne’mati bo’ladi. Masalan, o’zbek xalqi uchun non muqaddas bo’lsa, koreyaliklar uchun guruch muqaddas hisoblanadi. Bu narsa o’sha xalqning geografik joylashuv o’rni, iqlimi va yana shu kabi bir qator omillar asosida yuzaga keladi.

*Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo’lsin”* birikmasida metafora usulida ma’no ko’chib, xalqimizning

vatanparvar ekanligiga, yurtimizda to’rt faslning ham mavjudligiga ishora bor. Bu hududiy joylashuv bilan ham bog’liq.

Xulosa qilib aytganda, mehmondorchilikka oid ijobiy istak birliklarida quyidagi lingvomadaniy xususiyatlar namoyon bo’lgan:

-sin qo’shimchasini qo’shish orqali til birliklariga ijobiy istak ma’nosi yuklanganligi;

-ma bo’lishsizlik qo’shimchasi inkor ma’nosini berishi bilan bir qatorda, istak ma’nosini kuchaytirib kelganligi;

ijobiy istak birliklarida metafora, metonimiya, sinekdoxa usullarida ma’no ko’chish orqali istak ma’nosini ta’kidlab kelganligini;

ijobiy istak bildirish orqali xalqimizga xos bo’lgan milliy qadriyatlar: mehmondo’sstlik, oilaparvarlik, vatanparvarlik, do’sstlik, duogo’ylik, insonparvarlik kabi fazilatlarini ko’rishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London, 1971. –P. 27; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М., 1990. –С. 26.
2. Bazarova M. O’zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2007. 8-b.
3. Mo’minov S.M. O’zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fanlari d-ri.diss. – T., 2000. 34-40-b.
4. Iskandarova Sh. O’zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fanlari nomzodi diss. Aftoref. – Samarqand, 1993. 19-b.
5. Mirzayev T., Musaqlulov A., Sarimsoqov B. O’zbek xalq maqollari. Sharq. – T., 2005, 94-104-b.

**Nilufar TURG’UNOVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO’TAU o’qituvchisi*

## ONA TILI TA’LIMIDA GRAMMATIK BILIM BERISHNING O’ZIGA XOS YONDASHUVLARI

**Annotatsiya.** Maqolada til ta’limida grammatikani o’qitishga oid yondashuvlar tahlili berilgan. Ona tili darslarini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish, lingvistik bilimni kontekstda berish xususida ilmiy qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** grammatika, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, kontekst.

**Annotation.** The article analyzes the approaches to teaching grammar in language teaching. Scientific views on the organization of mother tongue lessons on the basis of a communicative approach, the transfer of linguistic knowledge in the context.

**Keywords:** grammar, linguistic competence, verbal competence, communicative approach, context.

**Аннотация.** В статье анализируются подходы к обучению грамматике в языковом обучении. Высказываются научные взгляды на организацию уроков родного языка на основе коммуникативного подхода, передачи языковых знаний в контексте.

**Ключевые слова:** грамматика, языковая компетенция, вербальная компетенция, коммуникативный подход, контекст

Til ta’limini yangi bosqichga olib chiqish va har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu kunga qadar ona tili darslarida asosiy e’tiborning grammatik qoidalarni yodlatishga qaratilganligi, berilayotgan bilimlarning amaliyot bilan bog’lanmasligi, darsliklardagi ayrim kamchiliklar, xususan, bir xil tipdagi mashq va topshiriqlardan iborat ekanligi ona tilini o’qitishga bo’lgan qarashlarni o’zgar-

tirishni talab etmoqda. Ona tili darslari o’quvchilar nazdida faqat qoida yodlash va yozish darslariga aylanib bormoqda. Mavjud darsliklarda grammatizmga haddan ortiq e’tibor qaratilgan, o’quvchining nutqini o’stirishga xizmat qiladigan amaliy topshiriqlar esa juda kam.

Nutq o’stirish maktabda ona tili o’qitishning bosh maqsadi sanaladi. Ma’lumki, til jamiyat a’zolari o’rtasida aloqa vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini



og'zaki va yozma ravishda berish, o'z ichki kechinmalari bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar [1: 303].

Bugungi kunda til ta'limida grammatika o'qitishning ahamiyati xususida turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ba'zilar grammatika ona tili ta'limining asosi deb hisoblasa, ba'zi metodistlar esa til o'qitishda o'quvchi nutqi ustida ishlashga ko'proq ahamiyat qaratilishi lozimligini ta'kidlamodalar. Aslida, nutqiy va lingvistik kompetensiyani bir-biridan ajratish mumkinmi?

Jek Richards va Uilly Renandya tahriri ostida nashr ettirilgan "Til o'qitish metodologiyasi" kitobida grammatikani o'qitishning o'rnini haqida ilmiy-nazariy qarashlar bayon etiladi. Til o'qitishda grammatikaning o'rnini eng ko'p munozaraga sabab bo'luvchi mavzu hisoblanadi. XX asrning boshlarida grammatikani o'qitish til o'qitishining ajralmas bo'lagi edi, shu sababli ham til o'qitishining boshqa jihatlari e'tibordan chetda qoldi. **Agar siz tilning grammatik qoidalarini bilsangiz, unda muloqot ham qila olasiz**, degan konsepsiya ustun edi. Ushbu konsepsiya 1970-yillarning boshida jiddiy qarshiliklarga uchradi. Aytildiki, grammatik qoidalarini bilish kommunikativ kompetensiya tushunchasini hosil qiluvchi ko'plab qismlarning biri xolos. Tildan malakali foydalanish uchun nafaqat uning grammatik qoidalarini, balki, qoidalar jonli muloqot jarayonida qanday qo'llanishini ham bilish kerak bo'ladi. Bu paytlarga kelib grammatikani o'qitish muhim sanalmadi, xatto, undan voz kechilgan holatlar ham bo'ldi.

So'nggi yillarda grammatika til o'qitish dasturlarida yana o'z o'rniga ega bo'ldi. Grammatikani e'tibordan chetda qoldirish yaxshi emasligini, grammatikani egallamay turib til malakalarini rivojlantirib bo'lmazligini ko'pchilik tan oladi. Hozir shunday qarash mavjudki, grammatikani o'qitamizmi yo'qmi degan savolga javob izlash muhim emas. Endi til o'qitish metodologiyasi grammatikani o'qitish masalasida quyidagi savollarga javob izlamogda:

O'quvchilar uchun grammatikaning qaysi qismlari muhim, ular qaysi qoidalarga muhtoj?

Grammatikani o'rgatishning qanday samarali usullari mavjud?

Ularni qanday o'qitgan ma'qul, induktivmi yoki deduktivmi? [2: 145-146].

Maykl Svon grammatikani o'qitishga bag'ishlangan maqolasida grammatikani o'zlashtirish uchun odamlar juda uzoq vaqt sarflashlari ta'kidlab o'tadi va grammatikani o'qitish uchun 7 ta "salbiy-murakkab" va 2 ta "yaxshi" sabablar keltirib o'tiladi.

Yetti "salbiy-murakkab":

Chunki o'qituvchilar darslikda berilgan barcha Grammatik qoidalarini o'quvchi o'zlashtirishi shart deb hisoblashadi. Lekin darslikdagi barcha grammatik qoidalar har bir sinf uchun bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

Grammatika muayyan tartibga ega va o'rgatish uchun qulay – tilning lug'at tarkibi yoki talaffuz jihatlarini o'rgatishdan ko'ra grammatikani o'qitish ancha oson.

Test uchun qulay – grammatik testlar o'quvchilar bilimni tez va oson tarzda tekshirib olish uchun imkoniyat yaratib beradi

Grammatika – "xavfsizlik yostiqchasi" – grammatikani o'rganish o'quvchi uchun ham qulay. Ayniqsa xoriijiy tillarni o'rganayotganda grammatik qoidalar o'quvchi uchun mayoq singari xizmat qiladi va o'quvchida o'rganayotgan materialini tushunaman va nazorat qila olaman, degan hissiyotni uyg'otadi. Lekin bu tuyg'u faqat illuziya bo'lishi mumkin.

Grammatikani o'rganishning muhim deb hisoblanishi;

Siz butun sistemani o'rganishingiz kerak – ko'pchilik grammatikani o'zaro bog'liq bo'lgan yagona sistema va u to'g'ri ishlashi uchun undagi barcha narsani o'rganish kerak, deb hisoblashadi. Grammatik tizim biror qismi olib tashlansa, butulay ishdan chiqadigan mashina dvigateli emas, unga bir-biri bilan ba'zan chambarchas, ba'zan esa bo'sh bog'lanadigan, ba'zilar esa butunlay mustaqil elementlarning yig'indisi deb qarash to'g'riroqdir.

Grammatikani o'qitish darsda o'qituvchining o'quvchilardan ustun ekanligini ko'rsatib turadi.

Grammatikani o'qitishning 2 ta "yaxshi" sababi sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

Tushunarlilik – tilning asosiy grammatik qoidalarini, gap tuzulishining aniq strukturalarini o'zlashtirmasdan turib tushunarli jumla tuzib bo'lmaydi.

Muvofiqlik – muayyan tilni chet tili sifatida o'zlashtiruvchilar grammatikani bilmasligi mazkur tilda so'zlovchilar jamiyati bilan integratsiya qilishiga, munosib ish topishiga halaqit beradi. Grammatikani bilmaslik ba'zi jamiyat a'zolari ongida "o'qimagan" degan qarashni uyg'otadi. Jamiyatning mana shunday talablariga muvofiq bo'lish uchun ham grammatikani o'rganish lozim [3].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, grammatikani o'qitish, albatta, kerak. Chunki ona tili darslarida o'quvchiga tilning ichki tuzilishi, til birliklari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabat haqida ma'lumot bermay turib, unda ona tili fani haqida tassavvur shakllantirib bo'lmaydi.

Zabardast tilshunos olim N.Mahmudov grammatikani o'qitish zaruriyati, ta'limda me'yorni ta'minlash xususida qimmatli fikrlar bildirib o'tganlar: *"Ona tili ta'limi haqida gap ketganda aksariyat mutaxassislar, hatto nomutaxassislar ham, tilshunoslik unsurlaridan, ayniqsa, grammatikadan voz kechishning samarador yo'l ekanligini asoslamoqchi bo'ladilar. Albatta, maktab ta'limida grammatika muayyan me'yorda bo'lmog'i lozim, zaruriy miqdoriy tanosibni buzmaslik zarur, ammo grammatikadan butunlay voz kechish aqlning ishi emas... Grammatika ona tilini maktabga kelguncha g'ayrihuuriy bir tarzda o'ziniki qilib bo'lgan bolaning bu tilni ongli idrok qilish ko'nikmalarining turg'unlashuviga ko'mak berishi, bolaning butun umri davomida tilining uzun va tugal bo'lishi uchun tirgak tutishini yodda tutmoq lozim. Ilgari grammatika keragidan ortiqroq*

*bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, maktab ta'limida, kamida, sinflar kesimida grammatika oqilona bir me'yorda bo'lishi kerak*" [4: 9].

Shu bilan birgalikda nutq o'stirishning ahamiyati haqida ham unutmashlik lozim. Faqatgina grammatik jihatdan savodxon emas, balki o'z fikrini aniq, ifodali usulda yetkazib bera oladigan, turli mavzularda o'z munosabatini erkin bildiradi oladigan, ham og'zaki, ham yozma matn bilan ishlash ko'nikmasi shakllangan o'quvchini tarbiyalash ona tili darslarining asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Buning uchun esa ona tili o'qitishga bo'lgan hozirgi yondashuvni biroz o'zgartirish, o'quvchiga quruq qoidaning o'zini yodlatishdan voz kechish lozim. Darsliklarda grammatikani muayyan mavzularga bog'lab tushuntirishga, ya'ni lingvistik bilimni kontekstda berishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Kontekst so'zining lug'aviy ma'nosi jipslashish, bog'lanish ma'nolarini anglatib, og'zaki yoki yozma nutq(matn)ning nisbatan tugal qismini ifodalaydi. Kontekst biror so'z yoki gapning ma'nosini aynan ochib berishga yordam beradi. Muayyan jumlaning kontekstdan yulib olgan holda tahlil qilish o'quvchini asl mohiyatdan chalg'itadi, jumlaning idrok qilish qiyinlashadi. Ona tili darslarida yaxlit, fikr tugalligiga ega matnlar bilan ishlash, lingvistik bilimni biror mavzu doirasida o'rganish o'quvchi tomonidan grammatikani samarali va ongli o'zlashtirishiga olib keladi. Lingvistik bilimni kontekstda berish til ta'limida tobora ahamiyati ortib borayotgan kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Xususan, tilshunos I.Azimova ona tili darslarini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish zaruriyati xususida fikr bildirib, aynan lingvistik bilimni kontekstda berishga alohida e'tibor qaratadi:

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi.

Grammatik qoidani avval berib keyin mashq bajarish usuli shuncha vaqtdan beri ona tilini o'qitishda qo'llab kelingan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog'lanmaganligidir. Mazkur usulda mavzuni o'qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qo'llanishi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Ma'lum vaziyatda qanday gapirish to'g'ri bo'ladi, ya'ni qanday ifoda yordamida fikrni bex-

ato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi. O'rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi [5: 135].

Metodist olimlar tomonidan bildirilgan turli fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda ona tili ta'limi quyidagi mazmunda tashkil etilishi lozim:

ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir;

tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi;

o'quv materiallari tilni o'zlashtirishda nutqiy vaziyatning o'rnini nechog'li muhimligidan kelib chiqqan holda tanlanadi, ya'ni qaysi yoshdagi o'quvchi qanday mavzularda muloqot qilish, til birliklaridan foydalanishga ehtiyoji borligi inobatga olinadi;

til ta'limi jarayonida lisoniy struktura emas, balki mazmun birlamchi ekanidan kelib chiqib, grammatik bilimlar spiralsimon shaklda beriladi (amalda til sathlari kesimida muayyan sinfda vertikal tarzda o'qitilgan. Aslida, nutqiy muloqotda barcha til sathlariga ehtiyoj seziladi);

Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi

O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi;

Lisoniy ko'nikmalar alohida olingan tasodifiy gaplar orqali emas, balki turli uslubdagi matnlar, kontekst asosida amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda berib boriladi [6:116].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida o'quvchida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish birdek ahamiyatga ega. Til ta'limini grammatika o'qitishdan voz kechgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Faqat berilayotgan Grammatik bilimlar orasidan o'quvchi uchun muhim va nomuhimlarini ajratib olish hamda o'qitish tizimini takomillashtirish lozim. Ya'ni o'quvchi ona tili darsida ham biror nazariy qoidani o'rganishi, ham o'rganish davomida nutq o'stirish maqsadiga erishishi lozim. Lingvistik bilimni o'quvchi uchun amaliy ahamiyatga ega mavzular doirasida tushuntirish grammatikani o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va b. Ona tili o'qitish metodikasi – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Jack C.Richards, Willy A.Renandya. Methodology in language teaching – Cambridge University Press, 2002. (Sh. Yo'ldosh tarjimai)
3. Swan, M. Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in language teaching* – Cambridge University Press, 2002. Page 148-152.
4. Mahmudov N. Til ilmi va ta'limining muntazamligi. Til va adabiyot ta'limi– 2021-yil, 10-son.
5. Azimova I. Ona tili bo'yicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruza tezislari to'plami. – Toshkent, 2020.
6. Mavlonova K. Ona tili ta'limida zamonaviy yondashuvlar. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Qarshi, 2021
7. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (til ta'limi). Uslubiy qo'llanma – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2020.

Matluba NORBABOYEVA,  
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

## ADABIYOTDA "YETIM BOLA" OBRAZI VA UNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O'RNI

**Annotatsiya:** Hozirgi o'zbek nasrida "Yetim bola" obrazi, ular bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni o'rganish ushbu ilmiy maqolada badiiy tadqiq etilgan. Mazkur mavzuga oid muammolar hozirgi o'zbek nasrida G.Gulom va X.To'xtaboyev asarlari asosida qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, obraz, "Yetim bola" obrazi, ijodkor talqini, badiiy talqin, yetimlik, sarguzasht, ijtimoiy muammo, ijtimoiy hayot.

**Annotation:** In this scientific article, the image of orphaned children in the current Uzbek prose, their life and social problems associated with them are studied artistically. Problems related to this topic are discussed in the current Uzbek prose G.Gulom and a comparative analysis was made on the basis of X.Tokhtabayev's works.

**Keywords:** fiction, image, image of an orphan, creative interpretation, artistic interpretation, orphanhood, adventure, social problem, social life.

**Аннотация:** В данной научной статье проводится художественное исследование образа детей-сирот в современной узбекской прозе, их жизни и связанных с ними социальных проблем. Проблемы, связанные с этой темой, отражены в современной узбекской прозе Г.Гуляма и он был подвергнут сравнительному анализу на основе работ Х.Тухтабоева.

**Ключевые слова:** художественная литература, образ, образ сироты, творческая интерпретация, художественная интерпретация, сиротство, приключение, социальная проблема, общественная жизнь.

Badiiy adabiyot – ulkan ummon. Adabiyotda yaratilgan asarlarning markazida ma'lum bir qiyofalar, obrazlar yetakchi mazmun kasb etadi. Adabiyot tarixidan ma'lumki, badiiy obraz – badiiy asarning urib turgan yuragi. Badiiy adabiyotni obrazsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Obrazni obrazlilik darajasiga olib chiqish esa yozuvchining badiiy mahoratiga bog'liq. O'zbek nasrida badiiy obraz masalasi adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan badiiy adabiyotda "Yetim bola" obrazi alohida muammo sifatida tahlil qilinmagan.

O'zbek xalqi bag'rikeng, bolaparvar, mehribon xalq. Xalqimiz Ikkinchi jahon urushining suronli yillarida qanchadan qancha ota-onasiz yetim bolalarini asrab olishgan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davrida toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning xotini Bahri Akramova turli millat vakillari bo'lgan 13 nafar bola va urushdan so'ng yana 3 bolani o'z tarbiyalariga olishgan.

Kattaqo'rg'onlik Hamid aka Samatov Ikkinchi jahon urushi yillarida ikki marta qahramonlik ko'rsatgan. Birinchisi – Stalingrad va Ukraina jang maydonlarida bo'lsa, ikkinchisi – fuqarolik burchini ado etishda. Urushdan uyiga og'ir jarohat bilan qaytgan Hamid aka 13 nafar qarovsiz qolgan bolalarni asrab olgan va ularga g'amxo'rlik qilib, tarbiyalab, yuksak ma'naviy jasorat ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi qarorida so'nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, aholi va yoshlar orasida sog'lom oila qurishga mas'uliyat bilan yondashishni targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarga ma'naviy-axloqiy munosabatni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar

amalga oshirilganligi ko'zda tutilgan. Qarorda yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilishni kuchaytirish, "Mehribonlik" uylari faoliyatini yaxshilash, uy-joy sotib olish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, ularni o'qitish, kasb-hunarga o'rgatish, ish bilan ta'minlash kabi yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning manfaatlarini himoya qilish nazarda tutilgan. Qarorda oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy yetimlikning oldini olish, shuningdek, "Mehribonlik" uylarini bosqichma-bosqich kam komplektli bolalar shaharchalariga hamda ijtimoiy muassasalarning boshqa muqobil shakllariga o'tkazish maqsadida 2019-yil 1-iyunga qadar muddatda 2019-2023-yillarda "Mehribonlik" uylarini noinstitutallashtirish dasturini ishlab chiqish nazarda tutilganligi, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga talaygina imkoniyatlarni yaratib berdi.

Xalqimiz bor ekan, biror bola yetimlikni his etmaydi. Hayot va adabiyot bir-biriga chambarchas bog'liq jarayon. Hayot haqiqatlari asosida badiiy olam kashf etiladi. O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, ba'zi asarlarda yetimlik mavzusi tasvirlangan. Xalqimiz yetimlarning qalbi o'ksik bo'lib ulg'ayishini istamaydi. Shoir G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'rida yetimlar taqdiri yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlanadi. Adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov shoirning ijodida yetimlarga g'amxo'rlik qilishni yuksak insonparavarlik deb ataydi. G'afur G'ulomning boshidan kechirgan yetimlik nafaqat she'rlarida, balki uning boshqa nasriy asarlarida ham o'z aksini topgan. G'afur G'ulomning "Netay", "Tirilgan murda", "Yodgor", "Shum bola" asarlarida yetimlik bosh mavzu.

Badiiy adabiyotda “Yetim bola” obraziga qachon murojaat bo’ladi? Bunday obrazlar o’z-o’zidan yuzaga kelmaydi. Quyidagi holatlar asosida badiiy adabiyotda “Yetim bola” obrazi yuzaga keladi:

- ota-onaning yoki ulardan birining vafot etishi;
- ota-onasining qaramog’idan mahrum bo’lish;
- urushning ayanchli oqibati.

Yosh go’dakning hali parvarishga muhtoj bo’la turib yetim bo’lib qolishi, bola uchun ham, jamiyat uchun ham juda katta fojia. Hech bir bola inson va jamiyat nazari-dan chetda qolmasligi kerak. G’afur G’ulomning “Shum bola” asari qahramoni ham “Yetim bola”dir. Uning onasi hayot, ammo otasi yo’q. O’spirin yoshiga yetib qolgan Shum bola jamiyatdan o’z o’rnini topish uchun qancha-dan qancha sinovlarni boshidan kechiradi.

Yozuvchi asarni Shum bola tilidan hikoya qila-di. Asarda uning g’aroyib sarguzashtlari tasvirlanadi. Asarning boshida Shum bola o’rtoqlarini nomma nom aytib kitobxonga tanishtiradi va Omonning onasi o’lgan-ligi, Yo’ldoshning esa ota-onasiz Shum yetim ekanligini ta’kidlaydi. Bunday tasvirlar asar yozilgan davrda ye-tim bolalar ko’p bo’lganligini ifodalaydi. Bir kun Shum bolaning takyada xizmat qilib ma’yus bo’lib yurganini ko’rgan Hoji bobo undan (“qora”si qurg’urdan totinib-po-tinib yurganing yo’qmi, 11:136] deb so’rashidan uning Shum bolaning taqdiriga befarq emasligini ko’rsatadi. *“Bu ertaga bozorli puling, juda xursand qilding, bol-am, tashvishda edim, tag’in birovning to’tidek bolasini nobud qilib qo’ydimmi deb qo’rqan edim”* [11:36]

O’zbek xalqi yetim bolaning taqdiriga befarq bo’lmay-di. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan maqol ham bejizga aytilmagan. Shum bolaning shum qiliqlari un-ing butun sarguzashtlari mobaynida o’ziga hamrohlik qiladi: Sa’bondagi ammasinikiga borishi pochchasining qushlarini qatiq ichirib o’ldirib qo’yib, u yerdan qochib qolishi, kampirning o’tovida Sulton kisavur atrofidagi domlaga ergashib o’lik yuvib sharmanda bo’lishi, yana bir domlaning ho’kizi o’rnida eshagini so’yib qo’yishi, domla quvlaganda tomma tom qochib tandirning ichiga tushib qolishi, erini aldab yurgan xotinning oshxonasiga kirgan begona yigitni vaziyatdan ustalik bilan foydalan-ib chuv tushirishi va hokazo. Shum bola bozorda yurib qalandalarga ergashadi.

Shum bola ko’nglidan o’tkazganlarini o’zining shum qiliqlari ortiga yashiradi, uning shum qiliqlariga, boshi-dan kechirgan sarguzashtlariga qiziqqan kitobxon ye-tim bolaning asl ko’ngil kechimlarini payqamaydi.

Adibning “Yodgor” qissasida ham aynan shu mavzu tasvirlanadi. Ota-onasi tashlab ketgan go’dakning taqdiriga xalqimizning befarq bo’lmasligini adib asar qahramoni Yodgorning o’ksinmay ulg’ayishi orqali tas-virlaydi. Ammo yillar o’tib o’z farzandidan voz kechgan ota-onaning tirnoqqa zor bo’lib o’tayotganligini ham, ularning o’z qilmishlaridan pushaymon ekanliklarini ham yozuvchi kitobxondan yashirmaydi. Turmushning bunday sinovlarini Yodgor ham, hali uylanmay turib odamlarning gap-so’ziga qaramay uni asrab olgan yigit

Jo’ra ham mardona yengib o’tishini yozuvchi mohirona ifodalaydi. Qissada Yodgor Jo’rani haqiqiy ota deb bi-ladi. Jo’raning bu xatti-harakatlaridan o’zbek xalqining bolaparvarligini sezish mumkin.

Yetim bolalar taqdiriga befarq bo’lmagan, o’zi ham yetimlikni boshidan kechirgan adiblardan yana biri Xudoyberdi To’xtaboyevdir. Adibning bolalar adabiy-otiga qo’shgan hissasi cheksiz. Uning “Besh bolali yig-itcha”, “Mungli ko’zlar” romanlarida ham yetim bolalar taqdiri qalamga olinadi.

Abdug’afur Rasulov “Betakror o’zlik” asarida X.To’xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarini sar-guzasht-roman hamda avtobiografik roman deb atay-di. Qo’qon bolalar uyidan Toshkentga jo’natilgan, sarson-sargardon bo’lganlar orasida o’n ikki yoshli Xudoyberdining o’zi ham bo’lganligini adabiyotshunos ta’kidlab o’tadi. X.To’xtaboyevning o’zi ham yetim-likni boshidan kechirganligi haqida [10:151] kitobi-da ma’lumotlar keltiriladi. Bu haqida adabiyotshunos A.Rasulovning “Betakror o’zlik” [9:153] asarida ham ta’kidlangan. Unda keltirilishicha, yozuvchining ota-si To’xtavoy 21 yoshida quloq qilinib, qochib yurgani-da Tojikistonning Chorqu degan joyida vafot etgan. Adibning tarbiyasi bilan enasi Robiyabibi va bobosi Erkaboilar shug’ullangan.

X.To’xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” roma-ni qahramoni Orifjonning otasi urushga ketadi, onasi esa traktor tagida qolib o’ladi. Butun oilaning tashvishi Orifjonning yelkasiga tushadi. Orifjon o’qishlari yaxshi, mehnatkash, tirishqoq bola edi. Necha minglab kilo-metr lab uzoqdagi urushning ayanchli fojiasi ularning ham oilasini chetlab o’tmadi. Bu asarda bolalar urush-ning g’am-tashvishlari, fojiasini murg’ak boshidan ke-chiradilar. Orifjon ukalari yetim bo’lib qolishganda ular-ga otadek g’amxo’r, onadek mehribon bo’lishini asar-dan kuzatamiz. Orifjon ukalari uchun taslim bo’lmadi, tosh kelsa kemirdi, suv kelsa simirdi. Asarda yetim bola obrazining real hayot bilan bog’liqligi kuzatiladi. Adib asarda o’zining boshidan kechirganlarini badiiy tas-virlaydi. Asar qahramoni Orifjon ukalarini yetimxona-ga tushib qolishiga qanchalik qarshi bo’lmasin, baribir ularni yetimxonalarga joylashtirishadi. Bolalarning sar-son-sargardonligi ana shu yerdan boshlanadi. Ota-ona bola uchun hayotni o’rgatuvchi, to’g’ri yo’lni ko’rsatuvchi yagona madadkor insonlardir. Ota-onasidan ayrilgan Orifjon o’smir yoshida ukalariga nima yo’l tutsa yaxshi bo’lishini bilolmay qiynaladi.

X.To’xtaboyevning “Mungli ko’zlar” romanida ham yetim bo’lib qolgan bolalarning hayoti tasvirlanadi, ota-onasining mol-dunyoga hirs qo’yib, bolalarning taqdiriga befarqligi, birinchi o’ringa bolaning moddiy ehtiyojlarini qo’yish, bolaning ma’naviy va ruhiy ehti-yojlariga qiziqmasligi oqibati ko’rsatiladi. Afsuski, bu ota-onalarning qilmishlari oqibati bolalariga o’z ta’sirini o’tkazadi. Buning jabrini bolalar ham ota-ona bilan teng tortishadi. Bir kunda ham otasi Saidning pora bilan, ham onasi Yoqutxonning chayqovchilik bilan ayblanib



qo'lga olinishi ota-onasining mol-dunyosiga kerilib, maqtanib yurgan Zafar uchun katta fojia edi. Zafar uchun haqiqiy hayot ota-onasi qamalgandan so'ng boshlandi. Akasi Akbar iymon-insofli ustoz Atoullo Isayevichdan ta'lim-tarbiya oladi. Aslida, Akbar nogiron bola edi, ammo asarda uning ma'naviyati boyligiga keng urg'u beriladi. U o'z ota-onasining mol-dunyoga hirs qo'yganligining oqibati ayanchli bo'lishini erta anglaydi va o'zi-cha qonun yo'li bilan ota-onasini to'g'ri yo'lga boshlash uchun harakat qilmoqchi bo'ladi. Biroq bola ongi bilan o'z oilasiga, ukalariga azob berib qo'yishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rmaydi. U faqat bitta maqsadni ko'zlaydi, ota-onasi qing'ir yo'l bilan oilasini boqmasa, xaromdan hazar qilsa... Mana shu holatlarni erta anglagan jismonan majruh bola Akbarning xatti-harakatlari kishini o'ylantiradi.

"Shum bola" qissasida urushdan keyingi qiyinchiliklar tasvirlanadi. Qissada Shum bolaning o'z qorni to'ydirish, onasiga yordamlashish uchun uncha-muncha pul topish payida bo'lishi uning to'g'ri yo'lda ekanligiga ishora qiladi. X.To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" romanida ukalari uchun kuyunib yashayotgan, tinmay mehnat qilayotgan halol Orifjon tasvirlanadi. U Shum bolaga o'xshamaydi, ukalari bilan bitta uyda yashashi uchun juda ko'p mashaqqatlarni yengib o'tadi.

Orifjonda soddalik, Shum bolada ayyorlik bor. "Mungli ko'zlar" romanidagi Zafar bu ikkala obrazga ham o'xshamaydi. Boy oilaning erka, tanti o'g'li bo'lgan Zafar hayotning kutilmagan zarbalariga, yetimlikning moddiy va ma'naviy qiyinchiligiga chiday olmay ruhiy xastalikka chalinaldi. Ikkala ijodkor ham yetimlikni boshidan kechirgan va o'z kechimlarini asarga ko'chirgan.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi ko'plab insonlarning yostig'ini quritdi. Yetim bolalarni ko'paytirdi. Urushning jamiyatga yetkazgan zararining son-sano'g'i yo'q: ota-onasidan ayrilish; ma'naviy, moddiy, jismoniy qiyinchiliklar; ruhiy iztiroblar va hokazo.

Ayniqsa, urushning ayanchli oqibatlarini bolalarning yetim bo'lib qolishi, ularning hali ulg'aymasdan moddiy va ma'naviy qiyinchiliklarni xuddi kattalardek his etishi va bu mashaqqatlarni yengib o'tishga majbur bo'lishi, sarson-sargardonchiliklarni boshidan kechirishi, ba'zi bolalarning esa tirikchilik vajidan, ochligidan o'g'irlikka qo'l urishi, jinoyat ko'chasiga kirib qolishi bilan izohlash mumkin. Yetim bo'lib qolishning sabablari ham ko'p: urush tufayli, ota-onasi tashlab ketishi, ota-onasi erta vafot etishi oqibatida yetim bo'lib qolish. Har qanday holatda ham faqat yo'qotishlar bo'ladi. Kemtik bola jamiyatga to'la mehr ko'rsatolmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi Qarori.
2. Aristotel. Poetika. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: 2015. – B.288.
4. Buxina O. Сироты в детской литературе. <https://cyberleninka.ru>
5. Hatamov. N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1979.
6. Neklyudov S.Yu. Сирота в сказках. Фольклор и постфольклор. <https://www.ruthenia.ru>
7. Nikolayevna V.I. Тема сиротства в детской литературе. <https://infourok.ru>
8. Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2004.
9. Rasulov A. Betakror o'zlik. – T.: Mumtoz so'z, 2009.
10. O'zbek adiblari. – T.: Fan, 2007.
11. To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. Roman. – T.: 2016.
12. To'xtaboyev X. Mungli ko'zlar. Roman. – T.: 2016.
13. G'ulom G'. Shum bola. Qissa. –T.: 2008.

Xurshid SEROBov,

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

## "SAMARQAND SAYQALI" DRAMASIDA KONFLIKT YARATISH MUAMMOSI

**Annotatsiya:** Maqolada Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" dramasi konflikt yaratish muammosi o'rganilgan. Asarda konflikt Alisher Navoiy va Sahibiddin obrazlarining ziddiyatga kirishuvi orqali hosil qilinadi va dramatik asar oxirigacha saqlanib turadi.

**Kalit so'zlar:** Drama, konflikt, xarakter, tarixiy shaxs, obraz, saspens.

**Annotation:** The article explores the problem of creating conflict in Iqbol Mirzo's drama "Samarkand Saikali". In the play, the conflict is created by the conflicting images of Alisher Navoi and Sahibiddin, and the dramatic work is preserved until the end.

**Keywords:** Drama, conflict, character, historical figure, image, suspense.

**Аннотация:** В статье исследуется проблема создания конфликта в драме Икбола Мирзо «Самарканд Сайкали». В спектакле конфликт создается противоречивыми образами Алишера Навои и Сахиба Сиддика, а драматизм произведения сохраняется до конца.

**Ключевые слова:** драма, конфликт, персонаж, историческая личность, образ, саспенс.

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" nomli bir parda, sakkiz ko'rinishli dramasi-da 1465-1469-yillarda Samarqandda bo'lib o'tadigan voqealar tasvirlanadi. Ya'ni bu drama Navoiyning Samarqandda o'tgan hayotiga bag'ishlanadi. Navoiy bu paytda 24-28 yoshda bo'ladi. Asarda 90 yoshlardagi nuroniy chol – Mo'ysafid, Navoiyning ustози Abu Lays Samarqandiy, Samarqand hokimi Ahmad Hojibek, Ahmad Hojibek saroyiga Hirotdan yuborilgan josus Sohib Siddiq, shoir va tarixchi Davlatshoh Samarqandiy, shoirlar Mir Qarshiy, Mavlono Riyoziy, Yusuf Safoiy, Xiramiy Qalandar, Sayyid Qutb Samarqandiy, Mirzobek, Abu Lays Samarqandiyning jiyani Feruza va boshqalar turli darajadagi personajlar ishtirok etadi. Drama sahnaning muayyan bir nuqtasi yorishib, u yerda Navoiyning tashvishi, iztirobli, horg'in siymosi namoyon bo'lishi bilan boshlanadi va Navoiy haqidagi boshqa dramalarda uchraydigan qolipdan chiqib ketolmaydi, ko'rgazmalilik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dramatik asarning o'q tomiri bu konfliktidir. Asarda konflikt bo'lmas ekan, xarakterlar to'la ochilmaydi, syujet zerikarli bo'lib tuyuladi, dramaturgiyaga xos asosiy belgi – harakat sustlashadi. Hech narsa to'g'risida qaror qabul qila olmaydigan pyesa qahramonlari yoki bunday qahramonlarni tanlagan dramaturg asarning harakatsizligi uchun javobgardir. Hech narsani istamaydigan yoki nima istayotganini bilmagan odamdanda rivojlanib borayotgan mojaroni kutish mumkin emas. Layosh Egri o'zining "Dramaturgiya san'ati" kitobida dramatik harakatni statik holatga keltiradigan narsa nima, degan savolga javob izlaydi. "Eng statik ziddiyatda ham ba'zi harakatlar borligini ta'kidlash zarur. Tabiatda mutlaqo statik narsa yo'q. Jonsiz narsa harakatga to'la, ko'zga ko'rinmas, asarda jonsiz muhit ham harakatni o'z ichiga oladi, ammo harakatsiz bo'lib tuyuladi. Hech qanday dialog, hatto eng, eng intellektual dialog ham konfliktning oldinga siljitmasa, asarni ziddiyatdan mahrum qiladi".

Faqat ziddiyat keyingi konfliktni keltirib chiqarishi mumkin va birinchi ziddiyat maqsadga erishishga intilgan ongli irodadan kelib chiqadi, ya'ni asarning dastlabki sharti bilan belgilanadi. Dramada har bir personajning boshqalarga tegishli maqsadlari bilan to'qnashadigan o'ziga xos maqsadi mavjud. Maqsadlar va manfaatlar to'qnashishi kerak. Shunda ziddiyat, ya'ni konflikt paydo bo'ladi. Bu dramaturgiyaning eng asosiy qoidasi va busiz iloji yo'qligini dramaturg yaxshi anglashi lozim.

"Samarqand sayqali" dramasi Navoiyning Samarqanddagi o'qish davri tasvirlangani uchun ham qahramon bilan ziddiyatga kirishuvchi shaxs shu muhitdan kelib chiqib topilishi zarur bo'ladi.

Navoiyning ilk monologida muallif dramaning umumiy g'oyasini aks ettirishga urinadi: "Bu olam mulkida hamma yo'lovchi,

*Sayyohdir dunyoga kelgan har odam.*

*Manzil-marohilga yetgunicha to*

*Yetaklagay uni qismat karvoni".*

Navoiy o'z monologini "Qachon komil bo'lgay johil olomon? Qachon g'olib bo'lgay qalb va ma'rifat? Qachon?.. Qachon?.. Qachon?..", deya savol bilan tugallaydi. Drama she'riy uslubda yozilgan. Struktura

chizig'i Navoiyning Hirotdagi notinchliklardan so'ng Samarqandga kelgani va u yerda o'tgan hayotiga qurilgan. Ushbu dramada protagonist (ya'ni Navoiy) ga qarshi konflikt markazida antagonist funksiyasini Samarqand hokimi Ahmad Hojibek saroyiga Hirotdan yuborilgan josus — Sohib Siddiq bajaradi. Drama prologida Samarqandning o'rta asrlardagi umumiy ko'rinishi, darvozadan kirib kelgan karvonni qarshi olganlar shovqin-suroni, g'ala-g'ovur ekani aytilib, tomoshabinni voqealar atmosferasiga hozirlaydi. Alisherbek yelkasi-dagi gilamxurjunni horg'in qiyofada ohista yerga qo'yadi. Avval atrofdagilarga, keyin shahar manzaralariga qaraydi va asta-sekin chehrasi yorishib, horg'inlik o'rni-ni hayrat egallaydi. Peshonasiga kaftini soyabon qilib, shaharning uzoq-yaqin obidalariga nazar tashlaydi. Shu yerda Navoiyning Samarqand haqidagi ko'tarinki kayfiyatda aytilgan monologini o'qiymiz.

Garchi drama Alisherbekning Samarqandga ilk tashrifidan boshlansa-da, uni eng avval Mo'ysafid, keyin esa yosh shoir Mirzobek tanib qolishi o'quvchida biroz shubha uyg'otadi. Alisherbekning:

*"Ha, bu jon tashvishi, mol tashvishimas...*

*Xuroson elida qiyomat qo'pdi...*

*Qaydadir huzurbaxsh bodi sabolar?*

*Qaydadir ipakdek sirg'algan nasim?*

*Qaydadir rayhonbo'y xush shabbodalar?*

*Yor sochin chulg'atgan epkinlar qayda?*

*Tuproq hidin sochgan ko'klam yellari...*

*Ash'or, abyotlarda qoldilar faqat..."*, – deya aytgan so'zlaridan keyin Navoiy o'z ijodidan bir bayt keltiradi va shu baytni Mo'ysafid davom ettirib uni tanib qoladi. Bu dramaning prologida yuz beradi. Muallif shundan keyin konfliktni paydo qiladi: Hirotdan yuborilgan maxsus josus Sohib Siddiq Navoiyning hayotiga xavf tug'diruvchi antagonist sifatida namoyon bo'ladi. U shu darajada yuqori antagonistik kayfiyatida bo'aldiki, sipohga qaratib, "Shubha-ishtiboh yo'q sadoqatingga, Bir lahza ham ko'zdan qochirma uni! Bilgilki, asosiy dushmanimiz shu! Va zarur bo'lganda...", deya qo'lini tomog'iga yurgizib, boshni olishga ishora qiladi.

San'atshunos Aleksandr Mitta fikriga ko'ra, "Voqeada xarakter uchun ko'p narsa kerak emas. Siz uni syujet ichida ishonchli harakat qilish qobiliyati bilan ta'minlashingiz kerak. Boshqalari shundan kelib chiqadi. Buning uchun siz xarakter nimani ongli ravishda va nimani ong osti holatida xohlashini bilishingiz kerak".

Sohib Siddiqning birinchi ko'rinishda Navoiy hayotiga xavf soluvchi shaxs sifatida ko'rsatilishi ikkinchi ko'rinishda rivojlantiriladi. Bu Samarqand hokimi Ahmad Hojibek bilan suhbatda ko'zga tashlanadi. Uning xushomadi Ahmad Hojibekka ma'qul bo'lmasligi orqali Samarqand hokimining xarakteri ochila boradi. Muallif dramatik vaziyatni Sohib Siddiq orqali ziddiyat paydo bo'ladigan paytga tayyorlaydi. Ahmad Hojibek boshida uning gapiga parvo qilmasa-da, lekin taxt ehtiyoti uni Sohib Siddiqning gapini be'tibor qoldirmaslikka undaydi. Sohib Siddiq undan Navoiy bilan suhbatini xufiya tinglashga izn so'raydi va Hojibekning ko'nglida tug'ilgan hadik uni ruxsat berishga majbur qiladi. Navqiron Alisher Hojibekka o'z ahvolini bayon qilar ekan, saltan-

atdagi og'ir vaziyatga munosabatini ham bildirib o'tadi.

Alisherbek:

*Bizning boshimizga shamolu bo'ron,*

*To'fonlar, dovullar dag'dag'a solar.*

*Urush quyuning girdibodida*

*To'zg'ib bitdi bizning qutlug' xonadon...*

Asarning asosiy maqsadi Navoiyning Samarqandda o'tgan hayoti haqida hikoya qilish bo'lgani uchun Samarqand o'zaro dialoglarda qayta-qayta eslab turiladi. Ahmad Hojibek "Samarqandni Samarqand qilgan Samarqandlarning aqlu zakosi", deya o'z shahridan g'urur tuyishini yashirmaydi. Navoiy Ahmad Hojibek bilan suhbatdan so'ng Fazlulloh Abu Lays Samarqandiy bilan uchrashadi. Samarqand hokimining ko'ngliga shubha oralatishga uringan Sohib Siddiqning dastlabki urinishi samara bermaydi. Muallif shu vaziyatda "suspens"dan unumli foydalangan. Sohib Siddiq keyingi urinishni amalga oshirguncha o'quvchida qiziqish paydo bo'ladi. Keyingi fitna qanday bo'lishini kutadi. Sohib Siddiq Ahmad Hojibekka qarata: "Siz... Siz... Men hayronman... bunchalar (jahldan duduqlanib) Oson ilidingiz uning domiga?", deya ajablanadi. Sohib Siddiqdan tashqari ilm borasida Riyoziy ham Navoiyga qarama-qarshi obraz sifatida gavdalanadi.

Konflikt qancha ko'p bo'lsa, dramatik holat shunchalik taranglashadi. Yovuzlik konfliktida o'z xarakteri va shaxsiy manfaatlariga ega bo'lgan konkret odam – antagonist ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. O'z hat-ti-harakatlari bilan raqibi bo'lmish ijobiy qahramonning oldiga ma'lum bir savollarni qo'yadi. Qahramon hat-ti-harakatlari bilan unga javob beradi. Dramatik holatdan konflikt mana shu tarzda rivojlanadi. Har bir voqea shunday bayon qilinadi, uni ikki kishi: qahramon va uning antagonisti hikoya qiladi. Konfliktida hamisha ikki tomon: ikki shaxs, ikki guruh, ikki armiya yoki bir kishi hamma bilan to'qnashadi, ammo bu hamma konflikt uchun bir shaxs – antagonistdir. Har qanday holatda ham ikki shaxs bo'ladi. Hatto sahnada birgina odam harakt qilsa-da, u konfliktning qatnashchisidir. Uning irodasi mavjud bo'lmagan raqib bilan to'qnashishi mumkin. Hech bo'lmaganda, u ichki konfliktni rivojlantirishi mumkin – qahramonning ruhidagi shayton farishta bilan kurashadi.

"Samarqand sayqali"da Riyoziy obrazi xuddi shu kabi konflikt ishtirokchisiga aylanadi. Bundan muallif unumli foydalanadi. Bir guruh shoir va olimlar bahsdan so'ng Alisherbek va Abu Lays Samarqandiy yolg'iz qoldirib chiqib ketishadi. Abu Lays Samarqandiy Riyoziyning so'zlaridan hayron bo'lib Alisherbekka qaraydi. Navoiy "parvo qilmay" deganday jilmayib bosh irg'ab qo'yadi. Bu kichik detal ham Navoiyning xarakterini ochishga xizmat qilgan. Muallif Alisherning yosh-

lik qiyofasini yanada yaqqolroq aks ettirish uchun Qiz deb nomlangan to'qima obrazdan foydalanadi. Uning nutqidan parchaga e'tibor bering: "Lekin esingdami, chinakam ishqda, Visol bo'lmaydi deb uqtirar eding. Misol keltirarding Layli va Majnun, Xisravu Shirinning sevgi qissasin..."

Navoiyning Davlatshoh Samarqandiy bilan uchrashgan sahnasida dialoglar biroz cho'zilgan. Shu sahnada ularning gapini xufiya tinglayotgan sharpaning paydo bo'lishi yana suspensni yuzaga keltiradi. Ammo Navoiyning bu sharpani o'zi bilan Hirotdan ergashib kelganini tusmol qilishi biroz ishonarli chiqmagan. Sahnaning Navoiy va Davlatshoh Samarqandiy turgan chet qismi qorong'ulashib, qarama-qarshi tomoni biroz yorishadi. U yerda turgan Sharpa yoniga Riyoziy yaqinlashadi. U ham Sharpa monand libosda tasvirlanadi. Ushbu fitna keyingi ko'rinishda to'xtab, syujet muhabbat chizig'i bo'ylab rivojlanadi. Shu lahzada suspens yana qaytadi: parda panasida ularning suhbatini kuzatayotgan Riyoziyning sharpasi namoyon bo'ladi. U biroz bosh changallab, ikkilanib turadi-da, so'ng shoshib chiqib ketadi. Keyingi ko'rinishda Navoiyning ijod qilish jarayoni tasvirlanadi. Ushbu sahnada harakat kuzatilmaydi, deyarli to'xtab qoladi. Navoiyning monologlari ancha cho'zilgan va bu tomoshabinni o'zidan uzoqlashtiradi. Lekin muallif to'satdan yana sharpani, ya'ni Sohib Siddiqni sahnaga qaytaradi. Sharpa qilich dastasini tutib, Navoiy tomon tahdidli qadam tashlaydi. Shunda parda ortidan ovoz keladi. Sharpa chiqqan zahoti shovqin ko'tariladi. Sharpaning jon talvasasida "oh" urgani eshitiladi. Navoiy o'sha tomonga oshiqadi hamda u yoqdan sahnaga kirib kelgan Ahmad Hojibek va ikki navkarning vajohatini ko'rib taajjubda to'xtaydi. Shu yerda tugun yechiladi. Sohib Siddiq Ahmad Hojibekning yigitlari tomonidan o'ldiriladi. Shu bilan birga Sulton Husayn Hirotda toju taxtini egallagani haqida xushxabar keladi.

"Navoiy:

*Bu safar sabrimni imtihon qilar:*

*Do'stlar diydoridan, ustoz bag'ridan*

*Tilab-tilamasdan uzilmoqdaman."*

Drama Navoiyning Samarqandga qaytishi bilan tugallanadi. Dramani Navoiy tomonidan aytilgan "Vatan yurakdadir mangulik qadar, Yurak qayda bo'lsa, shundadir Vatan", xitobi yakunlab beradi. Asardagi konflikt Navoiy va Sohib Siddiq o'rtasida ro'y berib, muallif mazkur konfliktni rivojlantirib borish bilan birga tugun tashlaydi va kulminasiyada bu tugunni yechadi. Dramaturgiyaning ayni talabi ham shu formulani taqozo etadi. Umuman olganda, "Samarqand sayqali" tarixiy dramasi Navoiyning Samarqandda o'tgan hayoti haqida ixcham, tushunarli va muhim tasavvur bera oladi.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Лайош Эгри. Искусство драматургии. Творческая интерпретация человеческих мотивов. Т.: «Альпина нон-фикшн», 2020. – 430 ст.
2. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 287 б.
3. Театр энциклопедияси. – Тошкент қомуслар бош тахририяти, 1992. – 483 б.
4. Александр Митта. "Кино между адом и раем". Издательский дом, Подкова, 1999.
5. Иқбол Мирзо. Самарқанд сайқали. "Шарқ юлдузи" журнали, 3-сон, 2016. - 57-85-бетлар.



Tozagul DUSANOVA,  
 NavDPI mustaqil tadqiqotchi

## TURKIY ADABIYOTDA NASR VA NAZM UYG'UNLIGI AN'ANALARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada turkiy adabiyotda nasr va nazm o'xshashligida yaratilgan asarlarning tadrijiy taraqqiyoti va "Qisasi Rabg'uziy", "Guliston bit-turkiy", Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va Xojaning "Miftoh ul-adl" asarlari o'rtasidagi g'oyaviy mushtaraklik haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** nasr va nazm, islomiy mavzular, she'r, hikoyat, bayt, badiiyat

**Abstract:** This article provides information on the gradual development of works created under a combination of prose and poetry in Turkic literature, as well as on the ideological unity between the works «Qisasi Rabguziy», «Guliston bit-turkiy», «Mahbub ul-Qulub» by Alisher Navoi and «Miftoh ul-adl» by Khoja.

**Keywords:** prose and poetry, Islamic themes, poem, narrative, byte, artistry

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о постепенном развитии произведений, созданных под сочетанием прозы и поэзии в тюркской литературе, а также об идейном единстве между произведениями "Кисаси Рабгузий", "Гулистон бит-туркий", "Махбуб ул-Кулуб" Алишера Навои и "Мифтох ул-адл" Ходжи.

**Ключевые слова:** проза и поэзия, исламские темы, стихотворение, повествование, байт, художественность

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligi asosida yozilgan asarlarning tarixiy taraqqiyoti uzoq asrlarga borib taqaladi. XI asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turkiy tilda yozilib, bizgacha yetib kelgan ilk yirik tasavvufiy doston hisoblanadi. Unda islomiy mavzular va Qur'oniylar oyatlari ko'p o'rinlarda keltirilgan.

Asarning muqaddima qismi nasriy va she'riy yo'lda yozilgan. Nasriy muqaddimada Tangriga hamd, payg'ambarga bag'ishlangan na't, kitobning nomlanishi, xonga tortiq qilingani va hukmdorga ma'qul bo'lib, muallifni yuqori lavozimga qo'yganligi, asarning ramziy qahramonlari va ular o'rtasida savol-javob, munozara bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Nasriy muqaddimadan keyin 77 baytlik she'riy muqaddima keltiriladi. Unda ham nasriy muqaddimadagi fikrlar nazmda bayon qilinadi.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari ham nasriy, ham she'riy, ya'ni aralash yo'lda bitilgan. Asar hamd, na't, muqaddima, qissalar, lirik kechinmalar va xotima kabi tarkibiy qismlardan iboratdir. Qissalar nasrda, ulardan joy olgan ba'zi lirik kechinmalar, hikoyatlarning xulosalari va asar xotimasi nazmda ijod etilgan. Nosiruddin Rabg'uziy Qur'oni karimdagilari payg'ambarlar haqida kelgan qissa va hikoyatlarni qayta ishlab, sayqal berib takomillashtirgan.

Asar badiiyati ham o'ziga xos. Bir qator qissalar boshlanishida yoki ichida berilgan o'zbekcha hamda arabcha she'rlar Rabg'uziyning nozikta'b zullisonayn shoir bo'lganligidan darak beradi. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, juda ko'p o'rinlarda voqealar bayoni holatlar tasvirida tashbeh(o'xshatish), tanosib, tazod (qarama-qarshilik), tajnis (jinsdoshlik), takrir, tashxis(jonlantiri) kabi she'riy san'atlardan unumli foydalanilgan. Xususan, saj' (nasrdagi qofiya) adibning sevimli badi-

iy vositasi ekanligi ko'zga tashlanadi. Muallif saj'dan asosan ta'rif va tavsif o'rinlarida foydalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta'rif: "...payg'ambar alayissalom ul umri ukush, diydori ko'shish, Azroilg'a qotishg'on, rizvon birla yanashg'an, dunyodin qushtek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqq'an, Sirotidin yashindek kechg'an, uchmoh qabug'in ochg'an, o'zi aziz, o'rni adiz, arig' zotlig', Axnuh otlig' Idris yalavoch"[1].

Asardagi qissalarning ko'pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so'ng she'riy madh, keyin asosiy voqealar bayoni beriladi. Ba'zi qissalar ichida yana mustaqil hikoyat, rivoyat va naqlar ham keltirilgan. "Yusuf qissasi"da bir necha hikoyat, latifa, bayt, g'azal va boshqa janr namunalari uchraydi, ular asarda ilgari surilgan asosiy g'oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi. Masalan, "Dovud haqida"gi qissa Dovudning ta'rif bilan boshlanadi. So'ng she'riy tavsif beriladi va undan keyin Dovud payg'ambar haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etiladi.

Jumladan, Qissai Dovud Alayhis-salom: "Ul inna haza lahu tis'un va tis'una na'jatan ibtilosi birla mubtalo bo'lg'an, xarra raki'an va anab sajdasin qo'lg'an, fa g'afarnaa xitobin eshitgan, Davudu inna ja'alnaaka xalifatai fil arzi xil'atin bo'lg'an, fahkum baynan-nasi bilhaqqi amrini tutqan, va la tattabi'il hava nahyisindin yir-oq turg'an, va vahabnaa li Davuda Sulaymon mavhibati berilgan, va qatala Davudu Jaluta muborazati birla jilva qilg'an Dovud yalavoch alayhis-salom.

She'r:

Kel netak erdiki bil Dovud yalavoch ishlari,  
 Bir o'g'long'a hamd ayurda kimlar erdi eshlari...

"Dovud yalavoch (payg'ambar) bani Isroildan erdi. O'n qarindosh erdilar. Otalari Isho' otlig'. Dovud qamug'idin (barchasidan) kichik erdi. Tun-kun yig'layur erdi, ibodat ichinda ..." [1.23-b].



Asardagi "Yusuf alayhis-salom qissasi" o'zining badiiy jihatdan mukammalligi, hajman kattaligi bilan ajralib turadi. Bu qissa Yusuf Siddiq alayhissalom haqida ma'lumot beruvchi nasriy matn bilan boshlanadi, so'ng nazmiy matn bilan davom etadi va salkam yuz sahifani tashkil etadi. Qissa tarkibida nasriy matnlar orasida 16 ta nazmiy matn keltirilgan bo'lib, 165 misrani tashkil etadi. Bu nazmiy matnlar she'r, bayt, g'azal deb nomlangan.

"Qisasi Rabg'uziy"ning 1-kitobida nasriy matnlar tarkibida 380 misra, 2-kitobida nasriy matnlar orasida 236 misra she'riy matn keltirilgan. Jami "Qisasi Rabg'uziy" asarida nasriy matnlar tarkibida 616 misra nazmiy matn keltirilgan.

Qissalar o'zbek nasrining ajoyib namunasidir. Ularda xalq tilining o'sha davrdagi ko'rinishlari butun boyligi, tarovati, kuchi, qudrati, mavjud holati bilan namoyon bo'lgan. Qissalar tarkibida ba'zan she'riy parchalarning uchrashi esa uning mazmunini boyitgan, ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari ilk turkiy tildagi nasr va nazm yo'nalishida yozilgan bebaho asar hisoblanadi.

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligida yozilgan asarlar sirasiga Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asarini ham kiritishimiz mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyotining vakillaridan biri, benazir tarjimon Sayfi Saroyi o'zbek adabiyoti tarixida alohida mavqega ega ijodkor hisoblanadi. U fors-tojik adabiyotining ulug' namoyandasi Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini o'zbek tiliga birinchi bo'lib tarjima qilib, yarim original, falsafiy-axloqiy "Gulistoni bit-turkiy" asarini yaratgan. Adib Sa'diy asarining asosiy mag'zini olib, uni zamona ruhini va mahalliy muhitni aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirgan.

Sayfi Saroyi "Guliston" tarjimasi bilan o'z ismini turkiy adabiyot sahifalariga oltin harflar bilan yozgan tarjimon va shoirdir, u asarlarini turkiy tilning qipchoq lahjasida yozgan.

Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari turk lahjalarida so'zlashuvchi xalqlar uchun o'z davrida ibrat bo'la olgan asar hisoblangan. Hatto maktablarda darslik sifatida ham o'qitilgan. Mashhur turk olimi Mehmet Fuat Ko'prulu "Guliston bit-turkiy" haqida shunday yozadi: "Shu qadar aniq va toza tilda yozilganki, tarjimonning adabiy qudrati chindan ham har qanday tanqiddan ustun turadi. XIV asr qipchoq lahjasida adabiy nasrning bundan ortiq go'zal bir namunasini topish imkonsiz"[3.374-b].

"Gulistoni bit-turkiy" Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarining erkin tarjimasidir. Sayfi Saroyi "Guliston"ning asosiy mazmuni va shaklini olib, uni yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirib, ona tilida xalqiga taqdim etadi.

She'r:

*Ey jahoni ilmu ustodi hunar,  
Ma'rifatning manbai sohib nazar...*

Muqaddimada keltirilgan ushbu she'r 60 misradan iborat bo'lib unda shoir Misr Amiri Batxasbekni vafot etadi.

*Misr ichinda bor bir orif amir,  
Eyguluktur dam-badam elga ishi,  
Johu davlat, fathu nusrattur eshi.  
Lutfu axloqi karam koni durur,  
Eyg'u oti doimo tilda yurur...[2.171-b]*

Sayfi Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" asari qo'lyozmasining fotonusxasi Moskva va Toshkentda ham saqlanmoqda. Farg'onada topilgan "Yodgornoma"da ham bor. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit - turkiy" asari nasr va nazm uyg'unligida yaratilgan va quyidagi boblarga bo'lingan. Boblardagi nasriy va nazmiy matnlar miqdori ham bir xil emas. Asarda jami 248 ta nasriy va 454 ta nazmiy matnlar keltirilgan.

Asar tarkibida nasriy matnlarga nisbatan nazmiy matnlar miqdori ancha ko'p. Ba'zi hikoyatlardan so'ng bitta nazmiy matn keltirilgan bo'lsa, ba'zi bir hikoyatlar orasida nazmiy matnlar soni 10 ga yaqin. Masalan, Birinchi bobdagi "Podshoh va uch o'g'li" haqidagi hikoyat kichik o'g'ilning ko'rimsiz, ammo jasur va sadoqatli ekanligi haqida hikoya qiladi va bu hikoyat tarkibida 7 ta she'r, ya'ni nazmiy matn keltiriladi. Yoki shu bobdagi "G'addor dunyo elindan shikoyat qilib kelgan kishi" haqidagi hikoyatda 10 ta nazmiy matn keltirilgan.

Asarning beshinchi bobidagi oxirgi hikoyat Hamadon qozisining axloqsizligi va malik tomonidan fosh etilishi haqida hikoya qiladi. Ushbu hikoyat orasida 14 ta nazmiy matn keltirilgan. Bu she'rlardan 6 tasi 4 misra, 6 tasi 2 misra, 1 tasi 10 misra, 1 tasi Hikoyati manzum deb nomlanadi va 22 misradan iborat.

"Gulistoni bit-turkiy"dagi hikoyatlarning ayrimlari juda ixcham shaklda berilgan. Masalan, Rustam haqidagi hikoyat: "Bir kun Rustam onasina qatti so'zladi. Aning ko'ngli og'rib, yig'lab aytti: "Magar kichiklikni unuttungkim ulug'luq etarsan".

She'r:

*Onasi injinib Rustamga aytti,  
Ayo ko'rgan o'zun haybatli arslon.  
Agar bo'lsa edi yodingda ul kun –  
Kim, alimda eding bir yashar o'g'lon.  
Bukun bo'yla menga javr etmas eding –  
Ki, sen bir pahlavon, men bir qari jon [2.284-b].*

Yoki quyida keltirilgan hikoyat bir misra nasriy matn va ikki misra nazmiy matndangina iborat.

*Bir arab er yozi yerda g'oyat susab bu baytni o'qur edi:*

She'r:

*Umidim o'mayin maqsadga yetsam,  
Qonib ichsam suvin, meshim to'latsam [2.242].*

Asarda jami 176 ta hikoyat keltirilgan. Har bir hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar mavjud. Masallar, to'rtlik, baytlar shoirning mulohazalarini tasdiqlash uchun xizmat qilgan. Sayfi Saroyi Sa'diyning fikrlarini qadimgi o'zbek xalq maqollari va o'g'itlari bilan to'ldirib asarning g'oyaviy ta'sirini oshirgan.

"Gulistoni bit-turkiy" va "Mahbub ul-qulub" asarlari o'rtasida ijtimoiy-didaktik bog'liqlik bor. Har ikkala asar muallifi ham mamlakatning va el-yurtning taqdiri birinchi navbatda podshoning faoliyati va uning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq ekanligini talqin etishadi va nasriy

matnlar she'riy matn bilan xulosalanadi. Hukmdorlarni adolatga yo'llash, odillarni ta'rif-tavsif etish va zolimlarni qoralash "Guliston"ning muhim g'oyaviy motivi bo'lib, shu g'oyani badiiy mujassamlashtiruvchi ko'pgina hikoya va tamsillar keltiriladi, maqol va hikmatlar beriladi va nasriy matnlar nazmiy matnlar bilan uyg'unlikda keltiriladi:

*"Zulm qilsa malik raiyatga, Lojaram mamlakat xarob o'lur..."*

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligi an'analari Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya", "Munshaot", "Majolis un-nafois" asarlari va Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlarida yanada rivojlandi.

Xojaning "Miftoh ul-adl" asarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy masalalarga bag'ishlangan ma'lumotlar ko'p hollarda hadis yoki Qur'on oyatlaridan keltiriladi va ularni izohlash maqsadida adib axloqiy-didaktik mazmundagi hikoyatlar keltirib, o'zining she'riy xulosasi bilan yakunlaydi. Qur'on va hadislariga tayanilganligi bilan bu asar Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlariga hamohangdir. Xoja asar boblarida insoniyat ma'naviy taraqqiyotida barcha davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni izohlab berishga harakat qilgan. Jumladan, "Miftoh ul-adl"dan o'rin olgan "Bir soatlik adolatning qimmati" haqidagi hikoyat tasavvufiy mazmunga egadir. "Bir podshoh hajga bormoqchi bo'libdi. Ammo donishmand vaziri e'tiroz bildirib: *"Siz hajga borsangiz, el-yurt boshtoq bo'lib, beboshliklar yuzaga kelishi mumkin"* – deb podshohni yigirma marta hajga borgan kishining bir haj savobini sotib olishga undaydi.

Hoji esa buning uchun podshohning bir soatlik adolatining savobini berishini so'raydi. Podshoh: *"Bir soat adl qilg'onning savobi ne bo'lur?"* – deganda U: *"Bir soat adl qilg'onning savobi odamlar va farishtalarning va hurlarning ibodatidan ortuq turur"*, - deb javob beradi.

Xojaning xulosasiga ko'ra, bir soatlik adolatning bahosi juda yuksakdir. Islom dini va tasavvuf inson manfaatlarini himoya qiladi. Podshoh bir soatlik adli bilan qancha miskinlarga adolat va shafqat qilishi, begunohlarni himoya qilib zolimlarni jazolashi mumkin.

Shoirning "Gulzor" asari ham mazmun va ko'tarilgan muammolarning dolzarbligi bilan "Miftoh ul-adl"ga o'xshab ketadi. Xojaning bu ikki asari nasr va nazm yo'lida yozilgan. Nasriy matnlar she'riy parchalar bilan ziynatlangan va Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari bilan g'oyaviy jihatdan mushtarakdir.

"Ildizi Qur'on oyatlari va Hadislarga borib bog'lanuvchi Navoiy hikmatlarining ma'lum bir qismi adabiy ta'sir natijasida shakllangan. Alisher Navoiygacha yaratilgan pandnomalarning "Mahbub ul-qulub"ga ta'siri xususida fikr yuritir ekanmiz, avvalo, forsiy va turkiy tillarda dunyoga kelgan o'nlab adab durdonalaridagi g'oyaviy hamohanglikning asosida ham islom madaniyati turganligini qayd etishimiz joiz" [4.47-b].

Bu an'analarni keyinchalik ham davom etdi. Gulxaniyning "Zarbulmasal", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarlari ham aynan shunday nasr va nazm omixtaligida yaratilgan asarlar sirasiga kiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Носируддин Рабғузӣй "Қисаси Рабғузӣй" "Ёзувчи" нашриёти 1991.2 -китоб.
2. Сайфи Саройи "Гулистони бит-туркий". Тошкент Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1986.
3. M.Fuat Ko'prulu .Turk edebiyati tarixi. Ankara 2003 . s-374.
4. Ш.Ҳайитов. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. Бухоро. 2000. 47-б/

Yusufjon NABIJANOV

Namangan davlat universiteti magistranti

## MATNLARNI TAHLIL QILISHDA GRAFIK ORGANAYZERLAR (*"Konsepsiya xaritalari"*)dan foydalanish

**Annotatsiya:** Maqolada grafik organayzerlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan konsepsiya xaritalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Matnlarni o'rganish jarayonida ularning o'rni, "mazmunli o'rganish nazariyasi" bilan bog'liqligi[1], konsepsiya xaritalaridan foydalanish davomida erishilgan yutuqlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** konsepsiya xaritalari, ta'lim strategiyalari, "baliq skeleti", "vizual tasvirli matn".

**Annotation:** The article provide information about concept maps, which is one of the main types of graphic organizers and their place in the study of texts, connection with «the meaningful learning theory» [1] and achievements in the use of concept maps.

**Key words:** concept maps, learning strategies, «fish skeleton», «visual text».

**Аннотация:** В статье представлена информация о концептуальных картах которая является одним из основных видов графических органайзеров и их место в изучении текстов, связь с «теорией осмысленного обучения» [1] и достижения в использовании концептуальных карт.

**Ключевые слова:** концептуальные карты, стратегии обучения, «рыбий скелет», «визуальный текст».

1-rasm



ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi emas, o'quvchi turishi kerak. Ushbu pozitsiyada olib borilgan ta'lim an'anaviy ta'lim jarayonlaridan ancha ustun ekanligi yaqqol ko'rinmoqda. Ushbu yondashuv tizimida darslarni ko'proq o'quvchiga yo'naltirgan holda mustaqil ta'lim jarayonlarini ko'paytirish, masofaviy o'qitish shakli hamda sifatini tubdan yaxshilash, har bir talabaning bilim salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish hamda rivojlantirishni taqozo etadi. Ana shu jarayonlarda

Matnlarni o'rganishda grafik organayzerlar alohida o'rin tutadi. Grafik organayzerlar "konsepsiya xaritalari tushunchasi" hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Konsepsiya xaritalari odatda ikki qismdan tashkil topadi:

1. Tushunchalar.
2. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.

Konsepsiya xaritalari "mazmunli o'rganish nazariyasi" ("The meaningful learning theory") bilan bog'liqdir. Ushbu nazariya Devid Ausubelga tegishli hisoblanadi [2: 16]. Bu nazariyaning asosi quyidagilardan iborat:

**Birinchi**dan, o'quvchilar o'qitish jarayonida markazda turishi lozim. O'qituvchi esa "yo'naltiruvchi" vazifasini bajaradi.

Haqiqatan ham, hozirgi ta'lim jarayoniga antroposentrik yondashuv tizimi yo'lga qo'yilayotgan bo'lib,

aynan grafik organayzerlar eng birinchi ko'makchi vosita bo'la oladi deb o'ylayman.

Biz avvaldan tayyorlab olgan "Qushlar – bizning do'stimiz" sarlavhali matndan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun turfa xil qushlar haqidagi matnni o'qib eshittiramiz yoki ana shu matnning yozib olingan audio shaklidagi variantidan ham foydalanamiz. Keyin esa quyidagi ko'plab qushlar suratlari aks etgan tasvirni o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi.(1-rasm)

Yuqoridagi suratda qush turlari, hatto yirtqichlarini ham ko'rishingiz mumkin. Har bir qush surati ostiga raqam qo'yilgan. Ana endi biz yuqorida o'quvchilarga eshittirib o'tgan matndan foydalanamiz. Ushbu qushlar haqidagi matnni jadvalga joylashtirgan holda quyidagicha aks ettiramiz.

|                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                              |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| ..... bir qadam tashlaganda, kamida 5-6 metr masofani bosib o'tadi.                                                                                                                             | Myanma davlatida ..... rasman mamlakat timsoli sifatida e'tirof etilgan.                                                                                                                                                                                                                            | ..... O'limtiklar va o'lgan hayvonlarning qoldirlari hisobiga kun kechiradi. Ayrim paytlarda ular qotillik arslondek katta ovchi tomonidan amalga oshirilishini kutib o'tiradi.              |
| Yevropaliklar orasida ..... ni birinchi bo'lib ko'rganlar Aleksandr Makedonskiy askarlari hisoblanadi. Ular Hindiston hududiga bostirib kirganda, ana shu qushlarni ko'rishga muyassar bo'lgan. | ..... erkagi ham, urg'ochisi ham sadoqatda tengsizdir. Ular juftni umrida bir marta tanlaydi va u bilan so'nggi nafasi qolguncha yashaydi. Jufti o'lgach, erkagi ham, urg'ochisi ham o'ziga yangi juft izlamaydi. Bir so'z bilan aytganda, odamzod ham sadoqatni ..... dan o'rgansa ziyon qilmasdi. | Ushbu qushlar juda yoqimsiz xarakterga ega. Ular o'zlarining mulklariga hasad qilishadi, doimiy ravishda boshqa qushlar bilan janglarni tashkil qilishadi, o'z hududlarini himoya qilishadi. |
| .....lar chumchuqsimonlar oilasiga mansub bo'lib, tovushi yoqimli va ajoyib bo'lsa-da, tashqi ko'rinishi ko'zga yaqin emas.                                                                     | Hozirda ..... lar Antarktida va Avstraliyadan tashqari butun dunyoda uchraydi.                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                              |





O'quvchilar o'qib eshittirilgan matn orqali yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan bo'sh joylarga rasmda tasvirlangan qushlardan tanlashadi. Ya'ni qushlarga oldindan berilgan raqamlarni yoki ana o'sha qushning suratini ham joylashtirishadi.

Biz esa qushlarga berilgan ta'riflarni ularning surati bilan "Baliq skeleti" grafik organayzerida quyidagicha ifodalashga harakat qildik. (2-rasm)


Odatda "baliq skeleti" grafik organayzerida baliqning bosh qismiga tahlil qilinadigan muammo, chekka qismlariga esa ularning yechimi joylashtirilgan edi [3 :13]. Yuqoridagi tasvirda biz qushlarga nisbatan "qanotli do'stlar" parafrasasini qo'llaganmiz hamda baliqning bosh qismiga yozganmiz. Keyin esa baliqning yon qismlaridan kesma chiziqlarini chiqardik. Qushlar nomi, matnda keltirilgan qush haqida ma'lumot va ana shu qushning surati aks etdi. Bundan tashqari, qush haqida o'quvchining mantiqiy fikrlari ham o'rin oldi. Bu grafik organayzerni nafaqat ko'rgazmali qurol sifatida, shuningdek, metod sifatida ham qo'llashimiz mumkin. Ushbu grafik organayzer yordamida o'quvchilarda muayyan masala mohiyatini tasvirlash hamda yechish qobiliyati shakllanib boradi [3 :12].

**Ikkinchidan**, ushbu o'rganish turida yangi ma'lumotlar oldingi bilimlar bilan bog'liq bo'lganda yuzaga keladi.

Ya'ni o'quvchi-talaba quruq bir ma'lumotni yodlab olgandan ko'ra o'zining mavjud bilimlariga tayangan holda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishi mumkin. Aynan mana shu vaziyatda ham grafik organayzerlar hamda ularning tarkibida turuvchi konsepsiya xaritalari asosiy o'rin egallaydi. "Mazmunli o'rganish nazariyasi"ning tub

o'zagida ham shu narsa yotadi. Shuningdek, mavjud bilimlarga tayanib o'zlashtirilgan bilim va uning o'ziga xos iyerarxik tuzilishini grafik organayzerlar orqali ifodalashni o'quvchi-talabani xotirasida mustahkam o'rnashiga yordam beradi. Demak, biz ta'lim jarayonida o'ziga xos baholash vositasi sifatida ham grafik organayzerlardan foydalana olamiz.

Ushbu grafik organayzerni e'tiboringizga havola qilamiz.



Ko'rib turibsizki, yuqorida – visual tasvirda to'tiqush surati mavjud. Maxsus qizil rangli kontur chiziqlar 4 ta suratga ishora qilmoqda. Tuz, shirinlik (aniqrog'i shokolad), avokado (sitrus meva) va spirtli ichimliklar tasviri o'rin olgan hamda har biriga mana shu belgi  ni qo'yib chiqilgan. Buning taqiqlov belgisi ekanligini hamma yaxshi anglasa kerak. Ushbu grafik organayzerdan shunday mazmun anglashiladi: shokolad, tuz, avokado, spirtli ichimlik mayda to'tilar uchun o'lim demakdir. Ushbu mazmundagi matn o'quvchilarga avvalroq o'qib eshittirilgan edi. Konsepsiya xaritalarining tushunchalar hamda ular o'rtasidagi muno-



sabatlardan tashkil topishini inobatga olsak, tushuncha va munosabatlar suratlar va maxsus belgilar bilan ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi grafik organayzerning nomini "Vizual tasvirli matn" deya nomlashni taklif etdik.

Hozirgi kunda matnlarni o'qib tushunish hamda uning mazmunini so'zlab bera olish o'quvchidan nutqiy hamda lingvistik kompetensiya (layoqat)larning bo'lishini talab etadi. O'quvchi-talabalar grammatik qoidalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, soha-ga oid bo'lgan testlarni bemalol yechishi mumkin, ammo ulardagi nutqiy bilimlar birozgina oqsashi hech kimga sir emas. "Matnlar tuzilishi va shakliga ko'ra, yozma materiallari tartib bilan joylashtirilgan matnlardan to tasvirli va jadvalli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan qisqa so'zlar va iborali matnlargacha bo'lib, bir-biridan keskin farq qiladi." [4 :7-8] Shuni inobatga olgan holda grafik organayzerlar o'qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan xalqaro baholash dasturlarida material vazifasini o'tay oladi.

Ausubel nazariyasiga asoslangan holda keyinchalik Jozef Novak "konsepsiya xaritasi" yoki "konsepsiya

xaritalari" deb nomlangan texnikani ishlab chiqqan tadqiqotchi olim bo'ldi.

Konsepsiya xaritalaridan foydalanish natijasida nimalar erishish mumkin:

1. Konsepsiya xaritalaridan foydalanish natijasida kishida biror bir mavzu haqida tushuncha hosil bo'ladi.
2. Iyerarxik tarzda tushunishga erishiladi.
3. O'qitiladigan mavzu yoki diqqat qaratilayotgan obyektning barcha qirralarini qamrab olishga harakat qiladi.
4. Tushunchalar hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi.
5. O'rganilayotgan mavzuning o'xshash hamda farqli tomonlarini ko'rsatadi, izohlaydi.
6. "Mazmunli o'rganish nazariyasi" dan kelib chiqqan holda mavzuni yana-da chuqurroq o'rganishga asos vazifasini o'taydi.
7. Darsni o'tish davomida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini mavzuga, uning asosiy tushunchalariga qaratishga yordam beradi.
8. Sxematik xulosa qilishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.google.com/search?q=The+meaningful+learning+theory&aq=chrome..69i57j0i22i30i3.469j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>
2. Adriana Cuzco C., Jeanneth Zhagui P. The use of concept maps for developing children's reading and writing skills in a foreign – language classroom. – Cuenca – Ecuador, 2010. – 203 p.
3. Мухамедов Ў.Х., Усмонбоева М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил етишда замонавий интерфаол методлар: Ўқув услубий тавсиялар. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016. – 45 б.
4. Axborotnoma 3 [Matn]: testlar to'plami/tuzuvchilar guruhi A.Ismailov [va boshq.]. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2021. – 140 b.

**Gulchehra DARVISHOVA,**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o'qituvchisi*

## VIKTORIYA DAVRI INGLIZ ADABIYOTI

Bugungi kunda ingliz adabiyoti bilan qiziqadigan, yoki ingliz yozuvchilari, shoiru adabiyotchilari asarlarini sevib o'qiydiganlar uchun Vilyam Shekspir, Charlz Dikens, Artur Konan Doyl, Agata Kristi va boshqa son-sanoqsiz nomlar chuqur ilhom manbai ekanligini alohida e'tirof etmog'imiz lozim. Biroq, o'quvchilarni ularning yashab o'tgan davrlari va ular tomonidan yaratilgan o'lmas asarlarning davrlashuvi bilan ham tanishtirib o'tish – bugungi kun adabiyotining, aniqrog'i jahon adabiyotining oldida turgan eng asosiy masalalaridan biridir. Chunki, ma'lum bir davrlarda ingliz adabiyotida chuqur iz qoldirgan ushbu yozuvchilaru-shoiralar, adabiy muhit vujudga keltiruvchilari o'zlarining shedeвр asarlarini yaratganlar, o'sha davrga xoslikni namoyon qila olganlar, o'z davri

bilan yashaganlar.

Biz maqolamizda nafaqat ingliz adabiyotining davrlashuvini ko'rsatishga, balki unda chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslar bilan bog'liq zamonlarni ham yoritishga harakat qilamiz. Ingliz adabiyotchiligining eng qizg'in davri nafaqat Yevropadagi Renessans, balki O'rta asrlar bilan ham ma'lum bir bog'liqlikka ega bo'lib, o'sha davrlarning ruhini, ingliz jamiyati va insonlari hayotini aks ettiradigan, davlatchilik taraqqiyotida duch kelingan munosabatlarni yoritib bergan ko'plab asarlar yaratilganki, ularning barchasi qiziqarli va alohida qiymatga ega. Shuni qayd etishimiz lozimki, Buyuk Britaniyaning barcha qismlarida yaratilgan adabiyot namunalari ingliz adabiyoti sifatida taqdim etiladi.

Ingliz adabiyotining muhim davrlarini qamrab oladigan, Britaniya imperiyasida adabiyot ravnaqi bilan xarakterlanadigan, 1837-1901 yillarda tobora adabiy muhitning gullab-yashnagan davri sifatida yodga olinadigan davr hisoblangan Qirolicha Viktoriya boshqaruvi bilan xarakterlanadigan Viktoriya davri bugungi kun tadqiqotchilari uchun eng dolzarb adabiy mavzulardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

“Viktoriya davri” atamasining kelib chiqishi XX asr boshlariga borib taqalsada, adabiyotga nisbatan ushbu termin birinchi marotaba E.K. Stedmanning 1876 yilda chop etilgan «Viktorian poeziyasi» antologiyasida qo'llanilishi bilan kirib kelgan (Stedman E., 1876).

Adabiyotshunos olimlar fikriga ko'ra, «Viktorianizm» tushunchasi nafaqat qirolicha Viktoriya hukmronligidan, balki Angliya chegarasidan ham tashqariga chiqib, bu holat Britaniya uchun noyob hodisaga aylandi. D.Faulz ta'kidlaganidek «Viktoriya davri madaniyati G'arbning barcha erlarida mavjud edi». Olimlar bunga asosiy sabab sifatida qirolichaning adabiyot va sa'atga nisbatan bo'lgan e'tibori natijasida adabiy muhit ta'sirining kengayishi, omma o'rtasida adabiyotga ishtiyoqning oshishini keltirishadi.

N.Dyakonova keltirganidek Viktoriya davrida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, sinfiy asoslari, axloqiy tamoyillar va diniy me'yorlari o'zgarmas bo'lib, texnologik taraqqiyot va sanoatlashtirish orqali erishilgan moddiy yutuqlar, shuningdek mamlakat ichida hamda tashqarisidagi siyosiy o'yinlar, rivojlanmagan davlatlarning bo'ysundirilishi Buyuk Britaniyaning tashqi olamdan ustunligini belgiladi. Bunday ishonch tufayli vujudga kelgan o'ziga xoslik, murosasizlik adiblar asarlarida yaqqol aks ettirilgan.

Umuman, olganda tarixan qaraydigan bo'lsak, Viktoriya davri Britaniyaning barcha jabhalardagi shiddatli taraqqiyotni belgilab bergan, insoniyat hayotining deyarli barcha sohalari bo'yicha mamlakatning rivojlanishini, deyarli dunyodagi hukmronligini ta'minlagan ushbu davr britaniyaliklar uchun adabiyot va fanning ham cho'qqilarni zabt etgan davri sifatida qaralishi bejiz emas. Qirolicha Viktoriya davrida ilm-fan va adabiyotga juda katta e'tibor qaratilgan. Qirolichaning oqilona boshqaruvi, ingliz millatining har bir ishda uddaburonligiyu, tadbirliligi, mamlakatning jo'g'rofiy eng qulay hududda joylashganligi va xokazo omillar qirolikning ko'plab yutuqlar va muvaffaqiyatlar, shuhratlar “daryosida cho'milishiga” sabab bo'ldi.

XX asrda “Viktoriya davri” atamasi keng talqin etilib, 1948 yillardan boshlab Viktoriya adabiyoti tadqiqotchilari hamda adabiyot vakillari tomonidan ilmiy o'rganilib tahlilga tortildi. Ushbu davrdan boshlab hayotning har bir jabxasida, ijtimoiy va madaniy hayotda Viktoriya davri o'z aksini topdi (Llewellyn M., 2008). Turli adabiyotshunoslik maktablarining rivojlanishi bilan XX-XXI asrlarda “Viktoriya davri” adiblarining badiiy uslubi, adib romanistikasi retsepsiyasiga qiziqish kuchaydi, qah-

ramonlar psixologizmining tahlili chuqurlashdi, badiiy ko'lami, feminizm, mifopoetika nuqtai nazarlaridan tadqiq etish doiralari kengaydi. Bu o'z navbatida “Viktoriya davri”ga bag'ishlangan va ushbu davrni ilmiy tahlil etgan ko'plab dissertatsiya va monografiyalarni vujudga keltirdi (Goodman R., 2003).

V.Kanningem adabiyotshunoslarning Viktoriya davriga bo'lgan qiziqishini shunday ifodalaydi “O'tmish bu klassikka (mumtoz). SHu bois o'tmish zamonaviy adabiy ongni beqiyos kuch bilan egallab, bir vaqtning o'zida ham hasadni, ham afsuslanish hissini keltirib chiqaradi”.

E.Amineva tadqiqotida “Viktoriya davri tushunchasi ma'lum bir mafkura, tafakkur va turmush tarzini, ma'naviy muhitni, axloqiy ko'rsatmalar majmuasini anglatadi, shuningdek, jamiyatning muvaffaqiyatli progressiv rivojlanishidan dalolat beradi”, deya talqin etilgan. Olima o'z tadqiqotini Djon Faulza asarlari misolida olib borib Viktoriya davri tushunchasini tizimli tahlil etgan.

Avstraliyalik tadqiqotchi G.Mur har bir zamonaviy ingliz, shuningdek, sobiq ingliz mustamlakalarida yashovchilar Viktoriya davri merosi uchun ma'suldir, deb ta'kidlaydi.

Adabiyotshunos olimlar Viktoriya davri adabiyoti zamonaviy ingliz nasrida yana bir jonlanishni boshdan kechirganligini ta'kidlashadi. Ingliz yozuvchilari P.Akroyd, D.Lo, A.S.Bayett, G.Svift, D.Barnslarning asarlarida bevosita ingliz adabiyoti hamda Viktoriya davri romanligi uyg'unligi aks etadi.

Etakchi ingliz adabiyotshunosi Malkolm Bredberining fikriga ko'ra, Viktoriya davriga bo'lgan qiziqish, nafaqat tarixiy voqeiyliklarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi bilan emas, balki Viktoriya davrining inglizlar ongidagi alohida ahamiyati bilan bog'liq edi. Bunda “ikki davrning o'xshashligi doimo o'rganilgan - qirolicha Viktoriya davri (1837-1901) va o'ziga xos davr Margaret Tetcher boshqaruvi (1979-1990)”. M.Tetcher boshqaruvi yillariga kelib Viktoriya davri qadriyatlariga qiziqish Buyuk Britaniya va ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda qayta tiklandi va o'z rivojini topdi. Ushbu omil bevosita bu ikki davrni bir biriga bog'liq xolda mujassamlashtiradi. Viktoriya davri kino, teatr va albatta, adabiyot janrlarida juda keng ommalashdi. “Davarning jozibadorligi yangi ming yillikda Viktoriya davriga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi”.

Viktoriya davri adabiyoti Angliyadagi adabiy an'analar-da sezilarli iz qoldirdi. Jahon adabiyotida Viktoriya davri eng yorqin sahifalardan biriga aylanib bu davr ingliz adabiyotining oltin fondi va yuksak klassikalari yaratilgan davr deb nomlanadi. Shu boisdan XX asr oxirida ingliz yozuvchilarining asarlarida doimiy ravishda XIX asr adabiyotiga murojaat etilishi, Viktoriya nasrining klassik namunalarini zamonaviylik nuqtai nazaridan qayta yoritilishi hamda yangi talqinda tadbiiq etilishi ommalashgan. Yuz yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham M. Lyulinning fikriga ko'ra, inglizlar o'zlarini “yangi Viktorianlar”, deb hisoblashadi. “Inglizlar nafaqat Viktorian bo'lganlar, balki

bugungi kunda ham ular Viktorian ekanliklariga yanada ko'proq amin bo'ldilar".

Ingliz adiblari Viktoriya davrini jo'shqin tuyg'ular, hissiyotlar, estetik va axloqiy kayfiyatlar mujassamligi va o'ziga xos jihatlar uyg'unligi bilan ifodalashadi. Amerikalik yozuvchi Neyl Stivenzonning "Olmos asri" romani qahramoni Meggi shunday deydi: "har birimizning vujudimizda ma'lum bir ma'noda Viktorianlik mavjud" (Stephenson N., 1995).

Ma'lumki, Yevropa tillari ichida ingliz tili juda keng tarqalganligi, ko'p so'zligi bilan alohida ahamiyatga ega. Mazmun jihatdan bir-birlariga juda o'xshash so'zlarning ko'p uchrashi va boshqa omillar natijasida ingliz yozuvchilari ushbu omillar va so'zlardan o'ta mohirona foydalanganligi hattoki, yangidan-yangi so'zlarni muomalaga kiritganligi adabiyotshunos olimlar tomonidan e'tirof etiladi.

Ingliz adabiyoti – bu ko'p asrlarni, minglab yillarni qamrab oladigan tarix ekanligiga, bu tilda U.Shekspirdek

buyuk yozuvchilar o'z asrlarini jahonga taqdim qilganliklariga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, mualliflar tomonidan inglizlarning milliy xarakterini, ruhini unutilmas asarlar sifatida targ'ib qilganligini ham tan olishimiz lozim. Ko'plab adabiyotshunos olimlar uchun ushbu buyuk yozuvchilarning asarlari nafaqat katta ilxom manbai, balki ingliz madaniyatini, millat ruhiyatini, mamlakat sivilizatsiyasini, madaniy xususiyatlarini anglashning asosi bo'lib ham xizmat qilishi bugun hech birimizga sir emas.

Umuman olganda, bu Viktoriya davrining ingliz va jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi, ushbu davr adabiyotining o'ziga xosligi, davrning mavzusi va adabiy rivojlanish jarayonlarining shiddatidir. Zero, Qirolicha Viktoriya boshqaruvi ostida barcha sohalar qatorida adabiyot va adabiy muhitning yuksalishi yuz berdi va aynan bu davrda ko'plab ingliz yozuvchilari va shoirlari etishib chiqib, o'ta sermahsul ijod qildi deyish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amineva, Ye.S. Tradisiya viktorianskoy literatury v tvorchestve Djona
2. Faulza // avtoref. diss. ... kan. filol. nauk. Yekaterinburg-2011. S. 34.
3. Bradbury, M. The modern British novel. 1878–2001 / M. Bradbury. – L.: Penguin books, 2001. – R.40
4. Biography of Queen Victoria, Queen of England and Empress of India.
5. <https://www.thoughtco.com/queen-victoria-biography-3530656>
6. Goodman, R. How to be a Victorian. London : Viking, 2013. 458 p.
7. Wilson, A.N. The Victorians. London : Arrow books, 2003. 738 p.
8. Laird, K.E. The Art of Adapting Victorian Literature, 1848–1920:
9. Dramatizing Jane Eyre, Burlington, VT : Ashgate, 2015. 242 p.

**Feruzakhon YAKUBOVA,**

*Yeoju Technical Institute in Tashkent, a senior lecturer*

## THE IMPORTANCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

The need to create the communicative competence in technical university students is influenced by the activation of academic mobility of university students, internationalization and expansion of higher education exports. In the conditions of globalization of the world economy, communicative competence becomes a factor in increasing the competitiveness of future specialists.

The purpose of this study is to study the impact of information technologies as innovative on the formation of students' communicative competencies. The term "communication" is firmly included in the conceptual apparatus of social and humanitarian knowledge necessary for modern specialists of any profile.

Currently, specialists are needed who have professional skills, communicative culture, communicative literacy and competence both within the framework of their native language and in foreign language communication. Preparation for communication should become an integral part of the professional training of a well-educated specialist, and the ability to organize professional communication in any environment is one of the main requirements in his qualification characteristics. The term "communication" was introduced into scientific circulation at the beginning of the 20th century. "Communication" (Latin: communication) means to confer with someone:

- 1) the way of communication (e.g., air c., water c.);



2) form of communication (e.g. telegraph, radio, telephone);

3) an act of communication, a connection between two or more individuals based on mutual understanding; communication of information by one person to another or a number of persons;

4) mass communication is the process of communicating information through technical means of mass communication (print, radio, cinema, television) to numerically large, dispersed audiences.

The communicative training of university students includes:

1) communication skills and abilities (improving monologue and dialogic speech, the ability to enter into a conversation and conduct it, the ability to creatively develop their thoughts and feelings, etc.);

2) communicative culture (mastering the skills and abilities of communication by correlating one's speech action with the moral, cultural, social values of one's people);

3) communicative competence (study of norms, rules and communication technologies);

4) the communicative potential of the individual (the dynamics of the communicative properties and communicative abilities of the student's personality).

Communicative competence is understood as the success of a common cause that creates conditions for people to cooperate in order to achieve goals that are meaningful to them. Communicative competence is based on knowledge of the theory of interpersonal group communication, psychological, age characteristics of people, the ability to speak and listen, build interpersonal relationships, behaviour in society, possession of personal qualities such as sociability, tolerance, empathy and interaction experience corresponding to the age group of a person.

In this regard, it is necessary to emphasize that information technologies help students to develop a systematic perception of the world, the development of unified information links of various natural and social phenomena, to develop systemic thinking, the level of which is largely determined by the ability to process information promptly and make reasoned decisions based on it. IT is a set of modern means of audio, television, visual and virtual communications, which in the educational process contribute to the improvement of cognitive activity of students, the consideration of modelling and visualization of complex processes and phenomena, to



show interest in the study of individual subjects, the use of the Internet when finding the desired information.

Distance education is associated with IC, as it is a form of obtaining knowledge, including education, at a distance, with the preservation of the components of the educational process and the use of information technology. Distance education is rather an opportunity to give more instructions and tools to the student, who himself regulates the intensity of the educational process and assimilation of the material. Society demands from a university graduate both high professional literacy and a sufficient level of proficiency in the culture of speech, ensuring appropriate communication in various fields of communication. Keeping electronic diaries, e-mail and SMS messages also relate to information technologies, and they contribute to understanding the values of trusting relationships between people, establishing collaborative relationships, friendship.

Thus, the use of information technologies in Russian language classes activates students' communicative competencies, contributes to the formation of speech skills and abilities among future specialists that ensure both adequate perception of "foreign" texts and the production of their own speech, works in accordance with the communication situation, enables the teacher to expand the range of approaches and methods of presenting educational information, and allows raising the quality of education to a higher level, which is socially significant and relevant today. The activities of the student and the teacher are transformed towards informatization. The student can use a large amount of diverse information, collect and process it. The teacher is freed from routine actions and gets the opportunity to explore the learning process, monitor the development of the student.

#### References

1. Tomova M.B., Dedusheva L.A. Innovative development of the Russian Federation in the field of education // Online journal "Science Studies" Volume 8, No.1 (2016) <http://naukovedenie.ru/PDF/74EVN116.pdf>
2. Semenova N.G. The influence of multimedia technologies on the cognitive activity of students. Bulletin of OSU-2005-4-39c.
3. Temirbekova G.A., Kaldykozova S.E. Communicative orientation of Russian language teaching // Bulletin of the International Academy. – Moscow, 2016.
4. Kochneva N.V. Principles of integrated foreign language teaching // Site materials <http://nsportal.ru>

Nilufar Namazova,  
filologiya fanlari nomzodi

## MUHARRIR ISTE'DODI VA DAVR TALABLARI

O'zbek milliy matbuotining shakllanishi va rivojlanishida Hoji Muinning ham munosib xizmatlari bor. Uning nomini "Mehnatkashlar tovushi", "Tayoq", "Mashrab" kabi gazeta va jurnallarning tashkilotchisi hamda muharriri sifatida ham tilga olish joiz.

Hoji Muin muharrirlikni, ya'ni gazeta va jurnalni boshqarishdagi ilk tajribani "Oyina" jurnali va "Hurriyat" gazetasida ishlagan chog'ida orttirgan. Bu haqda u o'z kundaligida: "1913-14nchi yillarda "Samarqand" gazetasida va "Oyina" jurnalida bir muddat ishladim. 1917nchi yillarda bir necha oy "Hurriyat" gazetasida ham adabiy xizmatda bo'ldim", deya kamtarona e'tirof qiladi. Uning o'z ishiga mas'uliyat ila yondashishini, kuyunchakligini ko'rgan Behbudiy 1914-yilda safarga o'tlanganida jurnal muharrirlikni Hoji Muinga yuklab ketadi<sup>1</sup>. Mazkur jurnalning 33-43-sonlarida muvaqqat muharriri Hoji Muin ibn Shukrullo ekanligi qayd etilgan. Olmon olimasi I. Baldauf Hoji Muinning jurnalidagi muharrirlik faoliyatiga: "Hoji Muin ancha tadbirkor kishi bo'lganligi sababli ikki haftadayoq jurnalning texnikaviy va tahririy jihatlarini ancha yaxshilandi"<sup>2</sup>, deya ijobiy baho bergan. Darhaqiqat, jurnalning Hoji Muin muharrirlik qilgan sonlarini kuzatganda, uning jurnal maqsad-maslagini yaxshi anglab yetgani hamda darajasini avvalgi maromda olib borganini ko'rish mumkin.

Hoji Muin "Hurriyat" gazetasida ham qisqa vaqt bo'lsa-da, muharrirlik qilgan. "Hurriyat" gazetasining 65-66, 75-81-sonlarida Abdurauf Fitrat o'rnida "Muvaqqat muharriri Hoji Muin ibn Shukrullo" deb yozilgan. Xullas, Hoji Muin "Oyina" jurnalini ham, "Hurriyat" gazetasini ham ma'lum bir muddat muvaqqat muharrir sifatida boshqargan. Bu jurnal va gazeta tahririyatlari olgan bilim va ko'nikmalar keyinchalik uning yangi gazetada mas'ul muharrir bo'lib ishlashida qo'l kelgan.

1918-yil may oyida Samarqandga favqulodda komissar sifatida kelgan bolshevik Orif Klebleyev "Ittifoq" jamiyati a'zolarini yig'ib majlis o'tkazadi. Majlisda o'zbekcha gazeta chiqarish to'g'risida qaror qabul qilinib, gazetaning tahrir hay'atiga Zohida Burnasheva, Shokir Muxtoriy va Hoji Muin tayinlandi. Bu hay'at o'z orasidan Hoji Muinni muharrirlikka saylaydi. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi 1918-yil 11-iyunda sobiq "Hurriyat" gazetasining idorasida chop etildi.

Gazetaning nomi, tabiiyki, markaz vakili Klebleyev taklifi bilan qo'yilgan. Muharrir Hoji Muin bu taklifga qarshi chiqadi. "Bu ot bir yoqdan arabcha-forscha va o'zbekcha bir kalima bo'lib, boshqa yoqdan "o'q" jiddiy gazetaga nomunosib bir ismdir. "Mehnatkashlar tovushi" qo'yilsun"<sup>3</sup>, deydi. Biroq Klebleyev taklifi qabul qilinadi. Gazetaning 3-sonida "Gazeta ismi haqida" degan kichik bir fiqra bosilgan bo'lib, unda: "Zahmatkashlar tovushi" ism qo'yilmog'ini sho'rodan o'tindik", deyilgan. "Mehnatkashlar o'qi" gazetasi 5-son-

dan boshlab "Mehnatkashlar tovushi" degan nom bilan chiqa boshlaydi.

Odatda, har bir nashrning birinchi sonida uning maqsad va vazifalarini ko'rsatuvchi maqola chop etiladi. Bu maqola tahririyat rahbariyati tomonidan yoziladi. "Birlashingiz, butun dunyo ishchilari!" shiori bilan chiqa boshlagan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining birinchi sonidagi bosh maqolada uning maqsad va vazifalari shunday ifodalangan: "Maslakimiz: taraqqiyparvar bo'lib hayot olaminda din va millat farqig'a qaramasdan barcha vatandoshlarimiz bilan qo'lg'a-qo'l tutinishib, muhabbat va sadoqat uzra yashamoqdir.

Maqsadimiz esa: necha asrlardan beri zolim podsho va xunxo'r hukmdorlarning qo'llari ostida ezilib kelg'on xalqimizg'a, boxusus, madaniyat yemishlari, ilm va urfon ne'matidan mahrum qolg'on Turkiston o'lkasi musulmonlarig'a ma'rifat va madaniyat yo'llarini ko'rsatib, alarni hozirgi hurriyat va muxtoriyatdan istifodalandirmoqdir.

Yurtimiz va diyonatimiz, huquq va hurriyatimizg'a xiyonat qilaturg'on yoki faqir xalq zarariga harakatda bo'ling'on kishilarg'a qarshi qalamimizni qilich va so'zimizni o'q o'rnida ishlatmak birinchi vazifamizdir"<sup>4</sup>.

Iqtibosdan anglashiladiki, gazeta millatning huquq va hurriyati, farovonligi, madaniy yuksalishi uchun kurashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ma'lumki, xuddi shunday maqsad jadid ziyolilarining muqaddas g'oyalarida bor edi. Qolaversa, bu so'zlar gazeta muharriri, xodimlarining yangi hukumat bergan "hurriyat va muxtoriyat"ga umid hamda ishonchlari ifodasi o'laroq yozilgan edi, deyish mumkin.

Gazetada Hoji Muinning nomi 1919-yil 31-oktabrda chop etilgan sondan muharrir sifatida yozilgan bo'lib, bungacha gazeta "hay'ati tahririya" tomonidan chiqarilganligi qayd qilingan. Biroq tahririyatga kelgan maktublarning "bosh muharrir Hoji Muin afandig'a" yozilganligi, javoblar ham uning nomidan qaytarilganligi<sup>5</sup> gazetaning bosh muharrirlik dastlabki sonlardanoq Hoji Muin zimmasiga yuklanganini anglatadi.

Muharrir Hoji Muin gazeta sahifalarida maorif sohasidagi o'zgarishlar haqida yozilgan maqolalarga keng o'rin berdi. Uning o'zi ham dastlabki sonlarda "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi", "Oila tarbiyasi", "Til masalasi", "Xalq dorilfununi" kabi ma'rifiy maqolalari bilan qatnashdi. Bu maqolalarni tahlil qilib, muallifning "o'ktabr inqilobi" gacha yechimini topmagan muammolar endi hal etiladi, endi amalga oshadi, deb ishonganligini ko'rish mumkin. Chunonchi, u "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi" sarlavhali maqolasida xotin-qizlar savodini chiqarish masalasini ko'taradi va muharrir sifatida ushbu mavzudagi maqolalarni gazeta sahifalarida bundan keyin berib borishga so'z beradi.

Bolsheviklarning sovet maktablarini tashkil etish uchun bepul o'qitishni joriy qilishlari ularning "xalqpar-

var“ hokimiyat o‘rnatayotganliklariga umid tug‘dirar edi. “Ishchi” (Shokir Muxtoriy) tomonidan yozilgan bir maqolada sho‘rolar hukumatini xalq ta‘limini tiklash yo‘lida qilayotgan ishlari uchun ham olqishlash lozimligi ta‘kidlanadi. Biroq aytish kerakki, gazetada bolsheviklarning ushbu sohadagi ishlari to‘g‘risida olqishlardan ko‘ra ko‘proq tanqidiy maqolalar chop etilgan. Masalan, “Musulmon bolshevik” imzosi bilan yozilgan “Ilmg‘a tashviq” sarlavhali maqolada yangi hukumat tomonidan chiqarilgan qarorlarning qog‘ozda qolib ketayotganligi, musulmonlar inqilobdan keyin ko‘zlangan maqsadlarga emas, balki “ilmg‘a tashviq” kabi foydasiz taklifnomalargagina ega bo‘layotganliklari haqida yozilgan. Maqola muallifi: “...taklifnomada bolalarni ruscha sanoe’ maktablarida o‘qishga taklif etadi. Vaholanki, rus tilini bilmaydigan musulmon bolalari uchun o‘z tillarida o‘qitadigan maktab ochib, keyin bilimga tashviq etilsa bo‘lmasmi?” deydi.

“Bizning holler” sarlavhali maqola muallifi esa: “Muallimlarimiz avval uch-to‘rt kishi yig‘ilib qaror chiqarar va amaliga kirishar edi. Endilikda bu qarorning tasdiqini hukumatdan kutib qancha vaqt o‘tib ketadi”, deya oktabrdan avvalgi va keyingi ahvolni taqqoslaydi. Maorif qurultoyi tomonidan chiqarilgan qarorlarning faqat qog‘ozda qolib ketayotganligi, ziyolilarning esa barcha ishni hukumat qiladi, deb “jim” turishlarini tanqid qiladi. “Taraqqiyparvarlarimizning g‘oyai a‘moli millatni taraqqiy ettirmak yo‘q edimi, deydi kuyinib. Bu kabi maqolalarni o‘qib, maqtoqlar qolipiga aylanib qolajak bolshevik gazetasining emas, balki jadidlar chiqargan “Hurriyat” gazetasining ruhiyatini his etamiz.

“Mehnatkashlar tovushi” gazetasining xalq orasida sevib o‘qilishiga “Tayoq”, “Shapaloq” kabi hajviy bo‘limlarning tashkil etilishi ham sabab bo‘lgan. “Hurriyat» gazetasidagi “Shapaloq” hajviy bo‘limi “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida ham davom ettirildi. “Shapaloq” bo‘limi “Zanbur” imzosi bilan Sayidrizo Alizoda tomonidan, “Tayoq” bo‘limi esa “Boturbek” imzosi bilan Hoji Muin tomonidan yozib borilgan. Ushbu bo‘limda muntazam ravishda berib borilgan kichik felyetonlar, hajviy xabar, e‘lonlarda yangi tuzumni olqishlash hollari tez-tez ko‘zga tashlansa-da, jamiyatlardagi illatlar, kamchiliklar kulgi tig‘i ostiga olindi. Ular dolzarb va real voqealarning hajviy tahlili va tanqidi bo‘lgani uchun ham shov-shuylarga sabab bo‘lgan.

Hoji Muinning muharrirlik faoliyati bu bilan cheklanib qolmagan. U bir qancha hajviy jurnallarni tashkil etishda faol qatnashgan va ularning ayrimlariga muharrirlik qilgan. Shulardan biri “Mehnatkashlar tovushi” gazetasiga ilova tarzida chiqarilgan “Tayoq” jurnalidir.

Ma‘lumki, o‘zbek hajviy publitsistikasining taraqqiyotida o‘tgan asrning 20-yillaridan chop etila boshlagan “Tayoq”, “Mushtum”, “Mashrab” kabi jurnallarning hi-

ssasi katta. Hajviy publitsistika janrlarining shakllanishi va takomillashib borishi aynan mana shu jurnallarda yuz ko‘rsatdi. 1918-yilda “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida tashkil etilgan “Tayoq”, “Shapaloq” kabi hajviy bo‘limlarning xalq tomonidan sevib o‘qilishini ko‘rgan Hoji Muin hajviy jurnal chiqarishga hukumatdan ruxsat oladi. U tashkil etgan “Tayoq” jurnali “o‘zbeklar orasida o‘zbeklar tomonidan chiqarilg‘on birinchi kulgi jurnal”<sup>6</sup> edi.

“Samarqandda ikki haftada bir qatla chiqaturg‘on hajviy, kulgu majalla”si bo‘lgan “Tayoq” 1920-yil, 1-yanvardan chop etila boshladi. Jurnal sahifalarida, Hoji Muindan tashqari Sadridin Ayniy, Saidrizo Alizoda, Abdulhamid Majidiylarning hajviy maqolalarini o‘qiymiz. “Tayoq” jurnali 8 son chiqib to‘xtaydi. Biroq mazkur jurnaldagi tajriba “Mashrab” jurnalini chiqarish uchun asos bo‘ldi. “Zarafshon” gazetasida “Tayoq” hajviy bo‘limini davom ettirayotgan Hoji Muin yangi hajviy jurnal chiqarish uchun yelib yuguradi. “Zarafshon” gazetasining iqtisodiy ahvoli garchi ko‘ngildagidek bo‘lmasa-da, gazeta muharriri Ismoilzoda ushbu jurnalni muassis sifatida qo‘llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, “Mashrab” jurnali 1924-yil 1-iyundan chop etila boshladi.

Rangli suratlar bilan bezalgan jurnal muqovasiga “Samarqandda har oyida ikki qatla chiqaturg‘on adabiy, ijtimoiy va siyosiy kulgu jurnali. “Zarafshon” gazetasiga qo‘shma”, degan yozuvni o‘qiymiz. Jurnal sakkiz sahifa bo‘lib chiqqan. Uning birinchi sonida Hoji Muin “Yo‘limiz, tilagimiz” sarlavhasi bilan jurnalning maqsadini shunday bayon qiladi: “Yaxshi niyat-yarim davlat, derlar. Biz ham bu kun yaxshi niyat qilib jurnalimizni “Mashrab” atadiq. Mashrab o‘z zamonidagi xalqni ham kuldirdi, ham yig‘latdi. Haqiqat yo‘lida o‘zi ham o‘shal zamonning xurofotfurush johil olimlari va shahvatparast zolim hokimlari tomonidan so‘kildi, uruldi... Biz ham bu kun haqsizlik va nodonlik devri bilan kurashish uchun maydong‘a chiqdik. Biz bu maydonda jonimiz boricha va kuchimiz yetganicha talashamiz, tortishamiz. Bu yo‘lda oldimizdan har balo chiqsa toleyimizdan ko‘ramiz. Boshimiz yorilsa – do‘ppi tagida, qo‘limiz sinasa – yengimiz ichida... Yiqilsaq – keng maydon, o‘lsak – torgina go‘r...”. Xulosa qilib aytganda, ilk muharrirlik ko‘nikmalarini ustoz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitratlar yordamida olgan Hoji Muin keyinchalik bu borada bir necha nashrlarda muharrirlik lavozimlarida o‘z iste‘dodini namoyon etdi.

Sho‘ro hukumatining nashri bo‘lgan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasidagi muharrirlik faoliyati nechog‘lik qarama-qarshiliklar, og‘ir mehnatlar bilan kechgan bo‘lsa-da, Hoji Muin o‘z ezgu maqsadlari, maslagidan voz kechmadi. Har doim xalq manfaatidan kelib chiqib ish yuritdi. Gazetani yurtga, millatga nafi tegadigan tarzda chiqarishga intildi va bunga ma‘lum ma‘noda erishdi ham.

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma‘naviyat, 1999. B. 55.

2. Ingeborg Baldauf. XX asr r‘zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma‘naviyat, 2001. B. 44.

3. Hoji Muin. Qizil o‘zbek matbuoti // Zarafshon. 1924. 21-iyun.

4. Mehnatkashlar tovushi. 1918. 1- iyun.

5. Tursunqul. Mashrab // Zarafshon. 1925. 26 avgust.



Marvarid Nurbayeva,  
Qarshi davlat universitetining Pedagogika Instituti  
katta o'qituvchisi

## TA'LIM TURLARI VA UNI TASHKIL ETISH AN'ANALARI

(XV ASRDA G'ARBIY YEVROPA VA O'RTA OSIYO MINTAQALARI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlari hamda O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotini qamrab olgan. Ta'lim tarbiya, madaniyat, san'at qay daraja rivojlangani haqida nazariy fikrlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim va tarbiya ikki qit'ada qanday usullarda olib borilganligini taqqoslanganligini ko'rish mumkin.

**Kalit so'zlar:** O'rta asrlar ijtimoiy hayot tarzi, ta'lim-tarbiya, adabiy hayot, XV asr maktablari, cherkov maktablari, oliy maktablar, madrasalar, dunyoviy va diniy ta'lim.

G'arbiy Yevropada uzoq vaqt davomida faqat cherkov vazirlari savodli bo'lib, ular cherkov kitoblarini o'qishlari va ibodatlarini bilishlari kerak edi.

Katta cherkov va monastirlarda ruhoniylarni tayyorlash uchun maktablar mavjud edi. Talabalar ko'plab ibodatlarini yodlashdi, o'qish, yozish, hisoblash va cherkov qo'shiqlarini o'rganishdi. Arifmetika darslarida ular ma'lum bir diniy bayramning necha kun kelishini hisoblab chiqardilar. Cherkov binolarini qurish uchun zarur bo'lgan bilimlar geometriya orqali o'qitilardi.

Maktab ilmi qiyin va mashaqqatli edi. Fransuzlar ham, nemislar ham, inglizlar ham ular uchun chet tili bo'lgan lotin tilida o'qitilgan. O'sha paytda bu tilda kitoblar yozilib, duolar o'qilgan. Ko'pincha butun maktab uchun faqat bitta kitob bor edi, o'qituvchi uni navbatma-navbat o'quvchilarga ko'rsatardi. Bolalarda bilimga qiziqish uyg'otishga urinmasdilar, ta'limotda siqilish hukmronlik qilgan. Bilim o'quvchilarga kaltaklar bilan o'rgatilgan. Ta'lim olgan inson haqida "Ustozining tayog'i ostida o'sgan", deyilgan. Cherkov maktablaridan yarim savodli odamlar chiqardi. Ko'pchilik o'qiganlarining ma'nosini tushunmay, faqat lotin matnini o'qishi mumkin edi. O'rta asrlarda maktab butunlay ruhoniylar qo'lida bo'lgan.

Shaharlarning o'sishi bilan ko'proq savodli odamlar talab qilindi. Savdodan tushgan daromadni hisoblash, shahar kengashlarida va sudda faoliyat yuritish kerak edi. O'rta asrlarda Evropada cherkov maktablari emas, balki shahar maktablari paydo bo'la boshladi. Ular cherkovnikiga qaraganda yozish va arifmetikani yaxshiroq o'rgatishgan va tabiatshunoslik bo'yicha ba'zi ma'lumotlar berishgan.

O'rta asrlarda odam juda kam bilimga ega edi, fan deyarli hech narsani tushuntira olmadi. Ruhoniylar olimlarning dalillari cherkov ta'limotiga zid kelmasligiga ishonch hosil qildilar. Cherkovning ta'kidlashicha, inson tabiat sirlariga kira olmaydi, chunki dunyodagi hamma narsa Xudoning irodasi bilan sodir bo'ladi. Shuning uchun o'rta asr olimlari tabiat haqida kam o'rgandilar. Ko'pincha, ularning ko'zlari cherkov kitoblarining sarg'aygan sahifalariga tikilar, ulardagi barcha savollariga tayyor javob izlar edilar.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida astrologiya va alkimyo kabi fanlar rivojlandi. Munajjimlar kelajakni yulduzlar aniqlashi mumkinligini ta'kidladilar. Qirollar, sarkardalar va sayohatchilar biron bir ish qilishdan oldin munajjimlar bilan maslahatlashgan. Alkimyoglar barcha metallarni oltinga aylantirish mumkin bo'lgan sirli moddani qidirishda o'z kuchlarini behuda sarfladilar. Ammo iqtisodiyotning rivojlanishi haqiqiy ilmiy bilimlarning tug'ilishiga olib keldi. Dehqonlar yerga ishlov berishni yaxshilagan, hayvonlar va o'simliklarni kuzatgan. Hunarmandlar o'zlarining kichik ustaxonalarida metall va toshlarning xususiyatlarini sinab ko'rdilar, bo'yoq va shisha yasadilar. Savdoning o'sishi bilan yevropaliklarning geografik bilimlari ham kengaydi.

XVI asr boshlarida Movarounnahrda ko'chmanchi o'zbeklar hokimiyat tepasiga keladi, Hindistondagi Mo'g'ullar imperiyasi tarkibida temuriylar sulolasi mavjud bo'lib qoladi. Dastlab, bu hodisalar bu mintaqalarning bir-biridan ma'lum darajada izolyatsiya qilinishiga va fors tilidagi adabiyotda mahalliy xususiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Shunga qaramay, madaniy aloqalar deyarli uzilmaydi va ularning intensivligi asta-sekin o'sib boradi.

XVI asrga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan, ta'lim sohasida, umumiy olganda, ijtimoiy hayotda renassans davri bo'ldi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga, albatta, siyosiy jarayon yo'l ochdi. XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr kuchli markazlashgan davlatga aylandi, Sohibqiron Temur va dastlabki temuriy hukmdorlar davri tarixda fan, madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshlagan davr sifatida iz qoldirdi. Shuning uchun ham Sharqdagi ikkinchi Uyg'onish bosqichi shu asrlarga to'g'ri keladi.

XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, arxitektura, adabiyot, madaniyat taraqqiy etgan bo'lsa, Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya, tibbiyot kabi fanlar rivoj topdi. Samarqand hamda Hirot shaharlari madaniy markazga aylandi. Bu davrda ta'lim-tarbiya din bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oliy maktab maqomiga madrasalar erishgan. Buxora, Samarqand va G'ijduvonda uch madrasa qurilib, ular fan taraqqiyoti uchun ilmiy markaz bo'lib xizmat qilgan. Buxorodagi

madrasa peshtoqida ham quyidagi yozuvlarni ko'rish mumkin edi: "Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarz-u farzdir" [2, 157]. Madrasalar ixtisoslashgan bo'lgan. Masalan, boshqaruv kadrlarini tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin Sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroyulkxonim madrasalari ixtisoslashgan edi [3, 134]. Lekin ularning barida Qur'on, Hadis, fiqh ilmi o'rganilgan.

Ijtimoiy jamiyatdagi o'zgarishlardan yana bir muhimi aholining savodxonligini oshirish bo'ldi, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida imkoniyatlar yaratildi. Xususi maktablarga asos solindi, ba'zi amaldorlar muallim yollab, uyda ta'lim olishni ham yo'lga qo'yishdi. Bu davrda maktablarda o'qitish 6 yoshdan boshlangan. Maktabda dastlab harflar o'qish va yzosihdan boshlandi, keyinchalik, savod chiqarishganidan so'ng esa madrasalarga ta'lim olishib, ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni egallashgan.

O'rta asrlarda Eron va O'rta Osiyoda adabiyot "madaniy ish"ning ustun turi bo'lib, madaniy faoliyatning boshqa turlarini ham o'ziga bog'liq qilib qo'ygan. Turli kasb vakillarining barchasi bir adabiy doiraga mansub bo'lishi mumkin edi, shuning uchun ham bu davrda adabiy ta'lim tarbiyaga katta ehtiyoj sezilgan. Adabiyotga muhabbat XV asr o'rtalariga kelib bilimli insonlarni birlashtirdi va o'sha yillardagi ta'lim tizimida poetikani bilish majburiy edi. Ko'rib chiqilayotgan davrda adabiyot ham targ'ibot vositasi, ham fikr va his-tuyg'ularini ifodalash vositasi edi. Shu jihatdan adabiy doiralar faoliyatini o'rganish tanlangan davr Movarounnahr jamiyatining tarixiy-psixologik portretini qayta qurish yo'lidagi muhim qadamdir.

XVI-XVII asrning birinchi yarmida Movarounnahr adabiy doiralar faoliyatini qayta qurishning markazi bo'lib xizmat qilgan. Bu davrni ochib beradigan uchta manba mavjud – Hasan Nisoriyning "Muzakkir-i axbob" (XVI asrning birinchi yarmi uchun), "Tazkirat ash-shuaro" (XVI asrning ikkinchi yarmi uchun) va Mutribiy Samarqandiyning "Ta'rix-i Jahongiriy" (XVI-XVII asrlar).



Bu manbalarda ko'rsatilgan davrdagi Movarounnahr adabiy hayotida u yoki bu tarzda ishtirok etgan olti yuzdan ortiq adiblar tilga olinadi. K.Haraviyning "Majmua ash-shuara-yi Jahongirshohiy" antologiyasi-ning o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, bu asar Hindistonga jo'nab ketgan Movarounnahr shoirlari haqida ma'lumot beradi. Eng so'nggi antologiya Eron-Hind adabiy aloqalarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

She'r va shoirlarning vazifalari ko'p asrlar davomida o'zgarmagan. Va ularni tasvirlaydigan eng yorqin va batafsil suratlar mo'g'ullardan oldingi davr manbalari-dan olingan bo'lsa-da, ularning barchasi deyarli o'zgarmagan holda adabiy asarda aks ettirilgan.

Ko'rib chiqilayotgan davr adabiy hayotining asosiy xususiyatlari "sun'iy" she'r yozishga intilishi va jamiyatning quyi qatlamlari orasida she'riyatning keng tarqalishi edi. Qolaversa, she'rning o'ziga xos kompozitsiyasi va g'azaldan g'azalgacha sarson-sargardon bo'lgan cheklangan obrazlari bilan tez taniladigan so'fiy she'rlar yozish ham katta shuhrat qozondi. O'sha davrda mavjud bo'lgan ikki tillilikni qayd etmaslikning iloji yo'q: ko'plab shoirlar fors va turkiy tillarda bema'lol she'r yozishgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, G'arb bilim saviyasi O'rta Osiyodan ajralmagan holda ravnaq topgan. Ayniqsa, yevropaliklar uchun mavhum bo'lgan ilm sohalar XV asrda osiyoliklar tomonidan batafsil o'rganilgan edi. Bunday ilm sohalariga arxitektura, astronomiya, geografiya, tibbiyot sohalarini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, adabiy qarashlar ham G'arb va Sharqda anchagina farq qilgan. Feodal tuzum G'arb adabiyotida XV asrda ham hukmronlik qilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Ahmedov O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. — T.: O'qituvchi, 1991-yil.
2. K. Xoshimov, S. Nishonova, M. Inomova va boshqalar. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1996. — 488 b.
3. K. Xoshimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi: Darslik. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi anshriyoti, 2005. — 304 b.
4. K. Xoshimov. Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T. 1995-yil.
5. M. Xayrullayev. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy efikrlar tarixidan. T., 1995-yil.
6. N.M. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. — T.: O'qituvchi, 1965-yil
7. O. Musurmonova. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T.: Fan, 1993-yil
8. O. Xasanbayeva, Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: O'qituvchi, 1992. — 208 b.

**Hamid YODGOROV,**  
*GulDU dotsenti*

## SHE'RIY MATNDA DISFEMIZMLARNING O'RN

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilshunosligining leksikologiya bo'limiga tegishli zid ma'noli bo'lmagan leksik birliklar va ularning lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalari doirasidagi evfemizm, disfemizm haqida fikr bildiriladi. Boshqa ma'nodagi so'zlarning evfemistik maqsadda yana boshqa ko'chma ma'nolarda ishlatilishi leksik qo'llash bilan bog'liq lisoniy imkoniyat va jarayondir. Ushbu hodisalar shoir H.Xudoyberdiyeva she'rlari misolida dalillanadi. Shoir Halima Xudoyberdiyeva she'rlari maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

**Tayanch soʻz va iboralar.** Soʻz, soʻz qoʻllash, leksika, evfemizm, disfemizm, madaniy muloqot, maʼnaviyat va b.

Disfemik birliklar muayyan millatning ya-shash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri bilan bog'liq ravishda til va nutqda shakllangan birliklar hisoblanadi. Disfemizmlarning evfemizm bilan o'xshash tomoni shundaki, denotatga ma'lum konnotativ mazmun yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm bilan birdek qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaratiladi.

Evfemizmdning aksi hisoblangan disfemizmd hodisasi ham qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, evfemizmdan farqli o'laroq, kam o'rganilgan. Buning sababini esa, madaniy muloqot me'yorlaridan izlash muhim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo'lmagan birlik sifatida qaralgan.

Odatda tilshunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalinmay, unga evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berilib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yartseva tahriri ostida chop etilgan "Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar"ni olish mumkin. Unda evfemizm xususida so'z ketganda yo'l-yo'lakay "uslubiy va emosional betaraf so'zni nisbatan qo'pol, noqulay so'z bilan almashtirish" deya ta'riflanadi [1].

Disfema – denotatga sub'ektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Bu, albatta, unga adabiy tilda o'rin yo'q deyishga asos bo'la olmaydi. Disfemik ma'noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu jihatdan o'rganishga, tahlil va talqin etishga, qolaversa, tasnif etishga asos yo'qligini, maqsad noma'lum ekanligini, ehtiyoj sezilmasligini ko'rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham, disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama-qarshi – zid vosita sifatida qaraladi [2].

Ma'lumki, bugungi o'zbek adabiy tili qat'iy me'yorga solinib, qulay ko'rinishga keltirilgan mezonlar asosida ish ko'radi. Gap badiiy asar tili haqida borganda



bu mezonlarni chetlab o'tish hollari ko'zga tashlanadi. Ijodkor kechinmalarining asl holida moddiylashtirilishi shuni taqozo etadi. Bu haqda Ozod Sharafiddinovning "Olamning qalbi" nomli kitobida shunday deyiladi: "Bunday she'riyat hamisha shoirning noyob tiliga bog'liq. Bu til nafaqat shoirning ona tilidir, balki shoirning shaxsiy tili hamdir" [3].

Halima Xudoyberdieva ijodini kuzatar ekanmiz, dis-femik birliklardan ham badiiy matnni shakllantirishda unumli foydalanganligini ko'ramiz[4]. **"Neniki ko'rdim kecha..."** she'riga e'tiborni qaratamiz:

Ojiz, go'lliging ko'rdim,  
Bir-birin **g'ajib**, egan  
Nojins **qulliging** ko'rdim,  
Negayam ko'rdim, nega?!

Odatda **g'ajjimoq** leksemasi ko'pincha mushuk, it va, umuman, hayvonlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur leksemadan boshqa ijodkorlar ham stilistik figura sifatida foydalanganligini quyidagi misollar tasdiqlaydi:



Ko'chada yotgan suyakni qaysi it g'ajimaydi! (A.Qahhor. Og'riq tishlar). Agar mazkur termin odamga nisbatan ishlatilsa, asosan salbiy ma'no tashishga xizmat qiladi: Qo'yib bersa, hozir ular bir-birini g'ajib tashlashga tayyor edilar, ammo cho'tir kishining amirona vazmin ovozi ularni bosib qo'ydi (H.Tursunqulov. Hayotim qisasi).

"O'zbek tilining izohli lug'ati" (M., 1981) da "g'ajimoq" fe'liga shunday izoh berilgan: Suyak, qattiq non va shu kabilarni kemirib yemoq, mujimoq (ko'pincha it, mushuk, yirtqich hayvonlar haqida). Shoir xalqimizning kechagi (yaqin o'tmishdagi) ayanchli kunini obrazli tasvirlar ekan, uning o'z haq-huquqi masalasida ojiz ekanligini, o'z taqdirini o'zi belgilashda tarqoq ekanligini, shu bilan birga, go'lligini, soddaligini ayanch bilan tasvirlaydi. Shunday paytda bir millat bo'la turib, bir-birini sotgan, bir-biriga xiyonat qilgan kimsalardan, birining go'shtini ikkinchisi g'ajigan odamlardan nafratlanadi. Shoir bunday ko'rinishni qullik bilan tenglaydi, bunday manzarani ko'rganligidan, guvohi bo'lganligidan, **"neniki kecha ko'rganligidan"** afsuslanadi.

Ma'lumki, **"g'ajimoq"** fe'li sememasida **"yemoq"** semasi mavjud. Shunday bo'lsa-da, shoir ikki leksemani yonma-yon qo'llaydi. **"Yemoq"**ga nisbatan **"g'ajimoq"**da ma'no kuchli ifodalanadi. Shoir **"g'ajimoq"**ni qo'llash bilan o'z poetik niyatiga erishgan, chunki g'ajish odamiylikka xos xislat emas.

Ijodkor misralarda **"ko'rmoq"** fe'lini takror-takror qo'llash bilan bunday ayanchli manzarani ko'rish qanchalar azob ekanligini kitobxon ruhiyatiga singdirishga harakat qilmoqda. Toki bunday illatlar odamiylikka yot ekanligini ular bilishsin.

Mazkur she'rning keyingi bir parchasi shunday boshlanadi:

*Go'rimda ham kuyar oy  
Sovurilib yotarman.  
Ko'rganlarim unutmay  
Qovurilib yotarman.*

Mana individuallik, mana mahorat, mana o'ziga xos yondashuv. Halima Xudoyberdieva asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ijodkorning novatorligiga guvoh bo'lamiz. Har qanday yoqimli narsa, yoqimli so'z odamga yoqadi, kayfiyat bag'ishlaydi. Lekin aksi bo'lsa-chi? Odatda har qanday odamga *qabriston*, *mozoriston*, *go'riston* degan so'zlar xush kelavermaydi. Bu joyni evfemik ifodalash ana shunday **sovuq** tushunchani anchayin yumshatadi. Lekin ijodkor bu safar unday qilmaydi, narsani o'z oti bilan aytib, **go'r** so'zini ochiq qo'llaydi. Bu bilan lirik qahramonning o'sha paytdagi ruhiy holatini, ichki kechinmasini bor bo'yi bilan ko'rsatishga intiladi. Voqelikni silliq, yumshoq ko'rsatish ijodkorning ruhiy holatini to'liq ifodalay olmasligini his qiladi.

Garchi **sovorilmoq**, **qovurilmoq** leksemalari ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, u shaxsning kechinmalari bilan bog'liq. Har ikki leksema ko'chma ma'noda

salbiy ma'no tashishga xizmat qiladi. Har qanday behudaga sarflangan vaqt, pul, ishga nisbatan **sovorilmoq** leksemasi ishlatiladi. Xalqimizda "o'z yog'iga o'zi qovurilmoq" degan ibora bor. Inson uchun qovurilish – og'ir, azob. Ichki kechinmalarni bundan ortiq ifodalashning imkoni yo'q. Shunday ekan, shoir mazkur so'zlarni badiiy matnga mahorat bilan olib kirgan va poetik individualligini namoyish qilgan.

Halima Xudoyberdieva she'rlarining poetik tilini o'rganar ekanmiz, adabiyotshunos D.Quronovning "Adabiyotshunoslikka kirish" kitobidagi quyidagi jumlar diqqatimizni tortadi: "Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan normadan og'adi (ya'ni til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo'llaydi) va shu "og'ish"dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida – fonetik, leksik, morfologik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin" [5]. Shoir she'rlarida ham yuqorida sanab o'tilgan og'ishlar natijasida tilning poetikligiga erishiladi. 1990-yilda yozilgan **"Biz o'tarmiz. Es-lar ul, qiz"** she'ridan parcha keltiramiz:

*O, ona Sharq, ona Sharq-sen,  
Bugun fitna, qonga g'arqsen.  
Merosxo'rlarim manqurt deb,  
Moziydagi bilim yig'lar*

Shoir mazkur she'rida vulgarizmlardan, dialektizmlardan, arxaik grammatik vositalardan unumli foydalanadi. Ma'lumki, **fitna**, **qon to'kish**, **manqurt** kabi birliklar sovuq tushunchalarni tashiydi. 1990-yillardagi ayrim Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro qon to'kishlar, janjalli voqealar ijodkorga tinchlik bermaydi. Fitna bor joyda qon to'kiladi, fitna bor joyda yovuzlik hukmron bo'ladi, fitna bor joyda og'a inisiga g'ananim bo'ladi. Shoir bundan tashvish tortadi, so'ngsiz savollariga javob izlaydi. Dunyoning dunyo bo'lishiga ulkan hissalarini qo'shgan moziydagi turkiy allomalar "merosxo'rlarim manqurt" deb yig'layotganlarini katta afsus bilan yoza-di. Vaholanki, **"manqurt"** termini o'zligini bilmaydigan, o'tmishi yo'q, itoatkor kishiga nisbatan ishlatiladi. Faqat o'zligini bilmaydigan qavmlargina bir-biriga tosh otishi mumkinligini badiiy mahorat bilan matnga olib kiradi.

Ma'lumki, evfemizmning bosh unsuri – xushmuomalilik. **"O'lim"** singari shunday xunuk, yoqimsiz bir tushunchani shoir shaklan boshqa, mazmunan bir bo'lgan evfemik vositalarni qo'llab, har bir she'rida takrordan qochib, turlicha ifodalaganligini ko'ramiz. Quyidagi parchada ham **o'lmoq** tushunchasini **"biz o'tarmiz"** shaklida evfemik qo'llab, poetik to'kislikni ta'minlagan. Vazn talabiga ko'ra, **o'g'il** so'zini sheva imkoniyatlaridan foydalangan holda **ul** tarzida matnga olib kirgan, **bul** va **shul** olmoshlarini arxaik qo'llab, go'zal bir she'riy imoratni yarata olgan.

Shoir uchinchi va to'rtinchi misralarda turkiy qavmlar o'rtasidagi nizolardan jabr tortgan o'zbek va

qirg'izlarning ahvolini tasvirlashda disfemik birliklardan ham foydalanadi. Bunday fojiali, achinarli holatni o'z oti bilan aytishni ma'qul topadi va badiiy matnga **sho'rlik o'zbek, sho'rlik qirg'iz, o'lim yig'lar** kabi disfemizm-larni olib kiradi:

*Biz o'tarmiz. Eslar ul, qiz,  
 Bul asrdan qolgay shul iz.  
 Sho'rlik o'zbek. Sho'rlik qirg'iz.  
 Qoq o'rtada o'lim yig'lar.*


Mustaqillik bergan ne'matlar cheksiz. Ularni sanab adog'iga yetish qiyin. Lekin o'tgan feodal jamiyatida, sobiq Sho'rolar davrida har bir ijodkor o'zidan nimalar o'tganini o'zi yaxshi biladi. Halima Xudoyberdieva 1991-il aprel oyida Abdulla Oripovga bag'ishlab, "**Shoir nomi**" nomli she'rini yozadi. Mazkur she'rdan parcha keltiramiz:

*Qodiriyning qonlarini obdon ichib to'ydilar,  
 Hanuz bilmam men Usmonni otdilarmi, so'ydilar,  
 Nasimiyning terisini shilib, ko'zin o'ydilar,  
 Endi bildim, nechun sening ko'zing kulmas, og'ajon,  
 Ko'zlaringda "xalqim" degan sezim kulmas, og'ajon.*

O'tmishda xalqimizning yetuk farzandlari, olimu fuzalolari qanday yashaganliklari, qanday ijod qilganliklari, erk deganning quli bo'lganliklarini ochiq namoyon qilish uchun, kitobxonga bor bo'yi bilan ko'rsatish uchun, tarixni to'g'ri yoritish uchun shoir matnga **qoni-ni ichmoq, otmoq, so'ymoq, terisini shilmoq, ko'zi-ni o'ymoq** kabi yoqimsiz birliklarni olib kiradi. Bunday birliklar o'rnida silliq, yumshoq, muloyim eshitiladigan birliklarni qo'llash mumkin edi, biroq bunday yondashuv tarixiy haqiqatni bu darajada yoritmagan bo'lardi. Kitobxon she'rni o'qir ekan, o'tmishning jirkanch sahifalari uning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi, xalqimizning ayanchli tarixini chuqur anglab yetadi, adolat va haqiqat yo'lida adashmaydi.

Shu o'rinda polyak yozuvchisi Yan Parandovskiyning quyidagi gaplarini eslashni ma'qul topamiz: "Darhaqiqat, yozuvchining yozuvchiligi u tanlaydigan badiiy vositalarda namoyon bo'ladi – bu vositalar yozuvchi ko'rsatmoqchi bo'lgan taassurotlarni imkon qadar keng va teran qo'zg'atmog'i yoxud chiqarmog'i mumkin bo'lsin"[6].

Xalq tili misoli bir buloq ekanligi ma'lum. Lekin bu buloqdan hamma ijodkor ham birdek suv icha olmaydi. Shoirada so'z tanlash iqtidori shunchalar kuchliki, bu so'zlardan da'vat, chaqiruv, undash hidlari ufarib turadi.



She'riy matndagi har bir so'z odamning ruhiyatiga ta'sir qiladi, nimagadir undaydi, o'ylantiradi, ogohlikka, insofga, birdamlikka chorlaydi. Qo'llanayotgan har bir so'z odamga mas'uliyat yuklaydi, go'yo sening harakatinga, faoliyatingga, o'tmishingga baho berayotganday jaranglaydi. Uning she'rlarida vatanparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik, odamiylik, ezgulik, sadoqat ulug'lanadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir Halima Xudoyberdieva o'z ijodida disfemik birliklardan badiiy vosita sifatida umumli foydalangan. Bunday birliklar voqelik, shaxs yoki narsa haqida yorqin tasavvur uyg'otish, shuningdek, o'quvchida kuchli taassurot qoldirish hamda o'zining munosabatini ochiq namoyon qilish maqsadining amalga oshishiga imkon yaratgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С.26.
2. Рахимова Д. Поэтик тилда муаллиф "мен"ининг акс этиши. ЎТА, 2016. 4-сон. 97-101-бетлар.
3. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. –Тошкент: Маънавият, 2014. 220-б.
4. Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2020.
5. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. 122-б.
6. Парандовский Я. Алхимия слова. – Варшава, 1951. – С.13.

**Маъсума Мўминова**  
*Қарши давлат университетининг*  
*Педагогика институти ўқитувчиси,*  
*ТошДўТАУ мустақил изланувчиси*

## “СУВ” КОМПОНЕНТЛИ БИРЛИКЛАРНИНГ АНТРОПОЦЕНТРИК ТАДҚИҚИ

**Аннотация.** Ушбу мақолада “Сув” компонентли лисоний бирликларнинг антропоцентрик асосда ўрганилиши, дунё тилшунослигидаги мавзуга оид тадқиқотлар таснифи, таҳлиллари келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар.** Лексема, антропоцентрик, аспект, семантик структура, фразеологизм, сув, қиёсий-тарихий метод, лексема, синхрон аспект, лингвокултурологик аспект, семантик, сема, концепт.

Сув ҳақида сўз борганда, сувнинг табиатдаги энг бебаҳо хазина эканлиги, табиат мўжизаси ва кашфиёти эканлигини эслаш лозимдир. Инсоният тарихидаги энг йирик цивилизацияларнинг вужудга келиши, шаҳарларнинг барпо бўлиши ҳам дарё ўзанлари ва сув ҳавзалари атрофида юзага келган. Қадимги юнон, римликлар манбаларида табиатнинг инсон ва унинг табиати, темпераментини белгилашда сув, ҳаво, тупроқ, унсурларнинг миқдорий кўрсаткичлари муҳим аҳамиятга эга эканлиги ҳақидаги назарияларни илгари суришган, замонавий тиббиёт ва психологияда ҳам унинг тетиклаштирувчи, тинчлантирувчи кучи ҳақидаги қарашлар бор. Дунёнинг аксар тилларида тушунча “ҳаёт”, “тириклик”, “ҳаёт” сингари сўзлар билан ассоциация ҳосил қилади. Сув сўзининг лингвокултурологик хусусиятлари турли маданиятларда тушунчани ўзаро қиёслаш асосида кўринади.

Рус тилида ҳам лексеманинг семантик таркиби ва ўзига хос хусусиятлари хусусида кўплаб изланишлар яратилган. Т.В.Мирзаеванинг “Семантический объем лексемы вода в поэзии Вячеслава Иванова: “Кормчие звезды” номли мавзусидаги диссертациясида сув лексемасининг семантик кўлами, лексеманинг мифопоетик (оламнинг яратилиш хусусидаги қадимги афсона, ривоят ва халқ оғзаки ижодидаги бошқа кўринишлари) маъноси ва семалари, халқ маросимлари, зодагон ва сарой муҳитидаги ўрни ва у билан боғлиқ семалари ва фалсафий моҳияти ҳақида сўз юритади. Асардаги сув лексемасининг семантик қуршовидан келиб чиққан ҳолда: сув – мавжудлик, макон; сув – оҳанг; сув – оламлараро мулоқот воситаси; сув – ойна парадигмаларини ажратади.

Жаҳон тилшунослигида “Сув” сўзининг грамматик хусусиятлари кўрсатилган бир неча тадқиқотлар яратилган бўлиб, асосан, сўзнинг валентлиги, частотаси, қўлланиш ўрни ва хусусиятлари ҳақида сўз боради. Систем-структур йшналишда сув сўзи ва унинг валентлиги масаласи алоҳида бир мавзу. Аксар дунё тилларида сўз жуда катта валентлик имкониятларини кўрсатади. Хусусан, “The lexeme in descriptive and theoretical morphology” асарида алоҳида урғу берилган. Манбага кўра ҳар бир лексема морфологик бирликлар ва уларнинг моҳияти

юзага чиқиши учун катта имконият. Сув лексемаси ҳам бундан мустасно эмас. У аксар сўз ва шакл ясовчи категорияларни тўғридан-тўғри қабул қила олади. Мазкур таърифни ўзбек лисоний манзарасидаги “сув” лексемасига нисбатан ҳам талқин қилиш мумкин.

Сув компонентли бирликларнинг антропоцентрик тадқиқида лингвокултурологик аспект муҳим ўрин тутати. Сув лексемасининг семантик структураси имкониятлари шу қадар кенги, уни ҳатто сувнинг ташқи белгилари ўхшаш бўлмаган ҳодисаларга нисбатан қўллаш мумкин. Бир тилдаги сув компонентли бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари, бошқа тиллар билан муштарак, хусусий жиҳатларини кузатишда мазкур тилларни ўзаро қиёслаш самарали усуллардан бири ҳисобланади. Сув ва сув компонентли бирликларда қиёсий ва чоғиштирма метод асосида амалга оширилган ишларнинг салмоғи юқори. Жумладан, Ван Хунвейнинг “Фразеологизмы с элементом “вода” в русской лингвокультуре на фоне китайского языка: лингвокультурологический подход” [17], “Стихийный код культуры в русской и китайской лингвокультурах (на материале фразеологизмов с элементом вода) [19], “Стихийный код культуры и формировании русской и китайской языковых картинах мира (на материале фразеологизмов с компонентами “вода” и “огонь” [18]; Т.И.Бадмаеванинг “Концепт “вода” в английской лингвокультуре” [20], Д.Д.Хайруллинанинг “Бинарные концепты “Огонь” и “Вода” как фрагмент языковой картины мира: на материале английского и татарского языков” каби изланишларида ўз аксини топган. Шу ўринда лингвокултурологик аспектда сув компонентли бирликлар тадқиқини бир неча йшналишларга ажратиш мумкин. Биринчи гуруҳ тадқиқотларида сув лексемаси ва сув компонентли бирликлар маданиятлараро, тиллараро таҳлил қилинади. Иккинчи гуруҳ тадқиқотларида сув компонентли бирликлар бир тил доирасида белгилаб олинади ва дихотомик тарзда “олов” компонентли бирликлар билан зид қўйилиб ўрганилади. “Сув” ва “Олов” дихотомияси дунёнинг аксар маданий, бадий манбаларида бирга, бир-бирин тақозо ва инкор қилувчи ҳодиса сифатида келтирилади. Оламнинг



яралиши ҳақида ҳикоя қилувчи мифопоэтик асар намуналарида мазкур икки унсур олам яралишининг асосида туриши, вайронкор ва бунёдкор табиати хусусида сўз боради. Қадим даврлардан тортиб ер ва унинг моҳиятини очиш, унинг асосий элементларини белгилаш моддиончилар томонидан илгари суриб келинган, тинимсиз баҳс-мунозараларга сабаб бўлиб келган мавзулардан бири ҳисобланади. Турли халқларда ушбу моддалар тўғрисида ўз қарашлари бўлган. Қадимги Юнон, Миср, Форс, Бобил, Япония, Ҳиндистон маданий цивилизацияларида оламнинг асосий тўрт унсури ҳақидаги қарашлар шаклланган. Кейинчалик бешинчи унсур ҳақидаги назариялар кенг тарқалиб, халқлар бешинчи унсури ўз маданияри учун зарур бўлган модда билан тўлдиришга ҳаракат қилганлар. Жумладан, хитойликлар бешинчи элемент сифатида ёғочни, ғарбликларни шамолни талқин қилиб келганлар.

Д.Хайруллина олам ўзагига қўйилган икки унсур сув ва оловни лингвокультурологик аспектда таҳлилга тортар экан, қардош бўлмаган инглиз ва татар маданиятида, лисоний манзарасидаги кодларини қиёслар экан, улар ўртасидаги умумий ва хусусий семаларни ёритишга ҳаракат қилади. Татар тили туркий тиллар оиласига мансуб бўлганлиги боис икки лексеманинг номинатив ва семантик жиҳатларида ўзбек тили билан ўхшашликлар кўзга ташланади. Бизнингча, ўзбек тилида ҳам “сув”и ва “олов” копмонентли бирликлар семантикасини ёритишга қаратилган тадқиқотлар эҳтиёжи бор. Чунки сув компонентли бирликларнинг аксариятида олов лексемаси билан зидланиш ҳолати бор. Татар тилидаги сув лексемасининг ўзбек тили тизимидаги сув билан ҳам ташқи, ҳам маданий алоқадорлиги борлигини инобатга олган ҳолда Д.Хайруллиннинг изланиши ва хулосалари ўзбек тили учун ҳам аҳамиятли деб ҳисобладик. Тадқиқотчи ўзаро қардош бўлмаган инглиз ва татар тилидаги “fire” – инглизча олов ҳамда “ут” – татарча олов сўзларини таҳлилга тортади. Ҳар икки сўзни таҳлил қилиш баробарида идентификатор семаларни белгилаб олади. Тадқиқотчига кўра, “fire” ва “ут”даги бош, лексеманинг ядро ўзагини ташкил этувчи семалар – “жараён”, “моддийликка эгалик”, “тартибсизлик” семалари

ридан иборат. Борлиқдаги хоссаларини ифодаловчи семалари – “иссиқлик берувчи”, “нур берувчи”, “ёнғин”, “ўт очувчи”; ташқи, деннотатив семалари – “қизғиш”, “баланд ҳарорат”, “ёруғлик”, “тиниклик”, “жилваланувчи”, “ялтироқ”, “қамраб олувчи”; коннотатив семалари – “куч-қувват”, “энергия”, “тириклик”, “ҳиссиёт”, “гуноҳ” ва “авж олмоқ” – “алангаланмоқ”, “тутамоқ” семаларидан иборат. Тадқиқотчи ҳар икки тил доирасида сўзнинг грамматик хусусиятларига асос қўйиб ясалувчи янги сўзларга диққатини қаратади. Сўзнинг ядровий, ижтимоий, коннотатив ва деннотатив семалари саналар экан, ҳар икки тилда улар орасида муштараклик борлигини қайд этади, лекин “fire”да ҳам, “ут”да ҳам тилнинг ички имкониятлари асосида юзага келган қўшимча семалар мавжудлигини таъкидлайди. Хусусан, инглиз тилидаги “fire”да “иссиқлик таратиш” семаси бироз бошқачароқ, сўз шу маънода қўлланилганда, “олов билан ишловчи асбоб-учкуна” ва “ўзи ҳам ёнадиган манба” (ёғоч, ёқилғи) маъноларини ҳам акс эттиради. Бундан ташқари, ёниш жараёни ва манбасидан иборат – гулхан сўзи танқид маъносини ҳам ифодалайди. Сўзнинг татарча муқобили хусусида сўз борар экан, сўзнинг татар маданиятида уруш (ўтга кирмоқ – урушга кирмоқ), ўт – муқаддаслик, қирлиқдан тозалаш, салбий ҳодиса ёки предметни ўт билан куйдириб тозалаш, поклаш, “кўзларни қамаштириш” семалари борлигини айтади.

Бундан ташқари, татар тилида ҳам “ут” сўзининг омонимлик хусусиятига эга эканлигини, “яшиллик”, “ўсимлик” маъноларини ифодаловчи сўз билан шаклан бир хиллигини айтади.

Хулоса ўрнида шу айтиш мумкинки, сув дунё тилшунослиги ўз тажрибасида босиб ўтган барча тилшунослик парадигмалари учун муҳим, асосий тадқиқ манбаларидан бири вазифасини ўтаб келган. Унинг инсон ҳаётидаги аҳамияти, тириклик билан алоқадорлиги кўплаб рамзий, образли талқинларининг келиб чиқишига асос бўлган. Сув сўзининг семантик универсаллик хусусияти унинг грамматик имкониятларининг кенгайишига ҳам йўл очади. Дунё тилларида сув лексемаси асосий грамматик категория сифатида талқин қилинган шаклларни қабул қила олади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 ноябрдаги ПФ-6084-сонли “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // lex.uz.
- Закиров М.И. Концепт вода/су в русских и татарских народных приметах: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2009. 261 с.
- Мирзаева Т.В. Семантический объем лексемы вода в поэзии Вячеслава Иванова: «Кормчие звезды» Дисс... канд. филол. наук. – Тамбов, 2008. 252 с.
- Айчичек М. Репрезентация концепта вода фразеологической картине мира ( на материале русского, турецкого и английского языков). Авто. .. канд. филол. наук. – Уфа, 2012. 26 с.
- Шмелёва Е.Е. Лингвокультурологические особенности морской лексики в английском языке. Авто. .. канд. филол. наук. – Москва, 2009. 23 с.
- Седова М.А. Концепт Aghe/ вода во фриульском языке. Авто. .. канд. филол. наук. – Москва, 2007. 27 с.
- Вражнова И.Г. Идиоматика в когнитивном и лингвокультурологическом аспекте ( на материале фразеологических единиц с компонентами семантического «вода» в русском и английском языке). Авто. .. канд. филол. наук. – Саратов, 2004. 28 с.
- Хайруллина Д.Д. Бинарные концепты «огонь» и «вода» как фрагмент языковой картины мира ( на материале английского и татарского языков). Авто. .. канд. филол. наук. – Казань, 2009. 25 с.

Dildora Pulatova,  
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o'qituvchisi

## MUROJAAT SHAKLLARINING IFODALANISHIDA NOLISONIY VOSITALARNING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilida insonlar orasidagi muloqot jarayonida qo'llaniladigan murojaat shakllarini yangicha aspektida tadqiq qilish, ya'ni pragmatik, yoki sotsiopragmatik tadqiqi nutqning faqat lisoniy xususiyatlarini ochib beribgina qolmasdan, nutq jarayonida murojaat shakllarining ijtimoiy funksiyasi, turli xil jihatdan xoslanishi, nutq jarayonida murojaat shakllarining milliy tafakkur va milliylik bilan aloqadorligi, nutqning madaniyat bilan aloqadorligi kabi ko'plab jihatlarini atroflicha yoritilgan. Lisoniy va nolisoniy vositalar muloqot jarayonida aloqa-aralashuv holati, kommunikantlarning o'zaro munosabatlari, suhbat mavzusi, muloqotning mohiyati va vaziyatidan kelib chiqqan holda qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sotsiopragmatika, sotsiolingvistika, pragmatik yondashuv, pragmatika, kommunikatsiya, murojaat shakllari, murojaat birliklari, murojaat vositalari, nutqiy vaziyat, so'zlashuv nutqi, lisoniy vositalar, nolisoniy vositalar, verbal va noverbal vositalar.

Murojaat birliklari nutqiy etiketning, nutq jarayonining ajralmas va hal qiluvchi bir qismi bo'lib, u tinglovchining e'tiborini tortibgina qolmay, uni baholash-xarakterlash, ya'ni so'zlovchining shaxsiy munosabatini ham ifodalash xususiyatiga ega. Har bir tildagi murojaatlar o'zida o'sha xalqning qadriyatlari, urf – odatlari, milliy o'zligi, shuningdek, o'ziga xos nutq madaniyatining nozik jihatlarini ko'rsatib beruvchi nutq birliklaridir. Bunday birliklar yoshga, jinsga, ijtimoiy mavqega, tanish-notanishligiga ko'ra qo'llanishi bilan farqlanadi.

Murojaatda ko'pincha shaxsning nominatsiyasi ko'rinadi, shu sababli nutqiy odatda murojaatga e'tibor katta ahamiyatga ega. Murojaatda aksar hollarda adresatning kasbi, xizmat yuzasidan jamoa orasida tutgan o'rni, yoshi va jinsi kabi belgilar ko'rinadi. Murojaat turli yo'nalishlar tomonidan o'rganilgani sababli ularning vazifasi ham turlicha ko'rsatiladi. Murojaat shakllari suhbatdoshlarning ijtimoiy munosabatalarini ularning ijtimoiy jihatdan tartibga soluvchi vazifalari asosida belgilaydi. Murojaat shakllari o'zlarining uslubiy vazifalariga ko'ra muloqot ohangini, aloqa- aralashuvning funksional sohasini ifodalaydi.

Tilshunoslikda murojaat so'zlar gapning grammatik jihatdan mustaqil va intonatsion jihatdan ajratilgan tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Murojaatni o'rganishga pragmatik yondashish uning ko'p funksionalligini ochib berishga imkon beradi. Nutq madaniyati, nutq jarayonlarini maxsus lingvistik planda tekshirishni Praga tilshunoslik maktabi vakillari boshlab berishdi.<sup>1</sup> O'zbek tilshunos olimlaridan S.Mo'minov o'z tadqiqotida birinchilardan bo'lib nutq madaniyatiga ijtimoiy-lisoniy aspektida yondashgan.<sup>2</sup>

Muloqot faqat nutqiy yo'l bilan emas, balki nolisoniy vositalar bilan ham amalga oshadi. Aloqa aralashuv jarayoni va uning kommunikantlar tomonidan idrok etilishi masalasi tilshunoslikda pragmatik yo'nalishning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Pragmalingvistika tilni tadqiq etishda til birliklarini shu tildan foydalanuvchi shaxs yoki shaxslar bilan munosabati asosida o'rganadi. Pragmatika yoki pragmalingvistika ham tilshunoslikda paydo bo'lgan yangicha tadqiq aspekti deyishimiz

mumkin.

Xususan o'zbek tilidagi murojaat shakllarining pragmatik talqinida murojaat shakllarining deydik vazifalarini, presuppozitsion xususiyatlarini, murojaatlarni ifodalashda noverbal vositalarning o'rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Pragmatika so'zlovchining moddiy borliqqa, xabarning mazmuniga, adresat (tinglovchi)ga bo'lgan munosabatini ifodalash ekan so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ aktdagi ishtirokida gap ohangi (ishonch, qat'iyat, dadillik, qo'rquv, ishonchsizlik, gumon, hadik, xursandlik va boshqalar), lug'aviy birliklardan foydalanish, noverbal vositalarni qo'llash kabi kommunikativ unsurlar ahamiyatli sanaladi va kommunikantlar haqida qo'shimcha xabar beradi.<sup>3</sup>

Til birliklarining pragmatik vazifasi kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlashuvchilarning til ko'nikmalari va nutq ob'yekti haqidagi umumiy bilimlar bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi.<sup>4</sup>

Nutqiy muloqotda pragmatik mazmun oydinlashishida nutq, so'zlanayotgan mazmun, vaziyat, so'zlovchi va tinglovchining ma'nan, ruhan, aqlan yaqinligi kabi omillar ham yordamga keladi.<sup>5</sup>

O'zbek tilida insonlar orasidagi muloqot jarayonida qo'llaniladigan murojaat shakllarini yangicha aspektida tadqiq qilish, ya'ni pragmatik, yoki sotsiopragmatik tadqiqi nutqning faqat lisoniy xususiyatlarini ochib beribgina qolmasdan, nutq jarayonida murojaat shakllarining ijtimoiy funksiyasi, turli xil jihatdan xoslanishi, nutq jarayonida murojaat shakllarining milliy tafakkur va milliylik bilan aloqadorligi, nutqning madaniyat bilan aloqadorligi kabi ko'plab jihatlarini atroflicha yoritishga imkon yaratadi.

Ma'lumki, ikki kishi o'rtasidagi suhbat – bu dialogik nutq sanaladi. Aslida har qanday nutqiy jarayon ikki xil usulda amalga oshadi. Birinchisi, tildagi lisoniy vositalar: so'z, gap orqali, ikkinchisi har bir tilda o'ziga xos mazmun va funksiyaga ega bo'lgan nolisoniy, ya'ni noverbal vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu vositalar alohida-alohida yoki bir vaqtning o'zida parallel qo'llanilishi mumkin. Bunday lisoniy va nolisoniy vositalar muloqot

jarayonida aloqa-aralashuv holati, kommunikantlarning o'zaro munosabatlari, suhbat mavzusi, muloqotning mohiyati va vaziyatidan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.

Yozma nutqga nisbatan og'zaki nutqda axborot adresatga tez va aniq, sodda va ixcham tarzda yetkazib beriladi. Ba'zan dialogik matnlarda so'z, gap, ba'zida esa butun matn ellipsisga uchrashi (qisqarishi) yoki shu lisoniy vositalar o'rini to'ldira oladigan noverbal vosita bilan almashtirilishi mumkin.<sup>6</sup>

Ko'pincha badiiy adabiyotlarda beriladigan dialogik matnlar, qolaversa, og'zaki nutqdagi diskurs tahlillar shuni ko'rsatadiki, muloqot ishtirokchilari tomonidan nutqiy muloqot jarayonida qo'llaniladigan nolisoniy vositalar, ya'ni *bosh harakatlari, tana harakatlari, qo'l harakatlari, ko'z harakatlari, sukut* kabi noverbal vositalar izohlash, to'ldirish, ta'kidlash, aniqlik kiritish, ma'qullash, rad qilish kabi maqsadlarda foydalaniladi va ushbu qo'shimcha ma'no ottenkalarini ifodalaydi. Muloqot jarayonida qo'llaniladigan nolisoniy vositalardagi kommunikativ mazmun verbal murojaat shakllari orqali anglashiladigan mazmundan deyarli farq qilmaydi, aksincha, noverbal vositalar orqali ifodalangan mazmun emotsional jihatdan verbal vositalarga qaraganda yorqinroq va ta'sirchanroq ko'rinishga ega bo'ladi deb aytishimiz mumkin. Ba'zi hollarda esa avval noverbal vosita, keyin esa shu noverbal vositaga mos lisoniy vositalar tanlanadi. Masalan:

*Bolalar yo'ldan kelayotgan ustozini ko'rib, yo'l chetiga o'tishdi, qo'lini ko'ksiga qo'ydi:*

– *Assalomu alaykum, ustoz!*

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muloqot jarayonida murojaatning ifodalanishi tasdiq, inkor, ta'kid kabi shak-

llardan sezilarli farq qiladi. Masalan, murojaat jarayonida tasdiq yoki inkorni ifodalash uchun lisoniy vositadan ham, nolisoniy vositadan ham bir xilda foydalanish mumkin. Ya'ni tasdiq yoki inkor ma'nosini *xo'p, mayli, albatta, bo'пти* so'zlari bilan ham, yoki birgina bosh irg'ab qo'yish bilan ham ifodalash mumkin. Lekin murojaatning bunday birgina noverbal vosita yordamida ifodalanishi ancha kam kuzatiladigan holat hisoblanadi. Ba'zan murojaatni ifodalash uchun birgina noverbal vosita yetarli bo'lishi mumkin. Masalan, uzoq masofada turgan farzandga murojaat qilish jarayonida "*O'glim, bu yoqqa kel*" degandek qo'l harakati yordamida imo qilish orqali ifodalash mumkin. Lekin aksariyat hollarda murojaat ifodalash uchun lisoniy va nolisoniy vositalar birgalikda ishtirok etadi. Ijtimoiy jamiyatda insonlarning o'zaro muloqot jarayonlarini yoki badiiy adabiyotlardagi dialogik matnlar tahlili natijalariga ko'ra shuni aytish mumkinki, avval noverbal vositadan: bosh irg'adi, bosh chayqadi keyin esa uni izohlash, to'ldirish maqsadida lisoniy vositalardan foydalanish mumkin. Ba'zida murojaatni faqat noverbal vosita orqali ham amalga oshirish mumkin. Masalan,

*Tadbirida o'tirgan o'quvchilar biroz shovqin ko'targanliklari sabab ustoz ularga: "o'quvchilar, jim bo'linglar!", – deb so'z bilan aytmadi, shu "o'quvchilar, jim bo'linglar!" so'zi bajaradigan funksiyani birgina ishoraga yukladi. Murojaat jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalar bir-birini to'ldirib, izohlab, ta'kidlab keladi. Imo-ishoralar, mimik ifodalarning qo'llanilishi nutqni ixchamlashtirish, mazmunan to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu vositalarning birgalikda qo'llanishi ba'zi hollarda ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun ham xizmat qiladi.*

1. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. dokt. diss. T, 2000. 8-bet.
2. Qarang: Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. dokt. diss. T. 2000. 8-bet
3. Saidxonov M. Badiiy matn kommunikativ vosita sifatida // O'zbek tili va adabiyoti, 2009 yil, 5-son, 77-79 betlar.
4. Lutfullayeva D., Jumayev F. O'zbek tili fe'llarining pragmatik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2008 yil, 2-son, 74-76 bet.
5. Karimova F. Dialoglarda pragmatikaning roli // Til va adabiyot ta'limi. 2006 yil, № 3, 27-29 betlar.
6. Saidxonov M. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili // O'zbek tili va adabiyoti, 2004 yil, 4-son, 70-bet

**Аҳаджон Муҳаммадиев,**  
филология фанлари номзоди, доцент  
Шаҳрисабз Давлат педагогика институты

## МУҲЙИНИНГ ТУРКИЙ ДЕВОНИ МАНБАЛАРИ

(композиция ва жанр тадқиқи)

**Аннотация.** Мақолада Муҳйининг туркий девони илмий тадқиқ этилган. Девон композицияси ва ундаги жанрлар илмий-қисий ўрганилган. Тадқиқот туркий девоннинг манбалари ва матний хусусиятлари негизда амалга оширилган.

Муҳйи девонларининг ЎзФАШИ қўлёзмалар бўлимида 1303 инвентар рақами билан сақланаётган нусхаси номукамал [5]. Девоннинг 1911 йилда Тошкентда нашр этилган ва ҳозирда ЎзФАШининг

тошбосма асарлар фондида 3220 инвентар рақами [6] ҳамда СамДУнинг қўлёзма асарлар фондида 1097244 инвентар рақами [7] билан сақланаётган нусхалари мукамал сақланган. Шунингдек, шоир-



нинг ўзбекча ва тожикча девонларининг мукаммал қўлёзма нусхаси [2] Тожикистон ФА шарқ қўлёзмалари бўлимида сақланиб келинади.

Муҳйиддин Муҳйининг ўзбекча ғазаллари унинг ЎзФАШИ қўлёзма асарлар бўлимида №11126 инвентар рақами билан сақланаётган 69 varaқдан иборат “Мажмуъоти ашъори Муҳйи” номли қўлёзма асарида ҳам мавжуд [4]. Асар 1305 йилда Қўқонда Муҳйи томонидан настаълиқ хатида кўчирилган.

Бироқ “Девони Муҳйи” номи остида ЎзФАШИнинг Ҳамид Сулаймонов фондида сақланаётган 10га яқин қўлёзма асарлар биз тадқиқ этаётган Муҳйи Хўқандий қаламига мансуб эмас. Илмий кузатувларимиз асосида бу қўлёзмаларни Шайх Абдул Қодир Гилонийга тааллуқли эканини аниқладик. Гувоҳ бўлдики, Муҳйи тахаллусли шоирлар кўп ва уларнинг асарлари Республикаимизнинг турли фондларида сақланади. Шуларни инобатга олган ҳолда Муҳйи тахаллусли шоирлар устида ҳам алоҳида илмий изланишлар олиб бордик. Бу тадқиқотимизни кейинги мақолаларимизда муфассал баён этамиз деган умиддамиз.

Аввалги тадқиқотларимизда Алишер Навоийнинг девон композицияси тўғрисидаги машҳур намунавий қоидалари ҳақида батафсил тўхталганмиз [3]. Муҳйининг туркий девони мазкур намунавий қоидаларга тўла мос келади деб айта олмаимиз. Масалан, туркий девоннинг ك (коф) ҳарфи билан ниҳояланувчи ғазаллари аввалида گ (гоф) ҳарфи билан ниҳояланувчи 36 байт, форсий девонда эса ج (жим) ҳарфи билан ниҳояланувчи ғазаллар орасида «Ҳеч» радифли چ (чим) ҳарфи билан ниҳояланувчи битта 9 байт ғазал мавжуд. Бироқ, шоир девонларида туркий ёзувда мавжуд бўлган ҳарфларнинг иккитаси – «پ» (пе) ва «ژ» (же) ҳарфлари билан ниҳояланувчи ғазаллар учрамайди. Биз шоир ушбу ҳарфлар билан ниҳояланувчи ғазаллар битмаган деган фикрдан йироқмиз. Бироқ шоир ижодига алоқадор манбаларни кузатишимиз асносида бундай ғазалларга дуч келмаганимизни алоҳида таъкидлаб ўтмоқчи эдик.

Таъкидлаш керакки, туркий девондаги ҳар бир ҳарф билан тугалланувчи туркум ғазалларнинг барчаси ҳам ҳамд ва наътлар билан бошланган эмас. Туркий девондаги ا (алиф) ҳарфи билан ниҳояланувчи ғазаллар аввалида дастлаб, 9 байтдан иборат ҳамд, сўнг битта 9 байтли, битта 13 байтли наът



ва 9 байтдан иборат муножот мазмунидаги ғазал ҳамда «Фи наъти хойрул барийяти алайҳи ва ъала олиҳи акмалу ...» сарлавҳаси остидаги 8 байтдан иборат наът – жами, 48 байт ғазал жойлаштирилган.

ب (бе) ҳарфи билан ниҳояланувчи ғазаллар аввалида «ҳамд» ёки «наът» шаклидаги ғазаллар учрамаса-да, кетма-кет жойлаштирилган иккита ҳар бири 8 байтдан иборат муножот руҳидаги ғазал, ت (те) ҳарфи билан ниҳояланувчи туркум хилват ва унинг фазилатлари ҳақидаги шоирнинг фалсафий мушоҳадалари маҳсули натижасида вужудга келган 11 байтдан иборат ғазал, ص (сод) ҳарфи билан ниҳояланувчи туркум «халос» радифли муножот руҳидаги 8 байтдан иборат ғазал, ظ (зе) ҳарфи билан ниҳояланувчи туркум «ё Ҳафиз» радифли муножот мазмунидаги 9 байтли ғазал, ف (фе) ҳарфи билан ниҳояланувчи туркум пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)га бағишланган 8 байтли наът-ғазал, ق (қоф) ҳарфи билан ниҳояланувчи туркум 9 байтли муножот-ғазал, و ҳарфи билан ниҳояланувчи туркум муножот мазмунидаги ғазаллар билан бошланган. Бироқ шоирнинг туркий девонини текшириш натижасида қолган ҳарфлар билан ниҳояланувчи ғазаллар туркуми ҳамд, наът ёхуд муножот мазмунидаги ғазаллар билан бошланмагани аниқланди.

Девонга ғазал (мувашшаҳ ғазал), қитъа, фард, мурабба, мусаддас, маснавий ҳамда қасида жанрларига оид шеърлар киритилган. Қуйидаги жадвалга диққат қилинг:

| Жанрлар                | ғазал                     | Қитъа          | фард           | қасида          | мураб баъ                   | мусад дас                   | масна вий       |
|------------------------|---------------------------|----------------|----------------|-----------------|-----------------------------|-----------------------------|-----------------|
| Туркий девон           | 153 та<br>1438 байт       | 81 та 165 байт | 6 та<br>6 байт | 1 та<br>21 байт | 1 та<br>7 банд<br>(28 байт) | 1 та<br>7 банд<br>(42 байт) | 2 та<br>29 байт |
| Девоннинг умумий ҳажми | 1729 байт<br>(3458 мисра) |                |                |                 |                             |                             |                 |

Девонда етакчи жанр ғазал бўлиб, у сон ва ҳажм жиҳатидан девоннинг катта қисмини ташкил этади. Девонда асосан, араб алифбосидаги 28 ҳарф ва туркий алифбосидаги 2 ҳарф билан ниҳояланувчи ғазаллар мавжуд бўлиб, улар қуйидаги тартибда жойлаштирилган:

| Алифбо                                            | Туркий девондаги ғазал сони | Байт ҳисоби | Алифбо | Туркий девондаги ғазал сони | Байт ҳисоби |
|---------------------------------------------------|-----------------------------|-------------|--------|-----------------------------|-------------|
| ا                                                 | 15                          | 144         | ط      | 2                           | 17          |
| ب                                                 | 5                           | 43          | ظ      | 2                           | 18          |
| ت                                                 | 7                           | 66          | ع      | 2                           | 17          |
| ث                                                 | 3                           | 27          | غ      | 3                           | 27          |
| ج                                                 | 3                           | 35          | ف      | 2                           | 16          |
| ح                                                 | 3                           | 27          | ق      | 2                           | 18          |
| خ                                                 | 2                           | 18          | ك      | 5                           | 10          |
| د                                                 | 4                           | 36          | گ      | 4                           | 36          |
| ذ                                                 | 2                           | 18          | ل      | 10                          | 87          |
| ر                                                 | 21                          | 205         | م      | 10                          | 96          |
| ز                                                 | 5                           | 56          | ن      | 15                          | 149         |
| س                                                 | 3                           | 26          | و      | 3                           | 25          |
| ش                                                 | 2                           | 18          | ه      | 12                          | 103         |
| ص                                                 | 3                           | 25          | ی      | 6                           | 57          |
| ض                                                 | 2                           | 18          |        |                             |             |
| <b>Жами: 153 та ғазал, 1438 байт (2876 мисра)</b> |                             |             |        |                             |             |

Туркий девондаги жами ғазаллар сони 153 тани, ҳажми эса 1438 байт (2876 мисра)ни ташкил этади. Девонда, асосан, 5 байтдан 19 байтгача бўлган ғазаллар мавжуд бўлиб, шулардан сон ва салмоқ жиҳатидан энг кўп қўлланилгани 8 ва 9 байтли ғазаллардир. Қолган 5, 7, 10, 11, 12, 13, 14 байтли ғазаллар сон жиҳатидан девонларнинг унчалик катта қисмини ташкил этмаган. 18 ва 19 байтли ғазаллар тўғрисида сўз юритадиган бўлсак, аввало, улар туркий девонда бор йўғи биттадан киритилган. Уларнинг бири шоирнинг ўзи таъкидлаганидек, Мулло Абдуллоҳжон Насимий йўллаган мактубга жавоб, иккинчиси эса ғазал дебочасида ёзилганидек, Насимий Хўқандий мактубига жавоб тариқасида ёзилган. Бу эса ўз навбатида ғазал ҳажмининг кенгайишига сабаб бўлган.

Муҳйи ўз ғазалларини асосан, орифона, ошиқона ҳамда ижтимоий мавзуларда ёзди. Шунинг алоҳида таъкидлаш лозимки, девонларда бирорта ҳам риндона ғазаллар йўқ. Ошиқона ғазаллар эса сон жиҳатидан анча кўп. Уларнинг аксари шоир мувашшаҳларида ўз аксини топган.

Юқорида таъкидлаганимиздек, Муҳйининг туркий девонидан ғазаллардан ташқари қитъа, фард, маснавий, мураббаъ, мусаддас ва қасида жанрлари ҳам ўрин олган. Мазкур жанрдаги шеърларнинг барчаси ҳам ғазаллардан сўнг жойлаштирилмаган. ر (ре) ҳарфи билан тугалланувчи ғазаллар орасида 1 та етти бандли мураббаъ (28 мисра) ва битта етти бандли мусаддас (42 мисра), ك (коф) ҳарфи билан тугалланувчи ғазаллар орасида бита етти байтли маснавий, ن (нун) ҳарфи билан тугалланувчи ғазаллар орасида эса битта 21 байтли қасида, жами 63 байт (126 мисра) шеър; ғазаллардан сўнг эса 165 байт (330 мисра) қитъа ҳамда 2 та маснавий (29 байт) жойлаштирилган. Жадвалга диққат қилинг:

| Туркий девондаги ғазаллар орасида жойлаштирилган       |                        |                       |                       |                        |
|--------------------------------------------------------|------------------------|-----------------------|-----------------------|------------------------|
| бошқа жанрдаги шеърлар                                 |                        |                       |                       |                        |
| Байтлар сони                                           |                        |                       |                       |                        |
| Алифбо                                                 | 7                      | 21                    | 14                    | 21                     |
| ر                                                      |                        |                       | 1та мураббаъ (7 банд) | 1 та мусаддас (7 банд) |
| ك                                                      | 1 та маснавий (7 байт) |                       |                       |                        |
| ن                                                      |                        | 1 та қасида (21 байт) |                       |                        |
|                                                        | 63 байт                |                       |                       |                        |
| Ғазаллардан сўнг жойлаштирилган бошқа жанрдаги шеърлар |                        |                       |                       |                        |
| Қитъа                                                  | 81 та (165 байт)       |                       |                       |                        |
| Фард                                                   | 6 та (6 байт)          |                       |                       |                        |
| Маснавий                                               | 2 та (18+11=29 байт)   |                       |                       |                        |
| Жами:                                                  | 194 байт               |                       |                       |                        |

Туркий девонда мурабба ҳам, мусаддас ҳам бор йўғи биттадан киритилган. Девонларда турли-туман фалсафий-ижтимоий мавзуларни ўз ичига қамраб олган қитъа жанрига оид шеърлар салмоғи анча кўп. Улар туркий девонда ғазаллардан сўнг «Фил қитъоти айзон» сарлавҳаси остида девоннинг 342-саҳифасидан бошлаб, форсий девонда «Фил қитъоти вар-рубоиёот» сарлавҳаси остида 184-саҳифасидан бошлаб жойлаштирилган. Форсий девонда сарлавҳада кўрсатилганидек, қитъалар орасида рубоийлар ҳам киритилган ва қитъалардан ажралиб туриши учун уларнинг аввалида «рубоий» дея сарлавҳа қўйилган.

Туркий девондан жой олган дастлабки қитъа қуйидагича:

Муҳйиқи қаноат этти пеша,  
 Манзури туъиззу ман ташодур.  
 Ҳориски талаб иши ҳамиша,  
 Мақхури тузиллу ман ташодур. [7. 342-б.].

Муҳйи ўзигача бўлган қитъанавислар тажрибаларини ижодий ўзлаштириб, юсак ғоявий мазмун ва нафосат билан тўла қитъалар яратди. Уларда донишманд, ориф ва комил инсон образларини акс эттирди.

Туркий девонда қитъалардан сўнг 6 та фард жойлаштирилган. Уларнинг аввалида қитъалардан ажралиб туриши учун Муфрадот дея сарлавҳа қўйилган.

Маълумки, шеъриятнинг «фард» шаклидаги алоҳида намуналари нисбий мустақил, муаллиф мушоҳадаларининг махсус меваси сифатида майдонга келган ва кўп ҳолларда алоҳида яшовчи намуналари бўлган. У шеъриятдаги ҳажм жиҳатидан энг кичик, энг мўъжаз лирик жанрлардан бири бўлиб, ўзида афористик тугал мазмунни ифодалаши билан мустақил бир шеърий асар ҳисобланган.

Ўзбек адабиётининг Хоразмий, Сайфи Саройи, Юсуф Амирий, Навоий, Бобур, Хожа, Увайсий, Роқим, Алмаий ва Муқимийлар каби вакиллари томонидан битилган фардлар аа тарзида қофияланган.

Тадқиқот натижасида Муҳйининг 30 та фард байтидан 25 таси аа тарзида қофиялангани аниқланди. Бундан кўринадики, Муҳйи ҳам анъанага кўра, асосан, мусарраъ – жуфт қофияли фардбайтлар яратишга интилган.

Алишер Навоийнинг девон таълиф бериш тўғрисидаги охирги, бешинчи қондасида девонга фақат маснавий ва қасида жанрида ёзилган асарлардан киритилмаслиги, чунки уларнинг ҳар қайсиси алоҳида-алоҳида мужаллад бўлиши ҳақида айтиб ўтилган эди. Муҳйи девонида эса бир қарашда бу қоидага амал қилинмагандек кўринади. Бунга сабаб шоирнинг туркий девонига битта қасида ва битта маснавийнинг киритилганидир. Бироқ бу Муҳйи бошқа қасида ё маснавий битмаган дегани эмас. Чунки биз Муҳйи ижодига алоқадор кўплаб манбаларни кўздан кечиришимиз жараёнида шоирнинг туркий девонига киритилмаган жуда кўплаб қасида ва маснавийларга дуч келдикки, ҳатто уларни бемалол жамлаб алоҳида китоб ҳолига келтириш мумкин.

Хуллас, туркий девонда 153 та (1438 байт) ғазал, 81 та (165 байт) қитъа, 6 та фард (6 байт), 1 та (21 байт) қасида, 1 та (7 банд) мурабба, 1 та (7 банд) мусаддас, 2 та (29 байт) маснавий жойлаштирилган. Тадқиқот натижаларига асосланиб айтиш мумкинки, Муҳйи девонларида ҳаммаси бўлиб 8 та жанр (ғазал, қитъа, рубоий, мураббаъ, мусаддас, фард, қасида, маснавий) қўлланилган. Туркий девоннинг умумий ҳажми 1729 байт (3458 мисра)ни, форсий девон билан қўшилганда эса 4997 байт (9994 мисра)ни ташкил этади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик, биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
2. Мирзоев А.М. и Занда М. И. Каталог Восточных рукописей академии наук Таджикистана. Душанбе: Дониш, 1970 г., стр. 190–191.
3. **Муҳаммадиев** А.М. Муҳйи ижоди: давр, адабий муҳит ва шахс. Монография – Тошкент. Наврўз нашриёти, ДКУ. 2020 йил. 138-бет.
4. Муҳйиддин Муҳйи. Мажмуъоти ашъори Муҳйи. Қўлёзма. ЎзФАШИ қўлёзма асарлар бўлимида №11126 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. 69 varaқ. Ўзбек ва форс-тожик тилларидаги ушбу асар 1305 йилда Қўқонда Муҳйи томонидан настаълиқ хатида кўчирилган. Ўлчам: 11x17 см.
5. Муҳйиддин Муҳйи. Девони Муҳйи. Қўлёзма. ЎзФАШИ қўлёзмалар бўлимида №1303 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. 161 varaқдан иборат. Бу асар ўзбек тилида ёзилган бўлиб, 1320/1902 йилда настаълиқ хатида кўчирилган. Ўлчам: 13x20,5 см.
6. Муҳйиддин Муҳйи. Девони Муҳйи. – Тошкент: Ҳожи Абдуллауф нашри, 1911/м. (ЎзФАШИ нинг тошбосма асарлар фондида №3220 инвентар рақами билан сақланмоқда), 360 саҳифа. Ўзбекча-тожикча, ўзбекча қисми 231-саҳифадан бошланади.
7. Муҳйиддин Муҳйи. Девони Муҳйи. – Тошкент: Ҳожи Абдуллауф нашри, 1911/м. (СамДУ нинг тошбосма асарлар фондида №1097244 инвентар рақами билан сақланмоқда), 360 саҳифа. Ўзбекча-тожикча, ўзбекча қисми 231-саҳифадан бошланади.



**Shahnoza AKBAROVA,**  
*International Islamic Academy of Uzbekistan,  
a teacher of the Department of Foreign Languages of the Faculty of  
Classical Eastern Philology, PhD in Pedagogical Sciences*

## FORMATION AND DEVELOPMENT OF LEXICAL SKILLS IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

One of the tasks when learning a foreign language is to replenish the vocabulary. However, knowing the equivalent of this or that foreign word in the native language does not yet speak about the formation of a lexical skill, since it “represents an automated action of choosing a lexical unit adequate to the idea and its correct combination with other units in productive speech and an automated perception and association with the meaning in receptive speech” [1: 448]. The lexical skill implies working not only with a specific word, but also with thematic and semantic groups, word formation, and rules of use of lexemes according to the grammatical and stylistic structure of the text of a statement [2: 522].

As we see, the role of context is emphasized in the definition of the lexical skill. S.G. Ter-Minasova points out that the use of a word in context is not an easy task: “Having learned a new foreign word and the equivalent of a native word, one should be very careful with its use: behind the word there is a concept, behind the concept there is a subject or phenomenon of the reality of the world, and this is the world of another country, foreign, alien” [3: 624].

There are many works in foreign literature devoted to teaching vocabulary. The most common is the question of what exactly a person learning a language should know about a word. S. Thornbury in his book “How to teach vocabulary” notes that knowledge of a word includes information about its meanings, oral and written forms, grammatical combinations, derivatives of a given lexeme, collocations, register (oral and written), connotations and frequencies [4: 186]. Such authors as Norbert Schmitt [5: 86–94] and Shigenori Tanaka [6] pay attention to the same. Full knowledge of a word in accordance with the above allows us to speak about lexical competence, which is defined as the ability to recognize and use the vocabulary of a language studied on an equal footing with a carrier [7: 58–59]. The lexical competence extends to the volume of the dictionary and its thematic content.

As it was mentioned above, lexical skill is a complex phenomenon with two subtypes in its structure: receptive and productive skills. Receptive lexical skills are manifested during listening and reading, allowing to recognize and identify lexical units using different

channels of perception. Productive lexical skills allow choosing the right linguistic phenomenon according to the context and rules of word formation in oral and written speech [8].

The process of lexical skill formation consists of several stages. O.S. Levitskaya writes that linguists distinguish four main steps in the study of lexicon: perception of a word, understanding of its meaning, memorization and use in speech. Simultaneously with these steps, cultural, psycholinguistic, grammatical, and textual aspects are being assimilated [7: 58–59]. In other teaching methods, this system is somewhat broader. Thus, A.N. Shchukin cites the following stages of lexical skill formation: “perception of the word (with the subsequent creation of a sound image), awareness of the meaning of the word, imitation of the word (in isolation or in a sentence), and designation aimed at the independent name of objects defined by the word, combination” [9: 475]. Generalization of these approaches to the stages of lexical skill development allows to distinguish three main stages:

- 1) acquaintance with word function, its meaning and formal features;
- 2) training and assimilation of words;
- 3) use of new linguistic phenomena in the process of communication.

Methods of teaching lexical skills are not standing still, each year the learning process is becoming more and more diverse. Review of foreign literature allows making a brief summary of modern strategies of lexical skills development.

Vocabulary building, as noted above, is one of the components of lexical skills development. Standard memorization of a word and its meanings, as a rule, does not bring good results, that is why the methods of teaching a foreign language are becoming popular in the methods of uninterrupted semantics contributing to the growth of students' interest. Illustrations, photos, tables, charts, etc. are used to learn specific concepts. The use of monolingual dictionaries, as noted by E.V. Susimenko, works with different types of lexical groupings: 1) thematic; 2) lexical-semantic; 3) word nests allow mastering abstract concepts; 4) associative-semantic and functional-semantic fields. It is worth saying that working with groups of linguistic phenomena

is effective in teaching abstract and specific concepts. Universal memory techniques also include creation of mental maps, use of mnemonic, gesture and mimicry techniques [10: 150–152].

Work with context, as noted above, is especially important in the development of lexical skills. Conscious memorization of linguistic phenomena in context is more effective than memorizing isolated words. S. Thornbury considers guessing the meaning of the lexeme from the context as one of the most productive strategies of semanticization [4: 186].

At this stage, the most popular training of the studied lexicon is conditional communicative exercises related

to the presence of a given speech situation. Playful methods allow increasing the interest of trainees at the stage of lexical skills development. According to N.B. Marchan, “the playful approach can be used at any age by adapting the content and form of classes to the age characteristics of each specific group” [11].

Lexical skills are basic when learning a foreign language. It is important to remember that their formation and development is most successful in the conditions of a competent combination of modern techniques and methods that allow students to be interested, motivated in mastering vocabulary, and create a comfortable psychological atmosphere in the class.

## References

1. New dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of language learning). – Moscow: ICARUS, 2009.
2. Desktop book of a foreign language teacher: Reference manual / E.A. Masilko, P.K. Babinskaya, A.F. Budko, S.I. Petrova. – Moscow: Higher School, 2004.
3. Ter-Minasova S.G. Language and intercultural communication. – Moscow: MSU, 2005.
4. Thornbury S. How to teach vocabulary. – Pearson ESL, 2002.
5. Schmitt N. A fresh approach to vocabulary: using a word knowledge framework // RELC journal, 1995, Vol. 26, No.1.
6. Tanaka Sh. Lexical competence in English // CIFLE Report No.8. URL: [http://www.cifle.jp/news/cifle\\_report\\_005.pdf](http://www.cifle.jp/news/cifle_report_005.pdf) (accessed on 22.12.2017)
7. Levitskaya O.S Lexical competence development as an integral part of translator training // Ideas. Searches. Solutions: collection of articles and theses of the 10th International Scientific Conference, Minsk, November 23, 2016. – Part 6. – Minsk: BSU, 2017.
8. Bronskaya V.S. Theoretical bases of formation and development of lexical skills in schoolchildren // SISP. 2011. № 4. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-osnovy-formirovaniya-i-razvitiya-leksicheskikh-navykov-u-shkolnikov> (date of address: 22.12.2017).
9. Shchukin A.N. Teaching foreign languages: theory and practice: Textbook for teachers and students / A.N. Shchukin. – Moscow: Omega-L, 2010.
10. Susimenko E.V. Effective strategies of lexical skills formation at students of technical universities // Almanacs of modern science and education, 2010, No.4 (35).
11. Marchan N.B. On some methods to improve the efficiency of lexicon study // Foreign languages at school, 2004. No.5.

**Marvarid Nurbayeva,**

*Qarshi davlat universitetining*

*Pedagoqika instituti katta o'qituvchisi*

# ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TA'LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

**Annotatsiya.** O'ta og'ir davrda yashagan Alisher Navoiy mamlakatni yagona markazlashgan davlatga birlashtirish uchun eng qizg'in kurash olib bordi. Fuqarolar nizolarini to'xtatish va oldini olish, mehnatkashlar turmushini yaxshilash, mamlakatda ta'limni yoyish uchun u tarix sarvaraqalarida o'chmaz iz qoldirdi.

Maqolada buyuk shoirning pedagogik qarashlari shoir asarlari misolida mulohaza qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** tarbiya, taʼlim, mulohaza, ong, tafakkur, maʼnaviyat, bilim.

**Annotation.** Alisher Navoi, who lived through a very difficult period, fought hard to unite the country into a single centralized state. He left an indelible mark on the history of the country in order to stop and prevent civil strife, improve the lives of workers, and spread education in the country.

The article discusses the pedagogical views of the great poet on the example of the poet's works.

**Keywords:** upbringing, education, reflection, consciousness, thinking, spirituality, knowledge.

**Аннотация.** Алишер Навои, переживший очень сложный период, упорно боролся за объединение страны в единое централизованное государство. Он оставил неизгладимый след в истории страны, чтобы остановить и предотвратить междоусобицы, улучшить жизнь трудящихся, распространить образование в стране.

В статье рассматриваются педагогические взгляды великого поэта на примере творчества поэта.

**Ключевые слова:** воспитание, образование, рефлексия, сознание, мышление, духовность, познание.

## Kirish

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy ko'p narsaga liberal qarashlarga ega edi. Chunonchi, u hamisha o'rta asrlarning zulm qonunlariga qarshi chiqqan, pora olgan, kambag'al tabaqa manfaatlarini himoya qilishga uringan amaldorlarni ochiqdan-ochiq qoralagan. 1472-yilda Navoiy amir unvonini oldi (davlat vaziri bo'ldi), u o'z vakolatlaridan kambag'allar hayotini yaxshilash uchun foydalandi. Alisher Navoiy podshoh va boshqa taniqli amaldorlar bilan do'st bo'lishiga qaramay, Xuroson davlati hukmdori Bykarolni o'zlashtirib oluvchilar va poraxo'rlarga qarshi ochiq norozilik bildirgani uchun boshqa hududga surgun qilinadi. Astrobodda u xalqning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini yaxshilash rejalarini davom ettirdi. Alisher Navoiyning zamondoshlari notinch xarakterli mag'rur inson sifatida ta'riflashgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyga ta'rif beradi: "U yuksak, zakovatli, a'lo ma'lumotli odam edi". Alisher Navoiy hamma odamlarning o'zini bir xil tutishini talab qilgan va shuning uchun ham ular bilan til topishish qiyin bo'lgan.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirotda uzoq davom etgan kasallikdan holsizlanib vafot etadi. U o'limidan oldin dunyo ishlaridan uzoqlashib, so'fiy us-tozi maqbarasi yonidagi hujrada yolg'iz odam bo'lib yashadi.

## Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Alisher Navoiyning butun umri, ya'ni she'rlari bugungi kunimizda dolzarb bo'lib, davlatga xizmat qildi, serqirra she'riy asarlar yozdi, barcha shoir, yozuvchilar, rassom va sozandalarga moddiy yordam ko'rsatdi. O'rta Osiyo tarixida u ko'plab madrasalar, kasalxonalar va hatto kutubxonalar qurilishining asosiy tashabbuskori sifatida eslab kelinadi. Olti asrdan ko'proq vaqt muqaddam yaratgan asarlarida bugungi yoshlar va kelajak avlod tarbiyasi uchun juda qimmatli g'oyalar mujassam ekani ta'kidlanadi. Uning hayoti va ijodi barcha pedagog va o'qituvchilar, shuningdek, ota-onalar uchun ta'limning asosiy metodikasi bo'lib xizmat qiladi. Buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va faoliyatidagi pedagogik g'oyalar o'rganiladi. Olti asrdan ko'proq vaqt muqaddam yaratgan asarlarida bugungi yoshlar va kelajak avlodni tarbiyalashda g'oyat qimmatli g'oyalar borligi ta'kidlanadi. Uning hayoti va ijodi barcha pedagog va o'qituvchilar, shuningdek, ota-onalar uchun ta'limning asosiy metodikasi bo'lib xizmat qiladi. Olti asr avval yashab ijod etgan atoqli o'zbek shoiri, mutafakkiri Alisher Navoiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Alisher Navoiyning ta'kidlashicha, farzand har bir oilaga Alloh taoloning ne'mati bo'lib, unda har qanday oila uchun hayot mazmuni o'rin olgan. Oiladagi bola hayotga turtki bo'lib, u hammani - aka-uka, opa-singil va ota-onalar bahamjihat yashaydi va quvontiradi.

Sharq lirikasining pedagogik g'oyalari insonparvarligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy insonni dunyodagi eng oliy va olijanob mavjudot, farzand esa xonadonni yorituvchi, oilaga shodlik va shodlik baxsh etuvchi nuroniy, deb o'ylagan. Shoirning yozishicha, bolalar

yaxshini yomondan ajrata olmaydilar, shuning uchun ular yoshligidanoq tarbiyachilarning foydali ta'sirida bo'lishlari kerak.

## Mulohaza va takliflar

Alisher Navoiy o'z she'rlarida xonadonda bolaning paydo bo'lishini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan ulug' bayram deya ta'kidlaydi. Bundan ham bolalar ertangi kunimizning ko'zgusi, ya'ni o'tmishning nusxasi, shuning uchun kelajak avlodga to'g'ri tarbiya berish kerak, degan g'oya. Navoiy o'smirlik va yoshlik davrini ta'riflar ekan, bolalikdan keyin yoshlik - ongning shakllanish davri keladi, degan. Shunda aql yoki ehtiros odamni egallab oladi. Agar birinchisi g'alaba qozonsa, odamlar ezgu maqsadlarga erishadilar. Mutafakkir yoshlarni ilm o'rganishga, ongni rivojlantirishga chaqirdi. Alisher Navoiy hayoti va ijodini tahlil qilar ekan, shunday xulosaga kelish kerakki, mutafakkir o'z asarlarida ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilikni yosh avlodni mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, rostgo'ylik, adolatparvarlik kabi axloqiy fazilatlarida tarbiyalashga da'vat etgan. Halollik, ota-onaga hurmat shoirning bosh g'oyasi bo'lgan. U ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifasini shaxsni axloqiy jihatdan tayyorlashda ko'rgan. Uning fikricha, insonni insonparvarlik, vatanparvarlik, manfaatsizlik, halollik, odoblilik ruhida tarbiyalash zarur.

Biz pedagoglar uchun alohida jihat shundaki, buyuk mumtoz mutafakkirlarning ilmiy, madaniy va adabiy asarlarini o'rganish bu ikki shaxs munosabati chinakam do'stlikning yorqin namunasi ekanidan yana bir karra guvohlik beradi. Yosh avlodni axloqiy tarbiyalash ham umuminsoniy qadriyatlarga, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida kishilar tomonidan ishlab chiqilgan mustahkam axloqiy me'yorlarga, ham jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida vujudga kelgan yangi tamoyil va me'yorlarga asoslanadi.

Abadiy-axloqiy fazilatlar - halollik, adolat, burch, odob, mas'uliyat, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat, insonparvarlik, manfaatsizlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat. Navoiy Sharq an'analariga amal qilgan holda o'zining asosiy asari - "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" she'rlaridan iborat "Xamsa" ("Beshlik") ni yaratdi. "Qiyin kunlarda oxirgi nonini boshqalar bilan baham ko'rishga odatlangan odamgina saxovatli bo'ladi". Bu ibora, o'zbek xalqi haqida olti yuz yildan oshiqroq muqaddam aytilgan ibora.

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiyda o'zining barcha fazilatlarini bilan bir qatorda yana bir yorqin iste'dod - inson bo'lish qobiliyati ham bor edi. Qariyb olti asrdirki, uning satrlari biz, kitobxonlarni mehr-oqibat, imonlilik, saxovatlilik, yordamga muhtoj odamga qo'l cho'zish kabi fazilatlarini qadrlashga, o'zimizda tarbiyalashga undab kelmoqda. U shunday deb yozgan edi: "Eng yaxshi inson, kimdan xalq uchun eng katta foyda bo'lsa, uni eng yaxshi odam deb biling". Navoiy ana shunday ilg'or gumanistik dunyoqarashi, asarlarining yuksak badiiy fazilatlarini nafaqat o'z ona yurtida, balki butun dunyoda keng shuhrat qozondi. Uzoq XV asrda yaratilgan



uning kitoblari bugungi kungacha yosh avlodni axloqiy tarbiyalash va butun jamiyatni ma'naviy boyitishga xizmat qiladi.

### Xulosa

Navoiy ilm-ma'rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam- olam ma'no mujassamdur. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr- oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Birovki qilsa olimlarga ta'zim,  
 Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.

Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulug'laydi. Olimlarga ta'zim qilish- payg'ambarga ta'zim qilish bilan barobar ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan:

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,  
 Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Navoiy kishi bilimga ega bo'lishi uchun oz-ozdan o'rganib [borishi lozimligini](#), bilimlari yig'ilib ma'lum ko'nikmaga ega bo'lishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi sivilar yig'ilib daryoga aylanishiga o'xshatadi.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitish ranj ila,  
 Aylamak bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Ushbu jumalalarda birinchi ustoz haqida gap boradi. Ilk ustoz tolibiga savod chiqarishida ko'maklashadi, bu bilan uning hayot yo'lini- to'g'ri yo'lni belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to'lay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi amoliga qarab baho beradi. Odamiylikning mezoni bu - porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va haqqarastlikdir. Uyg'oq qalb sohibi nazdida har qanday holatda ham to'g'ri so'zni ayta olgan, haqiqat tarafida turib harakat qilgan kishigina inson nomiga munosib. Aksincha, sharoitga qarab o'zgaraverish, o'z shaxsiyatini asrab, haq gapni aytishdan qo'rqish -bu imonsizlik belgisi. Yaxshilikka davogarlik qilgan holda yomonlar hayliga ham sherik bo'lib ketaverish -bu munofiqlik namunasidir.

Aytish lozimki, Navoiy insonga tanbeh berar ekan, avvalo, o'z hayotiy kuzatishlariga asoslanadi. Pok e'tiqodi, ijtimoiy qarashlari taqozosiga ko'ra mulohaza yuritadi. Ulug' inson tafakkurining hayotiy tajribalari-

dan kelib chiqqan xulosaviy fikr -mulohazalari xalqning "Yaxshiga yondosh, yomondan qoch", "yaxshi bilan yurding yetding murtotga, [yomon bila yurding](#), -qolding uyatga", "Yaxshi odam yo'ldoshidan bilinar", "Do'sting kimligini aytasang, sening kimligingni aytaman" kabi maqollar bilan butunlay mushtarakdir.

Uyg'oq qalb sohibi nazdida yaxshi inson yoki yaxshilik tushunchasining ma'nosi nihoyatda keng bo'lib, unda imon va etiqod, odat va hayo kabi inson zotini bezaydigan go'zal fazilatlar jamuljam bo'lgan. Odamiylikning mezoni bu faqat o'zi uchun emas, balki, o'zgalar manfaatli, xalq g'am- tashvishi bilan yashashdir. Binobarin, axloq targ'ibotchisining navbatdagi tanbehi ham yaxshilik xususida:

"Baxlning andoqi, butun topqoni zaxira bo'lg'ay, tong va qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo'lg'ay. Zuhdu taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, ulug'lar nazarida arjumandroq. Yaxshilik va [yomonliqni kim qildikim](#), jazo ko'rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ekdikim, o'rmadi".

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob, deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichiklilar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi". Alisher Navoiyning asarlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Dilorom, Qays, Shopur kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar, kamtarin, odobli, or-nomusli insonlardir. Bu qahramonlar orqali yoshlarni ulardan ibrat olishga chorlaydi.

Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o'z asarlarida har bir so'zdan unumli va o'rinni foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo'ladi. Ulug' shoir o'zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shdi, umuminsoniy fazilatlar to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 jild. T.8,9,10,11,12. -T.: "Fan", -1991.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. T.1. -T.: "Muxlis", 1983.
3. Navoi, Alisher. "Hamsa". -T.: G'.Publishing house of literature and art named after Gulum, 1986. 423-P.
4. Alisher Navoi. Hey, hey, hey, hey, hey, hey, hey, hey. Tashkent: Gafur Gulom publishing house, 1989, page 76
5. Bedriyev F., Khudoyberdiyev A. Alisher Navoi's "Farhod and sweet" about dostoni/ / language and literature education. 2011, 8-San.
6. Kayumov A. Alisher Navoi (life of famous characters). -T.: Kemelek, 1991. Navoi's world of creativity. T., 2001.
7. Karimov I.A. Man, his rights and freedoms are the highest value. Volume XIV.-T.: "Uzbekistan", 2006 Navoi, Alisher. Proverbs: for children. -T.: A.People named after kadiyriy heritage publishing house, 1999
8. Alisher Navoi. A perfect collection of works. 11-full. The Hamsa. Quiver Alexandria. T.: «Science», 2002
9. A.Mevlonova, B.Normurodova. "Methods of educational work". Training manual. Tashkent, «science» 200815)»Pedagogy» T., «Teacher» -1998.

**Maloxat BADALBAYEVA,**  
O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi  
akademiyasi, Tillar kafedrası boshlig'i

## TABIIY OFATLAR TERMINOLOGIYASINING TARAQQIYOTI, TUZILISHI VA TASNIFI

**Annotatsiya.** Bugungi kunda tabiiy ofatlar har tomonlama dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda, chunki turli darajadagi ofatlar nafaqat insoniyat, balki hayvonot va o'simliklar olami uchun ham xavfli darajaga ko'tarildi. Natijada mazkur muammolarning oldini olishda tabiiy ofatlar terminologiyasining tilshunoslikdagi o'rnı soha mutaxassislarning yanada chuqur bilim olishi va puxta tayyorgarlik ko'rishlaridagi samaradorligi bilan belgilanmoqda. Ushbu maqolada tabiiy ofatlar terminologiyasining tilshunoslik fanidagi taraqqiyoti, tuzilishi va tasnifi xususida muallif tomonidan fikr-mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tabiiy ofat, terminologiya, kommunikatsiya, lisoniy birlik, atama, ofat leksikasi, favqulodda vaziyat, texnogen falokat, ofatlarni boshqarish, tasnif.

**Annotation.** Today, natural disasters are becoming increasingly important, as disasters of various levels have become dangerous not only for humanity, but also for flora and fauna. As a result, the role of catastrophe terminology in linguistics in preventing these problems is determined by the effectiveness of deep knowledge and thorough training of specialists in this field. In this article, the author discusses the development, structure and classification of natural disaster terminology in linguistics.

**Key words:** natural disaster, terminology, communication, linguistic unit, term, disaster lexicon, emergency, man-made disaster, disaster management, classification.

**Аннотация.** Сегодня стихийные бедствия приобретают все большее значение, так как бедствия различного уровня стали опасны не только для человечества, но и для флоры и фауны. В результате роль терминологии катастроф в языкознании в предотвращении этих проблем определяется эффективностью глубоких знаний и основательной подготовки специалистов в этой области. В данной статье автор обсуждает развитие, структуру и классификацию терминологии стихийных бедствий в лингвистике.

**Ключевые слова:** стихийное бедствие, терминология, коммуникация, языковая единица, термин, катастрофическая лексика, чрезвычайная ситуация, техногенная катастрофа, ликвидация последствий стихийных бедствий, классификация.

Ma'lumki, tabiiy ofat o'z nomi bilan tabiiydir, ya'ni to'satdan, kutilmaganda sodir bo'ladi va ushbu holatda vaziyatni nazoratga olish qiyin bo'ladi. Natijada birgina yong'in yoki sel tasavvurga ham sig'dirib bo'lmaydigan oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiiy ofatlarning kutilmaganda sodir bo'lishi barcha tirik jonzorlar uchun favqulodda vaziyatni yuzaga chiqaradi va unda tabiiy ofatning zararli oqibatlari kengayib ketmasligi insonlarning – favqulodda vaziyatda faoliyat olib boruvchi soha xodimlarining bilim, ko'nikma va malakalariga har tomonlama bog'liq.

Bundan tashqari, bo'lajak mutaxassis sifatida talabalarining harbiy oliy ta'limda olayotgan bilimi va ularga berilayotgan ta'limning milliy va xorijiy tajribalarga asoslanishi bugungi zamon talabidir. Zero, tabiiy ofatlar bilan har tomonlama kurashishga qaror qilgan, yaxshi ma'lumotga ega, xavfsiz va bardoshli jamiyatlarni qurish uchun tabiiy ofatlar haqidagi ta'lim muhim ahamiyatga egadir [2]. Bundan tashqari, tabiiy ofatlar jamiyat hayotining bir qancha sohalariga nisbatan potensial ta'siri tufayli ko'plab sohalarda ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi [6]. Ta'limning sifatli va samarali bo'lishi esa, o'z navbatida, undagi lisoniy birliklar orqali taqdim etiluvchi ma'lumot-axborotlarning tinglovchiga (talabalar misolida) to'liq va izchil ifoda etilishiga bevosita aloqadordir.

Avvalo, **tabiiy ofat** tushunchasi doirasida anglashiluvchi ma'nolar va izohlar tahliliga murojaat etilsa, quyidagi natijalar bilan tanishish mumkin: (1) | *arabcha* – ranj, alam; jirkanish; baxtsizlik, balo; xavf | – boshga kulfat soluvchi yoki halokatga olib keluvchi baxtsizlik; balo; (2) *ko'chma ma'noda* – yo'q qiluvchi; kushanda; iloj, davo [9]; (3) katta zarar, zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan hodisa [10]; (4) katta zarar, yo'qotish yoki qo'qqisdan halokatga olib keladigan hodisa [14]; (5) zilzila yoki samolyot halokati kabi juda yomon baxtsiz hodisa, ayniqsa, unda ko'p odamlar halok bo'ladi [12]. Ko'rinib turibdiki, *ofat* so'zi o'zida bir talay ma'nolarni aks ettirmoqda va ularning barchasi salbiy holat, ya'ni favqulodda vaziyatni aks ettirmoqda. Tabiiy ofatlarning lisoniy manzarasini anglashda va ularni boshqarishda aynan shu leksik birliklar muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, **favqulodda vaziyat** leksemasining izohiga doir manbaalarga murojaat qilinganda esa quyidagi ma'lumotlarga duch kelish mumkin: (1) | *arabcha* – odatdan tashqari – nihoyatda kam uchraydigan; boshqalarga o'xshamagan; kutilmaganda yuz bergan; tasodifiy; (2) odatdan tashqari; kam duch kelinadigan, kamyob; (3) g'oyat darajada, haddan tashqari; g'oyat, juda; (4) maxsus sharoit talabi bilan belgilanadigan, sodir bo'ladigan; navbatdan tashqari [8]; (5) xavfli yoki jiddiy narsa, masalan, baxtsiz hodisa, to'satdan yoki kutilmaganda sodir bo'ladi va zararli oqibatlarga olib kelmaslik uchun tezkor choralar ko'rishni talab qiladi; (6) vaziyatlarning kutilmagan kombinatsiyasi yoki zud-

idagi natijalar bilan tanishish mumkin: (1) | *arabcha* – ranj, alam; jirkanish; baxtsizlik, balo; xavf | – boshga kulfat soluvchi yoki halokatga olib keluvchi baxtsizlik; balo; (2) *ko'chma ma'noda* – yo'q qiluvchi; kushanda; iloj, davo [9]; (3) katta zarar, zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan hodisa [10]; (4) katta zarar, yo'qotish yoki qo'qqisdan halokatga olib keladigan hodisa [14]; (5) zilzila yoki samolyot halokati kabi juda yomon baxtsiz hodisa, ayniqsa, unda ko'p odamlar halok bo'ladi [12]. Ko'rinib turibdiki, *ofat* so'zi o'zida bir talay ma'nolarni aks ettirmoqda va ularning barchasi salbiy holat, ya'ni favqulodda vaziyatni aks ettirmoqda. Tabiiy ofatlarning lisoniy manzarasini anglashda va ularni boshqarishda aynan shu leksik birliklar muhim rol o'ynaydi.

lik bilan chora ko'rishni talab qiladigan holat [15]; (7) kutilmagan va qiyin yoki xavfli vaziyat, ayniqsa to'satdan sodir bo'lgan va uni bartaraf etish uchun tezkor choralar ko'rishni talab qiladigan baxtsiz hodisa [11]. Ushbu natijalar favqulodda holatlarning turli xil darajada va ko'rinishda bo'lishini ifoda etmoqda va amalda kommunikatsiya ishtirokchilari, ya'ni ma'lumotni yetkazuvchi shaxs – so'zlovchi va uni qabul qiluvchi shaxs – tinglovchi aniq lisoniy birliklardan foydalanishi maqsadga muvofiq ekanligini anglatmoqda. Jumladan, ikki kishi yoki undan ortiq guruh o'rtasidagi nutq shakllarida aniqlik, ishonchlilik va kommunikativ maqsadga to'g'ri yo'naltirilganlik o'zining dolzarb ahamiyatiga egadir.

Yuqorida *tabiiy ofat* va *favqulodda vaziyat* lisoniy birliklari to'g'risida keltirilgan izohlar tilshunoslikda mazkur yo'nalishga doir terminologiyaning muntazam tadqiq etilishini va uzluksiz tahliliy natijalar asosida boyitilib borishi lozimligini ko'rsatmoqda. Masalan, biz ko'pincha "tahlika", "xavf", "tahdid", "ofat", "halokat" va "falokat" kabi atamalardan ularning aslida nimani anglatishini va ular qanday oqibatlariga olib kelishini tushunmay turib foydalanamiz. Biz tabiiy ofatlar va texnogen ofatlar haqida hatto ularni qanday ajratishni ham bilmasdan gapiramiz. Ayniqsa, o'qituvchilar, tabiiy ofatlarga javob berish bo'yicha mutaxassislar va OAV vakillari bu atamalarni bir-birining o'rnida ishlatmasliklari kerak, albat, mas'uliyat bilan. Har doim esda tutish kerakki, turli mavzular o'rtasida samarali muloqotga erishishdagi eng katta muammo – terminologiyadan bexabarlik va ularga nisbatan bo'lgan beparvolikdir [3]. Shu sababli tabiiy ofat leksikasini tuzishda va ularni tadqiq etishda har bir favqulodda vaziyat uchun qo'llaniluvchi leksik birliklar ma'nosining kuchlilik darajasiga ko'ra taqsimlanishi maqsadga muvofiqdir va bu taqdim etilayotgan axborotda o'z ifodasini topishi kerak. Vaholanki, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq ko'plab tushunchalarning ta'riflari turli bilim sohalarida (masalan, geografiya va texnikada) paydo bo'ldi va asta-sekin har bir fanga moslashtirildi. Bunday ta'riflardan to'g'ri foydalanish tabiiy ofat haqida iloji bo-

richa ko'proq axborot va ma'lumotlarni kiritish imkonini beradi, bu esa nazariy va amaliy bilim olish jarayonida keraksiz bo'shliqlarning oldini oladi [6].

Tabiiy ofatlar terminologiyasini tasnif etishda undagi leksik birliklarni asosan ikki turga ajratish mumkin: tabiiy va texnogen ofatlarga doir leksemalar. Jumladan, mazkur guruhlar quyidagicha izohlanadi, ya'ni tabiiy ofat tabiiy hodisa (zilzila, suv toshqini yoki vulqon otilishi kabi) natijasida yuzaga keladigan bo'lsa, texnogen ofat esa ijtimoiy tizimdagi normal jarayonning buzilishi (masalan, urush, turg'unlik, tartibsizliklar va texnologik nosozliklar) natijasidir. Demak, asosiy farq shunchaki ularni chiqaradigan asosiy kuchdadir [1]. Shuningdek, insoniyat sivilizatsiyasi falokatlarini keltirib chiqarishi va boshlanish turiga ko'ra tasniflashi mumkin bo'lgan turli xil xavfli tabiat hodisalari bilan o'ralgandir [4, 5]. Natijada tabiiy ofatlar terminologiyasining rivojida maxsus yo'nalishlar paydo bo'lishiga xizmat qildi. Misol uchun, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish (*ingl.* Disaster risk reduction (DRR)) bo'yicha tadqiqotlar sohani o'ziga xos kasb va mustaqil ilmiy fanga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning bir qismi sifatida o'zining texnik lug'atini tobora rivojlantirmoqda [7]. Terminologik lug'atlar va mazkur ma'lumotlar jamlanmasi tarkibiga kiritiluvchi leksik birliklar tadqiqi nafaqat favqulodda vaziyatlarga ma'sul mutaxassislar, balki boshqa soha vakillarining ham o'z nutqida mavjud lisoniy birliklardan to'g'ri va aniq foydalanishlari uchun qulay muhit yaratishda dolzarbdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tilshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar birgini mavjud bilimlarning takomillashtirilishi uchungina emas, balki ilmiy izlanishlar olib borilayotgan tilning ham boyitilib borishiga xizmat qiladi. Masalan, tabiiy ofatlar terminologiyasini turli tillar kesimida tahlil etish o'zbek tilining leksikologiyasida yangi lisoniy birliklar va ma'lumotlar olamining kashf etilishiga yo'l ochadi. Zero, til doimiy yangilanishlar va o'zgarishlar asnosida rivojlanib boruvchi faol ijtimoiy manbaadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Albala-Bertrand J. M. In the political economy of large natural disasters with special reference to developing countries. – Oxford: Clarendon Press. – 1993.
2. Bhandari R.K. Disaster education: The silver bullet // Disaster education and management. – New Delhi: Springer. – 2014. URL: [https://doi.org/10.1007/978-81-322-1566-0\\_1](https://doi.org/10.1007/978-81-322-1566-0_1).
3. Bhandari R.K. Disaster terminology // Disaster education and management. – New Delhi: Springer. – 2014. URL: [https://doi.org/10.1007/978-81-322-1566-0\\_2](https://doi.org/10.1007/978-81-322-1566-0_2).
4. Guha-Sapir D., Hoyois P., Below R. Annual disaster statistical review 2014: The numbers and trends. – Louvain. – 2014.
5. IRDR: Peril classification and hazard glossary. – Beijing. – 2014. URL: [http://www.irdrinternational.org/wp-content/uploads/2014/04/IRDR\\_DATA-Project-Report-No.-1.pdf](http://www.irdrinternational.org/wp-content/uploads/2014/04/IRDR_DATA-Project-Report-No.-1.pdf).
6. Monte B., Goldenfum J., Michel G., Cavalcanti J. Terminology of natural hazards and disasters: A review and the case of Brazil // International journal of disaster risk reduction. – 2020. – № 52. URL: <https://doi.org/10.1016/j.ijdr.2020.101970>.
7. Staupe-Delgado R. Analysing changes in disaster terminology over the last decade // International journal of disaster risk reduction. – 2019. – № 40, 101161. URL: <https://doi.org/10.1016/j.ijdr.2019.101161>.
8. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf)
9. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20O.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20O.pdf)
10. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/disaster>
11. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/emergency>
12. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/disaster>
13. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/emergency>
14. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/disaster>
15. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/emergency>



Oydin AMETOVA,  
Alisher Navoiy nomli ToshDO'TAU katta o'qituvchisi

## “QUTADG'U BILIG” ASARINI TAHLIL QILISH USULLARI



Adabiy ta'limda badiiy asarni o'rganish jarayoni ni kuzatish tajribasidan shu narsa ma'lumki, uni to'la o'zlashtirishga erishish o'quvchining muallif tomonidan yozilgan hodisalar, qahramon xatti-harakatlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari, personajlarning tabiati, ruhiyatini qanchalar chuqur, yaqqol tasavvur qilishi, his etishi, tashqi va ichki olamini anglashiga bog'liq. Bularning barchasini anglatish uchun darsda qilinadigan asosiy ishlardan biri asarning badiiy tahlilidir.

Xo'sh, badiiy tahlil nima, u qanday jarayon?

Bu savolga taniqli adabiyotshunos, metodist olim Qozoqboy Yo'ldoshev shunday javob beradi: “Adabiy asarning yozilgan hamda tekshirilayotgan vaqtdagi badiiy va hayotiy mantig'i hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan intellektual-hissiy faoliyat badiiy tahlildir... Uning shakliga ko'ra og'zaki va yozma; maqsadiga ko'ra filologik va o'quv (didaktik) tahlili singari turlari mavjud. Filologik tahlil adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qarashni taqozo qiladi. O'quv (didaktik) tahlili esa badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir” [1,71–73].

Maktab adabiy ta'limida asarning o'quv (didaktik) tahlili amalga oshiriladi, chunki o'qituvchi va o'quvchining asarni tanlash imkoniyati yo'q, o'quv dasturida belgilangan badiiy ijod namunasi o'qib, tahlilga tortiladi.

Har qanday bilim, yangilikni izlash, o'qish va uqish aqliy mehnat, fikriy zo'riqishni talab qiladi. Shu sababli maktabda badiiy asar tahlili jarayoni og'zaki tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Darsda asar ustida ishlash, matn tahlili jamoaviy tarzda amalga oshiril-

ganda asar matni bilan tanish bo'lmagan, uni o'qishga ulgurmagan (yoki o'qishni xohlamagan) o'quvchilarning, avvalo, asarni o'qimaganiga afsuslanishi, qolaversa, shunday munozaralarda fikr almasha olmayotganidan uyalishiga guvoh bo'lamiz.

Demak, jonli tahlil va asardagi timsollar, voqea-hodisalarga bildirilgan turlicha talqinlar nafaol o'quvchilarni faollashtirishiga, matn bilan bevosita tanishish uchun beixtiyor harakatlanishiga yordam berishi tajribada sinalgan. O'quvchi og'zaki nutqidagi nuqsonlarni tuzatish, adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish, boshqalarga fikrini yetkazish va asoslashga o'rgatishda ham jamoaviy badiiy tahlilning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Har qanday asar tahlili markazida undagi qahramonlarni o'rganish masalasi turadi. Adabiy ta'limda badiiy asar qahramonlari muallif g'oyasi, ya'ni u aytmoqchi, uqtirmoqchi bo'lgan fikr-mulohazalar va “yuqtirmoqchi” bo'lgan xislat-xususiyatlarning o'ziga xos “tashuvchi”si ekanligi o'quvchi yoshlarimizga badiiy tahlil jarayonida anglatib boriladi. Shu bois, o'quvchida nafaqat dars, balki undan tashqaridagi mustaqil mutolaa davrida ham “Muallif bu timsol (qahramon, obraz, ramz) orqali nima demoqchi ekan?” – degan muammoli savolning tug'ilishi, o'z-o'zidan unga javob topish uchun mushohada qilishi hamda o'qiganlari haqida atrofidagi yaqinlari, jumladan, adabiyot o'qituvchisi bilan bahs-munozaraga kirisha olishi bevosita adabiyot o'qituvchisining mehnati samarasi hisoblanadi.

Adabiy qahramon shaxsi, hayoti, ruhiyati tahlili asnosida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi, voqea-hodisalarning yuzaga kelishida kimdir yoki nimadir sababchi bo'lishini tushuna boshlaydi. O'zgalarning yutuq va kamchiliklarini o'rganish orqali o'zi shaxs sifatida shakllanadi. O'quvchining asar qahramonlariga munosabatiga qarab uning dunyoqarashi, xulqi, oiladagi tarbiyasi, unga ta'sir otkazayotgan muhit haqida xulosa qilishimiz ham sir emas.

Maktabning turli bosqichlarida o'quvchining tahlil va munozaralarda ishtirok etishi ham, badiiy asardagi timsollarni qabul qilish darajasi ham o'ziga xos bo'lad. Adabiyot darslarida har bir sinfning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda individual hamda umumiy faoliyatni to'g'ri tashkil qila bilish adabiy ta'limning asosiy maqsadiga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchining har narsaga qiziqadigan, bilishga bo'lgan intilishi so'nimgan davrida mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr sohibini tarbiyalashga erishish maktab ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. Buning uchun o'qituvchi

ham tinimsiz izlanishi, o'z ustida ishlashi, dars mavzusiga mos usullarni o'ylab topishi lozim.

Ma'lumki, qadimgi turkiy yodgorliklar namunolari, xususan, "Qutadg'u bilig" [2] asari adabiy ta'limda o'rgatish ham, o'rganish ham birmuncha murakkab bo'lgan mavzular qatorida turadi, chunki asar qariyb o'n asr oldin yaratilgan. Jamiyat taraqqiy qilgani sari tilning ham rivojlanib borish qonuniyatidan kelib chiqsak, asar tilini bugungi kun o'quvchisi lug'at va tabdilsiz tushunishi qiyin. Asarda muallifning umumbashariy, falsafiy g'oyalari ramziy qahramonlarning o'zaro suhbatlari, turli xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Shu holatlarni inobatga olib asardan olingan parcha va uning tabdili 11- sinf Adabiyot [3,70–99] darsligida o'rganish uchun taqdim qilinishini metodik jihatdan to'g'ri deb hisoblaymiz.

Asarning asosiy qahramonlari Kuntug'di, Oyto'ldi, O'zg'urmish va O'gdulmishlarning tashqi qiyofasi, ichki olamini tasvirlashda muallif mahoratiga tan bermay ilojimiz yo'q. Negaki qahramonlar nomidan tortib ularning qiliqlari-yu savol-so'roqlari tasvirida muallif turkiy tilning imkoniyatlaridan unumli va maqsadli foydalana olgan. Matn tahlilini o'qituvchi o'quvchi bilan birgalikda amalga oshirsa, bu noyob adabiy hodisaning mazmun-mohiyatini ancha mukammal anglanishi mumkin. Adabiyotshunos olim B.To'xliyev badiiy asar tahlili uchun qismdan iborat bo'lishi haqida yozadi: "Asar bilan tanishishning dastlabki bosqichida uning yaxlitligini idrok etish; uni alohida elementlari bo'yicha jiddiy tahlil qilish; bu qismlarni yaxlit holatda birlashtirish" [4,48].

Demak, asarni o'rganishning 1-bosqichida o'qituvchi muallif va asar haqida qisqacha, ammo qiziqarli ma'ruza qilishi lozim. Ma'ruza jonli chiqishi uchun asarning kitob holidagi nashri, tarjima nusxalari, bolalar uchun mo'ljallangan nashrlari, elektron ko'rgazmali vositalar, tadqiqot ishlari, adabiy-tanqidiy maqolalardan olingan iqtiboslardan ham o'rinni foydalanish zarur. Asardan olingan parcha matni ustida ishlash jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- parchani ifodali o'qish;
- timsollarni tavsif qilish va qiyoslash;
- adibning maqsadini aniqlash;
- badiiy tasvir vositalarini belgilash;
- ijodkorning so'z qo'llash mahoratiga e'tibor qaratish;
- asarning adib ijodidagi; o'zbek adabiyotidagi; jahon adabiyotidagi o'rnini belgilash.

Darslikdagi matnni shartli ravishda 10 ta qismga bo'lib o'rganish mumkin. Har bir qism sarlavha va mustaqil mazmunga ega. Bu bosqichlarni sinf xususiyati va o'qituvchining bilim, tajribasiga ko'ra kengaytirish yoki qisqartirish mumkin. O'qituvchi asar qahramonlarining harakat-hoлатlari aks etgan lavhalarga ko'proq jamoa e'tiborini qaratlsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bosh qahramonlarning o'zaro suhbatlari, xatti-harakatlari orqali o'quvchi adibning hayotiy muammolar, inson shax-

si, ziddiyatli hodisalarga munosabatini anglab boradi. O'quvchi inson va uni qurshab turgan olamdagi munosabatlar, hayotiy zarurat va ehtiyojlar, ezgulik va yovuzlikning abadiy kurashini kuzatib, bu hodisalarning jonli guvohiga aylanadi, har bir masalaga o'z munosabatini bildirish imkoniga ega bo'ladi. Boshqa tur va janrlarda yaratilgan asarlardan farqli ravishda epik timsollar amaliy ishlash uchun o'qituvchi va o'quvchiga katta imkoniyat beradi. Mana shu o'rinda o'qituvchi ikki muhim jihatga e'tibor berishi zarur:

1. Asar qahramoni hayotda prototipiga ega (tarixiy).

2. Asar qahramoni ijodkorning fantaziyasi, mahorati natijasida yaratilgan badiiy timsol(to'qima)dir.

Har bir timsolning xususiy va umumiy sifat, xislat-xususiyatlari, nutqi, ruhiy olamini tahlil qilish davomida o'quvchining ularga nisbatan munosabati, baholovchi shaxsiy xulosasi yuzaga keladi. O'zining mustaqil qarashlarini dalillar asosida bayon etishga o'rganadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga imkoniyat berishi lozim. "Qutadg'u bilig"dan olingan parchaning 1-qism(-So'z boshi Kuntug'di elig to'g'risida)i ifodali o'qilgandan so'ng uning mazmunini o'zlashtirish jarayoni boshlanadi. O'qituvchi asarning markazida turgan qahramon – Kuntug'di elig portretini "Kuntug'di mening tasavvurimda... jumlasini davom ettiring!" usuli yordamida jamoaning har bir a'zosidan bitta so'z (so'z birikmasi, gap...) bilan qayta jonlantirishni so'ragani ma'qul. Bunda taxminan 15-20 xil fikr-mulohaza yuzaga keladi. Albatta, o'qituvchi bu fikrlarni umumlashtirib asarda hatto ismlar ham tasodifiy emasligini, agar yuksak insoniy fazilatli, ziyoli, bilimli inson adolat bilan yurtini so'rasa, bu o'lkani tinchlik-farovonlik, qut-baraka aslo tark etmasligi, ya'ni el-yurt peshonasiga "kun tug'gani"ni hayotiy voqea-hodisalarga bog'lab tushuntirishi mumkin. Bu qism xulosasi:

O'zi etti, tuzdi, ko'r, el-kun ishi

(O'zi – Kuntug'di el-yurt va zamona ishlarini bajo keltirdi va tuzdi),

Taqi ma tilar erdi o'drum kishi

(U yana yonida sara (o'ziga o'xshagan dono, oqil) kishilar bo'lishini istar edi) [3,72-73]...

"Qutadg'u bilig"dan olingan parchaning 2-qism(Oyto'ldi haqida so'z, Oyto'ldining eligga ko'rinishi)i ifodali o'qilib mohiyati tahlilga tortilganda sara kishilardan biri, ya'ni Oyto'ldi o'z ixtiyori bilan elig huzuriga kelganligi, ammo mol-davlat, mansab-martaba ilinji bilan emas, balki mamlakat boshqaruvida Kuntug'diga ko'mak bermoq niyatida ekani ma'lum bo'ladi. Bunday syujet o'quvchida o'z-o'zidan "Endi buyog'i nima bo'lar ekan?..." degan savolni tug'dirishi tabiiy. 3-qism, ya'ni "Oyto'ldi o'zi davlat ekanligini aytadi" deb nomlangan faslni o'qishdan oldin o'qituvchi jamoaga qarata "Elig nima sababdan g'azab otiga mindi?" deya "Aqliy hujum" qilishi lozim. Jamoa esa javob topish maqsadida sinc-hkovlik bilan 3- va 4-qism(Oyto'ldi o'zi davlat ekanligini aytadi; Kuntug'dining so'zi)larni o'qiydilar. Ammo savol-



ga javobni 5-qism(Oyto'ldi eligga davlat sifatini ko'rsatadi)dan topadilar: Oyto'ldi o'zining xatti-harakatlariga o'zi izoh beradi, koptok, ko'zni yumish, hukmdorga yuzini teskari qilish va boshqalar orqali davlat, mol-mulk qanday sifatlarga egaligi, moddiy boylik bugun senda bo'lsa, ertaga boshqa bironvda bo'lishini ko'rsatmoqchi bo'lganligini aytadi (bizningcha, obrazli tushuntiradi). Bu holatlar sababini bilganidan so'ng elig uni kechiradi, g'azab olovi esa Oyto'ldiga nisbatan mehr-muhabbat o'tiga aylanadi. Bu qism tahlilidan o'quvchida umrni yoshlikdanoq davlat orqasidan quvish bilan emas, bilim, kasb-hunar, tajriba to'plashga sarf qilinsa, buning oqibatida insoniyatga naf keltirsa, mazmunli umr sohibiga aylanadi, degan xulosa kelib chiqadi:

Mening bu o'zum ma bu yanglig' turur

(Men, o'zim (Oyto'ldi) ham shu oyning sifatlariga egaman),

Ara bar bo'lur – men, ara yo'q bo'lur

(Goho paydo bo'laman, goho mahv bo'laman)  
[3,79]...

6-qism (Kuntug'di elig Oyto'ldiga adl sifatlarini aytadi) o'qituvchi tomonidan "Kuntug'dining jumboqi" deb atalsa, jamoani jumboqni birgalikda yechishga chaqirsa, diqqat-e'tiborning kuchayishi va faollikning oshishiga sababchi bo'ladi. Negaki Kuntug'dining uch oyoqli kumush kursida qo'lida ulkan pichoq tutib, o'ng tomonida sharbat, so'l tomonida urog'un (dori) qo'ygan holda qosh-qovog'i osilib, yuzlarini burishtirib o'tirishi juda g'alati edi. Bu holatga hatto donishmand Oyto'ldining ham aqli ojiz qoladi. O'quvchilardan bu narsa-buyum va elig ahvoliga izoh so'ralganda bir-biriga o'xshagan fikr-mulohazalarning guvohi bo'lishimiz tabiiy. 7-qism(Kuntug'di elig Oyto'diga adl sifati qanday ekanini aytadi)da elig jumboq javobini o'zi aytadi: uch oyoqli kursi – to'g'rilik, adolat; xanjarsimon pichoq – yovuzlik, egrilikni joyi hamda vaqtida qirg'ish, kesish; shakar – hukmdor adolatidan bahramand kishi nasibasi; urog'un – zolim, zo'ravon, egri kishilar jazosi. Mana shu qism tahlilida obrazlar va detallarni qiyoslash, umumiy va farqli tomonlarini tahlilga tortish juda o'rinni:

1. Kuntug'di – elig; Oyto'ldi – vazir;

2. Kuntug'di – sobit, o'zgarmas; Oyto'ldi – keluvchi va ketuvchi, o'zgaruvchan;

3. Kuntug'di – adolat, to'g'rilik, haqiqat; Oyto'ldi – davlat, moddiy boyliklar;

4. Kuntug'di–tug'gan kun; Oyto'ldi – to'lgan oy;

5. Kuntug'di – donishmand, oqil; Oyto'ldi – donishmand, oqil;


6. Kuntug'di – asar voqealari davomida hayot; Oyto'ldi – asar voqealari davomida vafot etadi;

7. Koptok – bir joyda tura olmaydi, tayg'anchiq; uch oyoqli kursi – bir joyda turuvchi, turg'un;

8. Koptok – davlat; uch oyoqli kursi – rostlik, haqiqat;

9. Koptok – dumalaydi; uch oyoqli kursi – turadi;

10. Koptok – bevafoqlik; uch oyoqli kursi – sadoqat, vafodorlik;



11. Koptok – o'rni va do'sti yo'q; uch oyoqli kursi (adolat) yonida doimo xanjarsimon pichoq (zulm va zolimni yo'q qilish), shakar (mazlumning mukofoti), urog'un (yovuzlarning jazosi) mavjud...

Bunday qiyoslash usulini vaqt, sharoit va imkoniyatga qarab kengaytirish, qisqartirish, davom ettirish, og'zaki yoki yozma shakllarda tashkil qilish mumkin. Agar o'qituvchi taqdimot tariqasida "Davom ettiring!", "Nuqtalar o'rmini to'ldiring!" kabi topshiriqlarni oldindan tayyorlab qo'ysa, vaqtdan yanada unumli foydalanish, qayta murojaat qilish, takrorlash, xatolar ustida ishlashga ham zamin tug'iladi.

8-qism (O'zg'urmishning eligga javobi) tahlilidan oldin o'qituvchi O'zg'urmish obrazi haqida qisqacha ma'lumot berishi, ya'ni ismning ma'nosi uyg'otuvchi, sergaklantiruvchi ekanligi, qanoat, ofiyat (sog'lomlik) timsoli sanalishi, uning tarki dunyo qilib toat-ibodat bilan mashg'ulligi, ammo elig uning bilimi, tajribasi, maslahatlaridan el-yurt manfaati va ravnaqi yo'lida foydalanish uchun maktub yozib saroyda yashashga taklif qilganligini aytib o'tishi zarur. Shu qism O'zg'urmishning Kuntug'di, ya'ni mamlakat hukmdoriga shart qo'yishi bilan jonli va qiziqarlidir: abadiy tiriklik, mangu yoshlik, dardsiz salomatlik, tuganmas boylik. Agar shu shartlar bajarilsa, saroyda yashashga roziligini aytadi. Tabiiyki, eligning bu shartlarni bajarish qo'lidan kelmaydi.

9-qism(O'zg'urmishning eligga javobi)da esa



O'zg'urmish o'z vazifasini bajaradi. Kuntug'diga pand-u nasihat qilib uni sergaklantiradi, mudrayotgan ko'nglini uyg'otadi: umr o'tkinchi, vaqt g'animat, uni behuda so-vurmay, ezguliklar qilishga ulgurish lozimligi, yaxshilik umrning mazmuni, inson hayotining naqshi ekanligi, elig sifatida qanday mas'uliyat egasi ekanligini esga soladi. Bularning barini quruq so'z bilan emas, tamsil(hayotiy misol)lar bilan tushuntiradi:

Elingda biragu kecha qalsa ach  
(Elingda biror kishi kechasi och qolsa),  
Ani sendin aytur bayat, ko'zni ach  
(Xudo uning hisobini sendan so'raydi, ko'zingni och)  
[3,86].

Muallifning ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanib tajnis(ach – och qolmoq, ach – ochmoq)ning go'zal namunalari yaratganligini ham tahlilga tortish va asardan olingan boshqa dalillar bilan asoslash o'rinli.

10-qism(O'zg'urmishning O'gdulmishga aytganlari) da esa O'zg'urmish O'gdulmishga hayotda har bir inson, har bir narsa, o'qish va ishning qadriga uning mavjudligida yetish lozimligi, agar uni qadrsiz qilsang, keyin bularni topa olmay afsuslanish mumkinligi haqida ogohlantiradi:

Yanutlug' kishi ul – kishi edgusi  
(Javobli, oqibatli kishi – kishilarning yaxshisi),  
Budunda talusi, kishi belgusi  
(Xalq orasida sarasi, odamlar orasida taniqlisidir)  
[3,89].

Darslikdagi asar parchasini tahlilga tortish jarayonida o'quvchilar hozirgi kunda ko'ndalang turgan muammolar, ko'pchilikni qiynaydigan savollarga javob topilgani, tasavvur va taxayyul olamining kengayishi, nutqning yangi so'z, iboralar bilan boyib borishi, eng asosiysi, nodir va noyob ma'naviyat sarchashmasidan bahramand bo'lganiga amin bo'ladilar. Kerak bo'lsa, bundan qariyb ming yil oldin buncha pand-u nasihatni qiziqarli syujet ichiga singdira olgan muallif – Yusuf Xos Hojibga tahsin aytadilar. Uni bekorga davlat arbobi – xos hojiblikka loyiq ko'rishmaganini tushunadilar. Agar berilgan parchani asar hajmiga nisbatan qiyoslaydigan bo'lsak, nihoyatda kichik matn o'zlashtirilgani, ammo kichik matndan katta ma'naviy ozuqa olingani anglashiladi. Darsning kulminatsiyasi esa o'quvchilarda asarning to'liq matni bilan tanishish, uni to'lig'icha

o'qib-o'rganish, o'zlashtirishga rag'bat uyg'onishidir. 11-sinf darsligi hurmatli mualliflarining parchani berishdan va mahoratli, tajribali, fidoyi o'qituvchining barcha sa'y-harakatlaridan maqsadi ham aslida shu edi. Demak, asarni nafaqat dars jarayoni, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qib-o'rganish, kitobxonlik kechalarida asarning targ'ibot-tashviqoti hamda tahlilini amalga oshirish ham adabiyot o'qituvchisining vazifalaridan hisoblanadi. "Asar qaysi adabiy tur yoki janrda bo'lmasin, hajmining katta yoki kichikligidan qat'i nazar tahlil yakunida o'quvchilarning undan olgan taassurotlari asosida suhbat o'tkazilishi zarur. Bu tarbiyalanuvchilarning hayot haqiqati va badiiy haqiqat munosabatini idrok etishlarida, o'qilgan asardan hayotiy xulosalar chiqara olishlarida, ijtimoiy va falsafiy dunyoqarashlarining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu didaktik tadbir bilan asarni o'rganish yakunlanadi"[ 5,242].

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, tahlil jarayonida mustaqil va tanqidiy fikrlashni ta'minlash, uni rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish, asoslash, dalillashga, bu yo'lda eng qulay ish usullaridan foydalanish, har bir obraz, voqea-hodisa, ijodkor mahorati, asar tili, badiiy-tasviriy vositalar yuzasidan mustaqil fikr yuritish, vaziyatga tanqidiy va tahliliy yondashish, birovlariga yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar o'z fikrini ravon ayta olishni o'rgatishi kerak. O'quvchilardagi kreativ, tanqidiy tafakkurning, nutqning yaxshi rivojlanmaganligi, bahs-munozara, tahlil va talqinga yetarli tayyorgarlikning yo'qligi, asar yoki undan olingan parchani to'liq o'qimaganligi, estetik did hamda saviyaning pastligi badiiy asar qimmatini yuzaki baholashga olib keladi. Shunday ekan nafaqat asarning qimmatini, balki ijodkor mahoratini baholashda o'quvchilar oldiga adabiy qahramonlarni qiyoslash, tabiati va harakatlaridagi o'xshash va farqli tomonlarni topish, yutuq va kamchiliklarini ko'rsatish talabini qo'yish biz kutgan samarani beradi, ya'ni o'quvchi o'zi sezmaganda har bir obraz (ijobiy, salbiy, tarixiy, to'qima, bosh, epizodik...) – adabiy qahramon tomonidan tarbiyalanib, barkamol shaxs sifatida shakllanib, hayoti davomida badiiy asarni o'qish, undan oziqlanish va zavqlanishga bo'lgan ehtiyoji ortib boraveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. –T.: Kamalak, 2016. – 464 b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig, 2-nashr. – T.: Fan, 1972.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 70–99- betlar.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. Monografiya. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

**Lobarxon Rustamova**

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman  
XTBga qarashli 1-IDUM ona tili va adabiyot fan  
o'qituvchisi, NamDU mustaqil tadqiqotchisi*

## NAVOIYNING OILAGA MUNOSABATI

Garchi Navoiy yolg'iz o'tgan bo'lsa ham, lekin oilaviy hayotga munosabati ijobiy bo'lgan. Jumladan, ayolning oiladagi o'rniga oid muhim fikrlarni "Mahbub-ul qulub" asarida bayon etgan: Er bilan ayol bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi er-xotinning tinchligidan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lar, odobli bo'lsa, - jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli, ro'zg'or tartibli va saranjom bo'lur. Kishi bu xildagi juftga erishsa, balki bunday baxt qo'lga tushsa yashirin baxt va kulfatda sirdosh va hamdam bo'lar. Turmushdan har jaf o'yetsa, hasratdoshing ul va aylanuvchi osmondan har balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidin u g'am chekadi, badaning zaifligi va horg'inligidan u qiynaladi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq, ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngling undan ozorlanad, yaramas bo'lsa, ernaing ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, eriga yuzqoralik qiladi. Agar er mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi...

Ko'rinib turibdiki, ayolning oilada tutgan o'rniga tajribasi bor kishidek kuzatuvchanlik va chuqur mulohaza bilan yondashgan. Navoiyning bu fikrlari Yusuf Xos Hojibning qarashlariga yaqindir. "Qutadg'u bilik"da erkak kishi to'rt xil toifadagi ayolga uylanishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: boy, chiroyli, nasl-nasabl, farosatli. Shu bilan bir-biriga Yusuf Xos Hojib bu toifadan eng asosiysini aqillilik deb biladi va oqila ayolni boy, chiroyli, nasl-nasablilardan afzal deb biladi.

Demak, ulug' donishmandlar ayolning ma'naviy qiyofasiga asosiy e'tiborni qaratganlar. Navoiyning esa ayolga, muhabbatga munosabati birmuncha kengroq bo'lgan. Ma'lumki, Navoiy tasavvuf ilmining naqshbandiya tariqatiga moyil bo'lgan. Bu falsafa ta'limotiga ko'ra, xudo borliqda, uning hamma mavjudotlarda, jumladan, insonda zuhur etadi. So'fiylar ma'shuqalarida yaratganning jamolini ko'rganlar va sevikli yor timsolida unga intilganlar. Navoiy dostonlarining qahramonlari-Shirin va Laylida boqiy husn madh etilgan.

Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining debochasida bir qizga shaydo bo'lgani, lekin u shoir yoqtirmagan kishilar bilan yaqin bo'lib, unga e'tibor bermaganini ta'kidlaydi:

Yana bois bukim, ishq balo sho'r,

Bir o'tdin aylab erdi jonimga zo'r. Ma'nosi quyidagicha: Yana bir sabab menga baloday yopishgan sevgi edi, o'sha olov mening jonimga zo'rlik qilib turar edi.

Vafosiz, ta'bsiz, noahl anga xush,

Vafo ahli bila bitta'b noxush. (Sevgilimga vafosiz, tabiati yo'q, noahlilar xush ko'rinar edi, vafo ahlini tabiatidan chiqarib sevmas, yoqtirmas edi).

Malak hayli esa ashkim uchun rashk,

To'kibon ul pari har dev uchun ashk.

(Ko'z yoshlarim uning ishqida gavharday holda u yaramas kishilarga moyil).

Bir oykim bo'lg'ay ul solib manga dard,

Jahon paymou har joyu shavgard. (Menga qayg'u yuklagan ul oy, jahonni kezuguvchi, har joyda bo'lguchi, kecha aylanguchi).

Manga aylab g'amu mehnatni munis,

O'zi har qayda bo'lg'ay sha'm majlis. (U go'zal menga qayg'u va mehnatni esh qilib, o'zi har joyda majlislarning sha'mi bo'lib yurar edi).

Men Navoiyning dunyodan yolg'iz o'tganiga ana shu "go'zal" sababchi, degan fikrdan yiroqman. Bu masala ulug' shoirning o'ta shaxsiy ishi va e'tiqodi bilan bog'liq nozik mavzudir. Nima bo'lganda ham Navoiy oila masalasiga juda jiddiy qaragan, ayolni oilaning asosiy ustunlaridan biri deb bilgan.

Balki, Navoiy ulug' mutafakkir sifatida bunday hilqatni uchratmagani sabab muhabbat dostonlarida pok va go'zal ishqni kuylab o'tgandir? Har holda Layli va Shirin timsoli shoirning yuksak tuyg'ularini, orzularini ifodalagan. Navoiy muhabbat deganda ana shunday ayolni tushungan.

Sanoqdan adashib ketadi odam: naziri yo'q mutafakkir-daho shoir, nosir, g'azal mulkingning sultini, xamsanavis, zullisonayn ijodkor, sohibi devon, novator, musavvir, mutasavvif...

Davlat va jamiyat arbobi-muhrdor, vazir, hokim, murabbiy, binokor, homiy, tadbirkor, musiqashunos...

Olim, tilshunos, munaqqid, etnolog, faylasuf, ruhshunos...

Bir so'z bilan aytganda-Navoiy! Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, shunday inson qanday qilib buyuk bo'lmasin!

Din, tarix, san'at, siyosat, mantiq, falsafa, astronomiya va harb ishi Navoiy nazaridan chetda qolmadi. Shoiru olim, orifu obid, oqilu noqis-kimligidan qat'iy nazar-Navoiy dunyosidan o'ziga keragini topadi; har kim holi va darajasi-ga yarasha tengsiz merosdan bahramandlik baxtini tuyadi.

Ulug' mutafakkir olamiga bo'ylashdan oldin tayyorgarlik ko'rish zarurligini bilamiz. Bu faqat o'qib-o'rganish bilan bitadigan ish emas, albatta. Muhimi-Navoiy "sayyora" sigasafar uchun qalbni hozirlash, ruhiy tayyorgarlik. Bundan tashqari, islom asoslari, Qur'on va Hadis ilmidan yetarli darajada boxabar bo'lish kerak.

Navoiy ijodini bir katta qasr desak, hali biz o'sha qasratrofida aylanib yuribmiz xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" asari 1956-yil
2. A. Navoiy «Xamsa». Yangi asr avlodi, 2015-yil.
3. A. Navoiy «Mahbub-ul qulub» asari.
4. Adabiyot darsligi 9-sinf «O'zbekiston» nashriyoti 2019-yil.



**Марал АЙТЖАНОВА,**

учитель 41-й специализированной школы Ходжейлийского района  
Республики Каракалпакстан

## РАЗРАБОТКА УРОКА НА ТЕМУ «ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО СЕРГЕЯ ЕСЕНИНА»

### Цели урока:

**обучающие** – проанализировать стихотворения С.Есенина, отражающие его взгляды на окружающий мир, понимание прекрасного и возвышенного, рассмотреть циклы стихов о любви поэта к Родине, матери, раскрыть глубину чувств лирического героя;

*развивающие* – совершенствовать навыки выразительного чтения, развивать умение анализировать текст, работать с выразительными средствами языка;

*воспитывающие* – воспитание патриотизма, любви к родному языку, интереса к личности С.Есенина и литературе в целом.

**Оборудование:** портрет С.Есенина, иллюстрации по его биографии и творчеству, презентация.

### Эпиграфы:

«Я сердцем никогда не лгу».

«На земле, мне близкой и любимой, эту жизнь за всё благодарю».

«С того и мучаюсь, что не пойму, куда несёт нас рок событий».

**Вопросы, отражающие ход урока:**

1. Как выглядит «малая» родина в ранней лирике С.Есенина?

2. С.Есенин и революция: почему изменился взгляд поэта на жизнь?

3. Что дороже поэту: «Русь уходящая» или «Русь советская»?

4. Как в цикле «Москва кабацкая» отразилось разочарование поэта?

5. Находит ли поэт компромисс, и как он отражен в его творчестве?

**Методы и приёмы:** слово учителя, аналитическая беседа, метод творческого чтения, исследовательский метод (сопоставительный анализ стихотворений С.Есенина и А.Блока).

*Слово учителя.* Хочется начать урок словами М.Горького: «Сергей Есенин – не столько человек, сколько орган, созданный природой исключительно для поэзии, для выражения неисчерпаемой «печали полей», любви ко всему живому в мире и милосердия, которое, более всего иного, заслужено человеком».

С.Есенин – единственный среди русских поэтов-лириков, в творчестве которого невозможно выделить стихи о родине в особый раздел. Всё, написанное им, проникнуто «чувством родины».



Как писал сам поэт: «Чувство родины – основное в моём творчестве». Заметьте, не тема, а чувство.

Что же говорит сам Есенин о себе в автобиографии?

